



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2024-yil  
4-son

e-ISSN 3060-4885

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И  
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL  
ELECTRONIC JOURNAL OF THE  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND  
SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

O'zbek tilining A1 darajasiga qo'yilgan grammatik talablar

46  
bet

O'zbek-turk muloqot madaniyatida taqlid so'zlar pragmatik to'siq sifatida

48  
bet

Maqollar bilan bog'liq interfaol metodlar

54  
bet

Изучение памятников русского делового языка в филологическом вузе

74  
bet



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2024-yil  
4-son

e-ISSN 3060-4885

**MAS'UL MUHARRIR**  
Shahobiddin Rasulov

**MUHARRIRLAR:**  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova  
Nargiza Sotvoldiyeva  
Muxlisa Do'stmuhamedova

**SAHIFALOVCHI**  
Akmal Farmonov

**Tahririyat manzili:**  
100011, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (55) 510-28-44,  
(77) 358-57-67  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar  
@FilologiyaPedagogikaBot  
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 26.12.2024 da  
nashr etildi.

**MUASSIS**  
O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi  
"Til va adabiyot ta'limi"  
davlat korxonasi

**TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI**

ЯЗЫКОВАЯ КУЛЬТУРА И ЛИТЕРАТУРА  
LANGUAGE AND LITERATURE

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И  
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL  
ELECTRONIC JOURNAL OF THE  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND  
SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

## TAHRIR HAY'ATI:

**Hilola Umarova**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri*

**Farhod Boqiyev**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari*

**Azizbek Turdiyev**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi*

**Farrux Jabborov**

*"Til va adabiyot ta'limi" - "Преподавание языка и литературы" -  
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 - FILOLOGIYA

**Baxtiyor Mengliyev**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
tadqiqotchi-professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Baxtiyor Doniyorov**

*Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Nurafshon filiali  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Anatoliy Lixodzyevskiy**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Oksana Gibraltarskaya**

*O'zbekiston Milliy universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Svetlana Im**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Ranusha Atayeva**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti katta  
o'qituvchisi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

13.00.00 - PEDAGOGIKA

**Qozoqboy Yo'ldoshev**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Salima Jumayeva**

*Alfraganus universiteti Sharq  
filologiyasi kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi*

**Xadicha Muxitdinova**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**G'ofir Hamroyev**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
tadqiqotchi-professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Sevara Ziyayeva**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori*

**Indira Narkulova**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti katta  
o'qituvchisi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrda 365/5-qarori bilan 10.00.00 - Filologiya va 13.00.00 - Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

# M U N D A R I J A

## 10.00.00 – FILOLOGIYA

<b>Namoz Rasulov.</b> O'zbek tilining A1 darajasiga qo'yilgan grammatik talablar .....	3
<b>Saodat Israilova.</b> Qozoq, turk va o'zbek tillarida “ko'k” yadroli birliklarning semantikasi .....	7
<b>Nasiba Abdulzoirova.</b> Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida shaxs fojiasi .....	10
<b>Эльвина Алиева, Озода Темирова.</b> Формы повелений и побудительных высказываний со значением долженствования и нецелесообразности в поэтических текстах Владислава Фелициановича Ходасевича .....	14
<b>Hamza Abdullayev.</b> Jurnalistik ixtisoslashuv va so'z erkinligi .....	17
<b>Gulchehra Mustafayeva.</b> O'zbek tilida turg'un o'xshatishlar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari .....	20
<b>Гульсанам Файзуллаева.</b> Особенности функционирования понятия «любовь» в романе Марины Степновой «Женщины Лазаря» .....	22
<b>Камола Зияева.</b> Жанр речи «шутка» с точки зрения ученых .....	25
<b>Анатолий Лиходзиевский.</b> Мастер поэтической прозы .....	27
<b>Mansur Vaxabov.</b> “Ma'rifat” tushunchasining mazmun-mohiyati .....	29
<b>Odinaxon Saidaxmedova.</b> Til o'zlashtirishning mantiqiy muammolari .....	31
<b>Sanobar Djumanova</b> Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan jurnalistik matnlar tahlili .....	34
<b>Yayra Makhmatkulova.</b> Main assumptions of cognitive linguistics and linguoculturology .....	36
<b>Sohiba G'oyirova.</b> Korporativ imij konsepsiyasini tadqiq etishga doir yondashuvlar .....	39
<b>Диляра Балич, Андрей Кучинский.</b> Волшебница Земноморья (К 95-летию со дня рождения Урсулы Ле Гуин) .....	42
<b>Aziza Aslanova.</b> O'zbekistonda brending asoslari va uni targ'ib qilish.....	45
<b>Sherzod Atamuradov.</b> O'zbek-turk muloqot madaniyatida taqlid so'zlar pragmatik to'siq sifatida .....	48

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA

<b>Gulhayo Tolibova.</b> Ona tili darslarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalar bilan ishlash .....	51
<b>Ravshanbek Egamberdiyev.</b> Maqollar bilan bog'liq interfaol metodlar .....	54
<b>Фархад Халилов.</b> О роли учёных Национального университета Узбекистана в развитии узбекской транслеологии .....	57
<b>Dilfuza Islomova, Nigora Mirzayeva.</b> Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar: zamonaviy o'qitish va amaliyot .....	59
<b>Dilnoza Fayziyeva.</b> Ernest Seton Tompsonning “Lobo” hikoyasi .....	61
<b>Komila Radjabova.</b> Ona tili fanini o'qitishda “Small study” metodidan foydalangan holda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish .....	66
<b>Нина Рогозинникова.</b> Изучение памятников русского делового языка в филологическом вузе .....	74
<b>Bezkod Razzaqov.</b> Zamonaviy metodikalardan foydalangan holda ona tili fanini o'qitish .....	76
<b>Munisa Karimqulova.</b> O'lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” asarini o'rgatishga doir samalari metodik tavsiyalar .....	78
<b>Muhayyo Rajabova.</b> Ingliz tilini fanlar kesimida bog'lash amaliyoti .....	81
<b>Umida Xudoyqulova.</b> So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rgatish usullari ....	83
<b>Shakhnoza Kayumova.</b> Axiolinguistic features of hydronymic component proverbs in english and uzbek languages .....	88

Namoz RASULOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek tilshunosligi  
kafedrası o'qıtuvchısı

## O'ZBEK TILINING A1 DARAJASIGA QO'YILGAN GRAMMATIK TALABLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqola CEFR tizimi va uning o'zbek tilida qo'llanilishi bilan bog'liq masalalarga qaratilgan bo'lib, unda o'zbek tilida CEFR tizimiga mos ko'nikmalar rasmiy ravishda tasniflanmaganligi, til o'rganish jarayonida grammatika asosiy ko'priq vazifasini bajarishi, o'zbek tilining A1 darajasi uchun grammatik talablarga ilk bor izoh berilgani, o'zbek tilini o'rganishda xalqaro standartlarga mos keluvchi, bosqichma-bosqich o'sishga yo'naltirilgan lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi materiallarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, CEFR, A1 daraja, lingvistik kompetensiya, grammatik ko'nikma, leksik ko'nikma, grammatik minimum.

**Annotation.** This article focuses on the CEFR system and its application in the Uzbek language, highlighting that CEFR-aligned competencies in Uzbek have not been officially classified. It emphasizes that grammar serves as a fundamental bridge in the language learning process, provides the first explanation of grammatical requirements for the A1 level of Uzbek, and underscores the need to develop materials that adhere to international standards, promote step-by-step progression, and enhance linguistic and communicative competencies for learning Uzbek.

**Keywords:** Uzbek language, CEFR, A1 level, linguistic competence, grammatical skills, lexical skills, grammatical minimum.

**Аннотация.** Данная статья посвящена системе CEFR и её применению в узбекском языке. Отмечается, что соответствующие системе CEFR компетенции в узбекском языке до сих пор не были официально классифицированы. Подчеркивается, что грамматика играет ключевую роль как мост в процессе изучения языка. Впервые даны разъяснения к грамматическим требованиям для уровня A1 узбекского языка. Также акцентируется необходимость разработки материалов, соответствующих международным стандартам, ориентированных на поэтапное развитие и направленных на улучшение лингвистических и коммуникативных навыков при изучении узбекского языка.

**Ключевые слова:** узбекский язык, CEFR, уровень A1, лингвистическая компетенция, грамматические навыки, лексические навыки, грамматический минимум.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5850-sonli, shuningdek, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6084-sonli Farmonlariga muvofiq 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan.

Konsepsiyadagi **davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish** yo'nalishi o'z ichiga bir qator vazifalarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Unda davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish hamda boshqa tillar bilan aloqalarini kengaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. O'zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish, uni o'rganish istagida bo'lgan chet ellik fuqarolarga ko'maklashishga mo'ljallangan onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini

ta'minlash va muntazam boyitib borish; xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish va faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini joriy etish; fan va ta'limdagi hamkorlikni kuchaytirish orqali chet ellik yoshlarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish ushbu chora-tadbirlarning muhim vazifalaridandir [1].

Konsepsiyada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish borasida bir qator natijali harakatlar qilingan. Xususan, "Vatandoshlar" jamoat fondi tashabbusi bilan xorijdagi vatandoshlarning farzandlariga, shuningdek, o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet ellik fuqarolarga ko'maklashishga mo'ljallangan "O'zbek tili onlayn ta'lim platformasi" tashkil qilingan. Platforma A1 daraja bo'yicha 8 moduldan iborat bo'lib, har bir modulda uchta mavzu mavjud. Jami 24 ta dars taklif etiladi. Har bir mashg'ulot turli mashqlar, video va audio materiallar, shuningdek, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini yorituvchi interaktiv tarkibni o'z ichiga oladi. Bu loyiha o'zbek tilini oson va qiziqarli shaklda o'rganishga yordam beradi [2].

Vazifalarni samarali bajarish mutaxassislardan ba'zi ilmiy tadqiqotlarni olib borishni ham talab qilmoqda. Dunyo miqyosida chet tillarini o'qish, o'rganish; chet tilini bilish darajasini baholash kabi tushuncha va tizimlar mavjud. Shunday tizimlardan biri "Yevropa tillari uchun

umumiy kompetensiyalar doirasi” deb tarjima qilinuvchi CEFR tizimidir. Bu tizim tillarni o‘rganish, o‘rgatish va baholash uchun xalqaro miqyosda tan olingan standart bo‘lib, tillarni egallash darajalarini (6 ta daraja) belgilaydi:

- A1 – boshlang‘ich daraja;
- A2 – boshlang‘ichdan yuqori daraja;
- B1 – o‘rta daraja;
- B2 – o‘rtadan yuqori daraja;
- C1 – ilg‘or daraja;
- C2 – mukammal daraja [3].

Har bir darajani o‘z navbatida yengil, o‘rta, murakkab kabi qismlarga bo‘lish ham mumkin. Darajalar o‘quvchining til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich o‘sib borishga qaratilgan. CEFR tizimiga ko‘ra har bir daraja uchun so‘zlash, tinglab tushunish, yozish, o‘qib tushunish, grammatika va lug‘at ko‘nikmalari bo‘yicha ma‘lum talablar mavjud.

O‘zbek tilida CEFR tizimiga mos ko‘nikmalar haligacha rasmiy tasniflanmagan.

Mana shu masala biz yuqorida: “Vazifalarni samarali bajarish mutaxassislardan ba‘zi ilmiy tadqiqotlarni olib borishni ham talab qilmoqda”, deb ta‘kidlagan fikrimizni dalillaydi.

Ma‘lum bir tilni o‘rganish va o‘rgatish ham murakkab jarayon bo‘lib, bu faoliyat puxta o‘ylangan reja asosida amalga oshirilishi muhim, chunki til bir butun tizimni tashkil qilar ekan, uni o‘qish va o‘qitish ham bu tizimning bevosita ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Biror tilni A2 darajada bilish, shu tilda muloqot qilishni anglatadi. B2 darajada bilish esa ta‘lim olishga yaqinlashtiradi. C2 darajada bilish xuddi ona tilini bilgandek bo‘lib, bu akademik bilimlarni anglash va hatto badiiy adabiyotni tushunish darajasini bildiradi.

Jahon til o‘qitish tajribalari har bir darajaning qamrov mavzulari, taxminiy ishchi dasturlar va darajalarga mos qo‘llanmalarni ishlab chiqarishning ahamiyati haqida yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ingliz tilidagi A1 daraja tanish kundalik birliklarni tushunish va ulardan foydalanish; shaxsda o‘zi va atrofdagilarini tanishtira olish ko‘nikmasini shakllantirish; shaxsiy ma‘lumotlar (masalan, yashash joyi, shaxsga tegishli buyumlar) haqida gapira va savol bera olish; nutqda ikkinchi shaxs shoshmay, ravon gapirsa, u bilan boshlang‘ich iboralar bilan suhbatga kirisha olish kabi bir qancha talablarni o‘z oldiga qo‘yadi. Shuningdek, ingliz tilida boshlang‘ich darajaning leksik minimumi 300 – 700 ta so‘zni bilish kerakligini nazarda tutadi [5]. Bu talablar tillarning xususiyatidan kelib chiqib biroz boshqacharoq ko‘rinishda bo‘lishi ham mumkin.

CEFR talablari ingliz, ispan, fransuz, nemis, italyan, yapon, arab, koreys, xitoy, turk tillarida rasman tasdiqlangani bois bu tillardagi o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish, baholashni tashkil qilishda muammolar ko‘zga tashlanmaydi. Ammo adabiy til sifatida o‘z yozuviga, grammatik tamoyillariga ega bo‘lgan o‘zbek tilida bu masala yechimini kutib turgan muammolardandir. Shu

kunga qadar turli mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbek tili” darslik va qo‘llanmalari mohiyatan A1, A2, B1 yoki B2 qabilida darajalangan bo‘lsa-da, ular til bilishning xalqaro standartiga qay darajada mosligi maxsus tekshirilmagan yoxud mualliflar tomonidan ochiqilmagan [5]. Bunday mahsulotlarning xorij mualliflari tomonidan ham, o‘zbekistonlik mualliflar tomonidan ham yaratilgan namunalarini ko‘plab uchratish mumkin.

Til o‘rganish jarayonida grammatika o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Har qanday tilning grammatikasi, ya‘ni uning tuzilishi va qoidalari o‘sha tilda to‘g‘ri muloqot qilish uchun zaruriy asoslarni taqdim etadi. Tilni grammatikadan keraklicha foydalanib o‘rganishning muhim jihatlari buni tasdiqlaydi. Ilk bor O‘zbek tilining A1 darajasiga qo‘yilgan grammatikaga oid talablar izohlab berilmoqda. Bunda o‘rganuvchilar auditoriyasining ko‘pligi bilan tanilgan ingliz tili va o‘zbek tili bilan qarindosh turk tilining CEFR talablariga taqqoslab, natijalar tahlil qilindi.

I. *Tildagi tovushlarni talaffuz qila olish va alifbodagi harflarni taniy olish* ko‘nikmasi boshqa tillarda A1 (Pre A1) darajagacha taalluqli bo‘lsa-da, o‘zbek tilida bu ko‘nikma A1 daraja uchun taklif qilinadi.

II. *So‘zlarni bog‘lab sodda gaplar (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, istak gap) tuza olish* ko‘nikmasi keng mazmunga ega. Mana shu grammatik ko‘nikma boshqa barcha grammatikaga oid bilimlarni qamrab oladi:

1. *Kishilik olmoshlarini va bog‘lamalar (-man, -san, -miz, -siz, -dir)ni ishlata olish* mustaqil ko‘nikmalar hisoblansa-da, ularning nutqda voqelanishi bir-birini taqozo qiladi. Shuning uchun qo‘shko‘nikma shaklida kiritilmoqda.

2. *Ko‘rsatish olmoshlari (bu, shu, u, ana, mana)ni ishlata olish va so‘roq olmoshlari (kim?, nima?, qani?, qayer?, qachon?, qanday?...) ni ishlata olish* ko‘nikmasi ham qo‘shko‘nikmalikka da‘vogar, chunki ot-kesimli eng kichik gap qolipi, avvalo, ko‘rsatish olmoshining ega, so‘roq olmoshining esa kesim bo‘lib kelishi bilan voqelanadi: *Bu kim? Bu nima?* kabi.

3. *So‘roq yuklamasi (-mi)ni ishlata olish* ko‘nikmasi. [10: 575–576] *-mi* yuklamasi bilan shakllangan so‘roq gaplar javob talab qilish nuqtayi nazaridan boshqa tillardagi shu struktura bilan umumiylik hosil qilsa-da, qo‘llanishi bilan boshqa tillardan tubdan farq qiladi. Bu o‘zbek tilini o‘rganishning maxsus imkoniyati hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida umumiy so‘roq gaplar deb nomlanuvchi bu forma gapning boshida, eganing oldiga yordamchi fe‘l yoki modal fe‘lni qo‘yish bilan yasaladi. Agar darak gapda yordamchi fe‘l bo‘lmasa (Simple Present yoki Simple Past zamonlarda), eganing oldiga *do (does)* yoki *did* yordamchi fe‘llari qo‘yiladi, asosiy fe‘l esa egadan keyin qo‘yiladi [8: 284].

O‘zbek tilida umumiy so‘roq gaplarni hosil qiluvchi *-mi* so‘roq yuklamasining yana bir o‘ziga xosligi uning gap so‘ngida keladigan kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shilishidir. Bu xususiyat uni turkiy tillar guruhiga mansub tillardan, xususan, turk tilidan ham farqlab

turadi. Turk tilida -mi so'roq yuklamasi so'ralayotgan aniq shaxs, predmet yo harakatning o'ziga qo'shiladi. Masalan, *Evde baban mi var?* gapi o'zbek tilida *Uyda otang bormi?* tarzida ifodalanadi [6: 323, 324]. Turk tilidagi so'roq yuklamasining o'zbek tilidagi so'roq yuklamasidan ajralib turuvchi farqi ham mavjud: turk tilida so'roq yuklamasi o'tni fe'lga bog'laydi [7: 39]. Yuqorida keltirib o'tilgan bir qancha jihatlar -mi so'roq yuklamasining o'zbek tilida o'rganish va o'rgatish uchun juda qulayligini amaliy isbotlaydi, ammo shaxs-son shakllari bilan qo'llanganda shaxs-sonning yuklamadan oldin yoki keyin qo'llanishi o'rganuvchilarga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

4. *Ismlarni ko'plik mazmunida ishlata olish* ko'nikmasi otlarga -lar qo'shimchasini qo'shib ifodalashni anglatadi [10: 125–144]. Bu darajada -lar shaklining hurmat ma'nosini ifodalashi nazarda tutilmagan. Shuningdek, ko'plik anglatishning sintaktik formalari (*beshta kitob, ko'p odam*) ham A1 daraja uchun tavsiya etilmaydi. Aniqrog'i ularni ko'plik grammatik mazmunini anglatish sifatida kiritish ma'qul emas.

5. *Kelishik shakllarini ishlata olish* ko'nikmasi eng katta grammatik ko'nikma hisoblanib, uning mazkur darajaga xoslangan minimumidan o'rinli foydalanish kerak:

a) *bosh kelishikni qo'llay olish* ko'nikmasida o'zbek tilida bosh kelishik shakli maxsus formaga ega emasligi bilan xarakterlanadi;

b) *qaratqich kelishigini qo'llay olish* ko'nikmasida faqat belgili qaratqichning qaratuvchilik mazmuni nazarda tutiladi. Shuningdek, qarashlilik mazmunidagi -niki shaklini ushbu kompetensiya bilan hamkorlikda singdirish muhim hisoblanadi;

d) *tushum kelishigini qo'llay olish* ko'nikmasida o'zbek tilida tushum kelishigi maxsus shaklga ega ekanligi ta'kidlanib, uning belgisiz kelganda noaniqlik va belgili kelganda aniqlik mazmunini bildirishi nazarda tutiladi;

e) *jo'nalish kelishigini qo'llay olish* ko'nikmasida ushbu kelishikning sabab, maqsad, atalganlik, yo'nalish kabi bir necha ma'nolari emas, faqat o'rin-joyga yo'nalganlik mazmuni nazarda tutiladi. Shuningdek -ga ... yo-q(a)di/yoqma(y)di *strukturasini ishlata olish* ko'nikmasi bir qarashda leksik ko'nikmaga o'xshasa-da, bunda sintaktik qurilma aks etgani uchun grammatik ko'nikma sifatida tasniflaymiz;

f) *o'rin-payt kelishigini qo'llay olish* ko'nikmasida ham uning ish-harakatning bajarilish o'rniga (qayerda?) va paytiga (qachon?) xos ma'nolari nazarda tutiladi. -da... bor/yo'q qolipi orqali *sodda gaplar tuza olish* ko'nikmasi mazmunan kelishik shakli bilan bog'lanmasa-da, buni ham sintaktik qurilma hosilasi nuqtayi nazaridan grammatik ko'nikma sifatida shakllantirish mumkin;

g) *chiqish kelishigini qo'llay olish* ko'nikmasida asosan o'rin-joydan uzilish mazmuni yetakchilik qilsa-da, mansublik munosabatini ham uqtirish o'rinlidir. O'rin-joyga mansublik mazmunini anglatuvchi -lik

(*Samarqanddanman/ samarqandlikman*) so'z yasovchi qo'shimchasi ham shu ko'nikmaning varianti sifatida shakllantiriladi [10: 190–248].

6. *Egalik shakllarini ishlata olish* ko'nikmasi qaratqich kelishigini qo'llay olish ko'nikmasi bilan hamohangdir. Bunda egalik shakllarining III shaxs birlikda xoslik va umumdan ajratilganlik mazmuni ham birga tushuniladi. [10: 144–190]

7. *Sonlarga oid ayrim ma'nolarni ifodalay olish* ko'nikmasi kengroq xarakterga ega bo'lib, o'zbek tilidagi sonlarni anglash, dona son qo'shimchalarini ishlata olish, hisob so'zlardan foydalana olish va tartib sonlarni qo'llay olish ko'nikmalarini qamrab oladi [10: 307; 313; 330].

8. *Ayrim sof va vazifadosh ko'makchilarni qo'llay olish* ko'nikmasi ham A1 darajada mavjudki, bunda ko'makchilarning ko'p ma'noli ekanligini hisobga olish shart:

a) "*bilan*" ko'makchisini qo'llay olish ko'nikmasida biroz ehtiyotkorlik talab qilinadi. Bu ko'makchining A1 darajada faqat vosita va birgalik mazmuni shakllantirilishi mumkin. *Bilan* ko'makchisining va teng bog'lovchisiga sinonim bo'lib kelishi o'zbek tilida faol bo'lgani uchun ikkalasini farqlash zarur;

b) "*uchun*" ko'makchisini qo'llay olish ko'nikmasi ham keng mazmunli bo'lgani uchun uning faqat atalganlik mazmunini nazarda tutish kerak;

d) "*...dan oldin/keyin*" vazifadosh ko'makchilarni ishlata olish ko'nikmasi A1 darajadagi qachon? so'roqli gaplarga javob berish uchun muhim hisoblanadi. Bularni payt mazmunli *oldin* va *keyin* ravishlaridan farqlash lozim;

e) *o'rin mazmunini anglatuvchi vazifadosh ko'makchilarni qo'llay olish* ko'nikmasi ham muhim sanaladi. Bu ko'makchilar kelishik shakllarini olib turli mazmunga ko'cha oladi. Shuning uchun A1 darajada faqat ...ning *ustida, ichida, yonida, orqasida, tagida/ostida, qarshisida/ro'parasida, orasida* kabi joylashish o'rnini mazmunidagi shakllarini berish kifoya [10: 541–565].

9. *Oddiy fe'l zamonlarini ishlata olish* ko'nikmasi ham nisbatan keng qamrovga ega:

a) "-y" yoki "-a" zamon qo'shimchalarini ishlata olish ko'nikmasida ikki xil zamon mazmuni nazarda tutiladi: umumzamon va aniq kelasi zamon. Ularning har ikkalasi ham mazkur daraja uchun muhim hisoblanadi. Avval umumzamon mazmunini (*Toshkentda yashayman*), keyin aniq kelasi zamon mazmunini shakllantirish kerak;

b) "-yap" zamon qo'shimchasini ishlata olish ko'nikmasi ham ikki xil mazmunli bo'lib, ularning har ikkalasi ham mazkur daraja uchun mos: hozirgi zamon davom mazmuni va hozirgi-kelasi zamon mazmuni;

d) *o'tgan zamon shakllarini ishlata olish* ko'nikmasi mazmun talabi bilan boshqa tillardan farq qilishi mumkin. A1 darajaga mos ayrim fikrlarni ifodalash uchun -gan shakli va -di shaklidan o'z o'rnida foydalanish mumkin;

e) “-moqchi” qo’shimchasini ishlata olish ko’nikmasi faqat kelasi zamon maqsad fe’li mazmunini nazarda tutadi.

Zamon shakllari hech vaqt yolg’iz o’zi ma’no anglatmagani va yolg’iz qo’llana olmasligini yodda tutish kerak. Bu o’rinda zimdan *shaxs-son qo’shimchalarini qo’llay olish* ko’nikmasi ham ma’lum vazifa bajaradi [10: 475–503].

10. *To’liqsiz fe’llarni (emas) ishlata olish* ko’nikmasi sodda ot-kesimli gaplarning inkor formasini hosil qilishni anglatadi. To’liqsiz fe’llarning boshqa shakllari, xususan, murakkab zamonlarni hosil qiluvchi shakl va mazmunlari A1 daraja uchun xos emas [10: 418].

11. *Fe’l mayllarini ishlata olish* ko’nikmasi ushbu darajada faqat buyruq maylining II va III shaxsiga yo’naltirilgan [10: 464–466]. Bu ko’nikma ayrim tillarda A2 daraja uchun xoslangan bo’lsa-da, buyurish nutqning eng faol shaklidir. Shuning uchun buyruq maylini A1 daraja uchun tavsiya qilamiz [9: 9].

12. “-ma” bo’lishsizlik shaklini ishlata olish ko’nikmasi mayl grammatik ko’nikmasi bilan bir vaqtda, so’ng fe’lga oid barcha grammatik bilimlar bilan chuqurlashtirib boriladi.

III. *Qo’shma gaplar tuza olish ko’nikmasi* bir qarashda juda murakkabdek tuyulishi mumkin, ammo bu quyidagi grammatik ko’nikmalar bilan oson amalga oshadi:

a. “-va” bog’lovchisini ishlata olish ko’nikmasi nafaqat uyushiq bo’laklarni bog’lash, balki sodda gap qismlarini ham bog’lashga xizmat qiladi;

b. “Ammo”, “lekin”, “biroq” zidlov bog’lovchilarini qo’llay olish ko’nikmasida ikki fikrni bir-biriga zidlaydi.

d. “-esa” bog’lovchisini qo’llay olish ko’nikmasida ikki sodda gapni qiyoslaydi;

d. “-chunki” bog’lovchisini qo’llay olish ko’nikmasida oqibatning sababini ayta oladi;

f. “-yo”, “-yoki” bog’lovchisini ishlata olish ko’nikmasi uyushiq bo’laklar qismlarini bog’lash barobarida sodda gap qismlarini ham bog’lashga xizmat qiladi, ularga ikkalasidan biri mazmunini yuklaydi;

g. *Ohang vositasida qo’shma gaplar tuza olish* ko’nikmasi boshqa bog’lovchi vositalarga nisbatan kamroq qo’llanilsa-da, ushbu daraja uchun ham amal qila oladi.

Leksik va grammatik ko’nikmalar bir butun lingvistik kompetensiyani tashkil qilgani uchun ba’zi lingvistik kompetensiyalarning leksik yoki grammatik ko’nikma ekanligini aniqlab bo’lmaydi. Leksik ko’nikmalar grammatik hodisa singari tajallilanadi. Yuqorida sanab o’tilmagan ayrim grammatik ko’nikmalar leksik ko’nikmalarda davom ettiriladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, O’zbek tilini o’rgatishni tashkil qilishda grammatik bilimlarni kompleks shaklda, til sathlararo ketma-ketlikda emas, balki nutq vaziyatining birlamchi xususiyatidan kelib chiqib soddadan murakkabga, faoldan nofaolga qarab tavsiflab borish kerak. Buning uchun xalqaro tajribalarga tayanish va maxsus tadqiqotlarni tashkil qilish joiz bo’ladi.

O’zbek tilini o’qitishda o’rganuvchilarning tinglab tushunish, o’qib tushunish, yozish va gapirish ko’nikmasini to’g’ri shakllantirishda lingvistik kompetensiya, xususan, grammatik ko’nikmalar yetakchilik qilishini unutmash kerak.

To’g’ri tanlangan grammatik ko’nikma:

– muloqotning aniqligini ta’minlaydi, ya’ni to’g’ri grammatik qoida va strukturani bilmaslik natijasida tushunmovchiliklar, noaniq fikrlar paydo bo’lishining oldini oladi. To’g’ri tuzilgan jumlar va ifodalar yordamida fikrni yanada ishonchli va ravon ifoda etish mumkin. Bu o’z navbatida, yozma va og’zaki ko’nikmalarning shakllanishiga garov bo’ladi;

– har bir tilning grammatikasi o’ziga xoslikni (*dona son bilan kelgan ot birlikda qo’llanadi, tartibni anglatuvchi -nchi-inch shakli sonlardan keyin chiziqcha bilan ifodalanadi*) aks ettiradi, bu esa o’rganilayotgan tilni yanada qiziqarli qiladi, tilni chuqur o’rganish imkonini beradi;

– tilni o’rganish jarayonida o’zgarishlar va taraqqiyotni kuzatish imkonini beradi. O’rganuvchi grammatik qoidalarni yaxshi egallaganda, bu ularning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi va tilni o’rganishga bo’lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Grammatika – til o’rganish jarayonining ajralmas qismi. Shuning uchun tilni o’rganish jarayonida grammatikaning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

#### Foydaniilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-noyabrda “Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6084-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5058351>.
2. O’zbek tili onlayn platformasi. <https://onatilim.vatandoshlarfondi.uz/>.
3. English Language Assessment. <https://www.cambridgeenglish.org/exams-and-tests/qualifications/general/>.
4. Изучайте английский язык на уровне А1. <https://www-englishradar-com.translate.google.com/english-levels/english-level>.
5. Mamatova D. O’zbek tili bayramiga munosib tuhfa. [https://uza.uz/oz/posts/ozbek-tili-bayramiga-munosib-tuhfa\\_311261](https://uza.uz/oz/posts/ozbek-tili-bayramiga-munosib-tuhfa_311261).
6. Ergin M. Turk dil bilgisi. – Istanbul: Urnu Turuz, 2009.
7. Hamidov X. Turk tili grammatikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
8. G’apponov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2010.
9. B6l6kbař F. va b. Istanbul Yabancilar i6in t6rk6e ders kitabı A2. – K6lt6r Sanat, 2012.
10. Abdurahmonov G’. va b. O’zbek tili grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.

Saodat ISRAILOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b.,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

## QOZOQ, TURK VA O'ZBEK TILLARIDA "KO'K" YADROLI BIRLIKLARNING SEMANTIKASI

**Annotatsiya.** Jamiyat rivojlanishning qizg'in pallasiga kirgani sari tilimizda o'ziga xos taraqqiyot yuz berishi tabiiydir. Binobarin, tildagi so'zlarning shakl va ma'no jihatdan taraqqiy etishi ulardagi ushbu munosabatlarni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari turlicha: ayrimlari shaklan har xil, lekin ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa, boshqalari shaklan bir xil, ammo ma'nolari turli xil, ba'zilari esa bir-biriga qarama-qarshi ma'holidir. Semantik paradigma ma'no shakllanish jarayoni haqida ma'lum ilmiy tasavvur beradi. "Ko'k" leksemasi ishtirokidagi iboralar tahlilini, leksemaning semantik imkoniyatlarini unga yondosh, u bilan bog'langan boshqa birliklar semantikasi orqali ochib berishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** semantika, paradigma, semantik tahlil, semantik paradigma, sintagmatik munosabatlar, ko'k yadroli birliklar.

**Annotation.** It is natural that as the society enters the heated stage of development, a unique development takes place in our language. Therefore, the development of words in the language in terms of form and meaning requires a wider study of these relationships. Words have different forms and meanings. Some words are different in form but close in meaning, others are the same in form but have different meanings, and some are opposite words possible. Semantic paradigm provides a certain scientific idea about the process of meaning formation. We will try to reveal the semantic possibilities of the lexeme through the semantics of other units related to it and related to it.

**Keywords:** semantics, paradigm, semantic analysis, syntagmatic relations, kok core units.

**Аннотация.** Быстрые темпы развития общества обуславливают уникальное развитие его языка. Поэтому развитие слов в языке по форме и значению требует более широкого изучения этих связей. Слова имеют разные формы и значения. Некоторые слова различны по форме, но близки по значению, другие одинаковы по форме, но имеют разное значение, а некоторые являются противоположными словами. Семантическая парадигма дает определенное научное представление о процессе смыслообразования. Мы попытаемся раскрыть семантические возможности лексемы "ko'k" через семантику других родственных ей и связанных с ней единиц.

**Ключевые слова:** семантика, парадигма, семантический анализ, семантическая парадигма, синтагматические отношения, "кук" основные единицы.

Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: *Ekilgan ko'chatlar viqor bilan ko'kka bo'y cho'za boshladi*. Ko'rinib turibdiki, nutq faoliyatida muayyan "yotiq chiziq"qa joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta'sir qilishi – insonda lisoniy sezgi uyg'otishi bilan ham o'ziga xosdir.

Sintagmatik munosabatlar nutq faoliyatidagi birliklar aloqasi, munosabati sifatida paradigmatic munosabat birliklaridan farqli, bir guruh birliklari orasida ham, shuningdek, turli guruh birliklari orasida ham mavjud bo'lishi mumkin [1: 61]. Qiyoslang: *Ko'klam kirib keldi va hammayoq yashilga burkandi*. Ushbu birliklardan har biri o'zi tegishli guruh – paradigmaticaning vakili hisoblanadi. Demak, sintagmatikadagi munosabatlar muayyan birliklar – so'zlar munosabati sifatida emas, balki guruhlar – sinflar, paradigmalar sistemasi munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada ko'k yadroli birliklarning semantikasi turk, qozoq va o'zbek tillarida qiyosiy jihatdan tadqiq etildi, o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Turli tillardagi birliklarning semantik paradigmadagi o'rni misollar bilan ochib berildi. Sintaktikasi va semantikasi o'zaro qiyoslandi. Mazkur masalani o'rganishda dastlab turk, qozoq va o'zbek tillaridagi ko'k yadroli birliklar, iboralar

hamda paremlar solishtirildi. Ushbu tillardagi lug'atlariga murojaat qilindi va bu birliklar qiyoslandi.

Sintagmatik munosabatlar shunday munosabatlar ki, ularga ko'ra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi, ya'ni tilning kommunikativ vazifasi sintagmatik munosabatda namoyon bo'ladi va shu munosabatga tayanaadi. Demak, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar o'zaro dialektik bog'liqlikda, bir butun, yaxlit holda sistemalar umumiyliigi, jami sifatida tilning aloqa quroli bo'lib xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faoliyatini ta'minlaydi. Ko'k leksemasi va uning sinonimlari doirasida sintagmatik munosabatlar nutqiy hosila birliklar yordamida shakllanadi. Biz ularning hosilalarini ko'rib chiqamiz.

Ko'k leksemasining birinchi uzual semasi bu – rang semasidir. Ko'k yadroli iboralar tilimizda ko'plab uchraydi. Misol: "Ko'kning hidini olgan sigir boyloqda turmas", "Ko'kka boqqan yiqilur, loy-botqoqqa tiqilur", "Ko'k kirsin, qizil chiqsin", "Ko'kdan arpa yog'sa ham, eshakning yemi – nimcha" (nimcha – "nimxo'rd" ham derdilar, chorakning to'rtidan biri, botmonning esa 256 dan biri), "Kekkeyganga kekkeygin boshing ko'kka yetguncha, enkayganga enkaygin boshing yerga tekkuncha", "Daraxt bir joyda ko'karadi", "Dalaning ko'kiga ishonma, odamning – po'kiga", "Ko'kini ko'rib, ko'ksingni kerma", "Dalaning ko'kiga ishonguncha, otangning go'riga ishon", "Duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar", "Duo olgan ko'karar, tuhmat olgan oqarar",



“Tinchlik bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan – yer”, “Ayol yerdan chiqqan emas, erkak bolasi, erkak ko‘kdan tushgan emas, ayol bolasi”, “Aql ko‘pga yetkazar, hunar – ko‘kka”, “Odobli o‘g‘il – ko‘kdagi yulduz, odobli qiz – yoqadagi qunduz”, “Oydinda oq kiygan, ko‘lankada ko‘k kiyar” [2: 512] paremiyalari “belgi”, “osmon”, “yuksaklik” [3: 308] semalari asosida turli mental mazmuni ifodalashga yo‘naltirilgan.

Qozoq tilida ko‘k leksemasi bilan shakllangan quyidagicha milliy-madaniy birliklarni uchratamiz: kek jyi → osmon (ko‘k yuzi); kek kymbez → falak (“osmon” ma‘nosidagi lisoniy birliklar); kek qasqa aytu → qurbon qilmoq; qurbonlik qilish (otni); kek seŋgir → cho‘qqi; kek tireu → juda baland ko‘tarilmoq; kekke boylau → baland o‘smoq (daraxtlar haqida); kekke boylag‘an qayuyndar → baland qayinlar; kekke boylag‘an mynaralar → baland minoralar (ko‘kka cho‘zilgan minoralar); kekke keteru → maqtov (ko‘kka ko‘tarmoq); kekke keterilu → baland uchmoq, ko‘tarilish; kekke qarau → takabbur, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymoq; kekke qylash yru → yuksaklikka intilmoq; kekke samg‘au → osmonga uchmoq; kekke qalyqtay → osmonda uchmoq (qush haqida); kekpen talasqan → juda baland; kekten tyskendey → osmondan tushgandek, birdan; olardyn arasy jer men kektey → ular orasidagi farq osmon bilan yer orasi kabi.

Misollarni yana davom ettirish mumkin: kek ayul → janjal, yomon (ayolga nisbatan); kek ala qoyday sabau → qattiq urish; kek asyq → kuchga kirmaslik, mo‘rt (hayvonlar haqida); kek auyz → gapiruvchi, g‘iybatchi, bekorchi; kek ayaz → nam (tuproq haqida); pishirilmagan (nondan); kek baqa yet → juda yog‘siz go‘sh; kek beren → chidamli, kuchli odam; kek byyra → nosvoy navi; kek yetikti kezdespey, ken yetiktige barmay otyr → munosib kuyovni uchratmadi, xuddi etikka o‘xshab loyig‘i chiqmadi; kek jalqau → haqiqiy dangasa; kek jasyq → yog‘siz go‘sh; kek jelke → chayqalish, boshning orqa tomoni; kek jylын bolu → juda zaiflashmoq, ta‘qib qilish; kek ineni ketinen tyrte bilmeydi → u umuman mutaxassis emas (tikishni bilmaydigan yoki uni mohirona bajarishni bilmaydigan qiz yoki ayol haqida); kek ыq bolu → bezovta qilmoq, bosib ketish; kek ыq qyly → bezovta qilish, bosib ketish; kek malta → bekorchi; kek mi → ahmoq; kek moyын → aroq (ichimlik turiga nisbatan); kek myzg‘a otyrg‘yzu → aldamoq; kek myzdaq → ko‘k muzdak muz qobig‘iga; kek mylyy → gapiruvchi, bekorchi; kek ezek → oziq-ovqat va ozuqa zahiralari tugaydigan bahor davri; kek ezek bolu → och qolmoq, bahorda madori qurimoq; kek erim → yosh ko‘katlar, o‘smir; kek salpaq → erish; kek syt → yog‘sizlangan sut; kek tayg‘aq → qattiq muzlagan; kek tyын joq → bir tiyin yo‘q; kek tyqыл → soqolsiz odam; kek sheshkek shyqpyr → chechak kasalligiga chalinur (qarg‘ish ma‘nosida); kek shulan → tajribali (bo‘ri haqida); kek shybyq → novda; kekti kekiretip jerdi titiretti → ko‘zyoshlari daryo bo‘ldi; kek atsyn → Xudo ursin; kekke bag‘u → ko‘kka boqib; kekten syrag‘any jerden tabyldy → ko‘kdan so‘ragani [4: 455], yerdan topildi yoki bandasidan so‘raganini Xudo berdi. Bu kabi mental birliklar ko‘k leksemasining tilda qay darajada iste‘molda ekanini ko‘rsatadi.

Qozoq tilida ko‘k leksemasi ishtirokidagi birikuvlarning quyidagi ko‘rinishlari o‘zbek adabiy tilida ishlatilmaydi: kek sheshkek → chechak (kasallik); o‘zbek tilida ko‘k rang leksemasi chechakka nisbatan sifatlovchi vazifasida qo‘llanilmaydi. Suv chechak ko‘rinishi uchraydi. Kek tas → qabr toshi birikuvi qozoq tilidagi ma‘noda qo‘llanmaydi. O‘zbek toponimlari orasida ko‘ktosh [5: 168] nomi uchraydi. Aqshyl kek qozoq tilida “zangori” ma‘nosida qo‘llanadi. O‘zbek tilida aqshyl kek o‘rnida ko‘kish, och ko‘k so‘z va birikmalari qo‘llanadi. Kek zehgir birikuvi “jozibali” ma‘nosida ishlatiladi. Kek syr esa “och kulrang”ni ifodalagan. Kek tytin “kulrang tutun” ma‘nosida qo‘llanadi. O‘zbek tilida ko‘k sifati tutunga nisbatan ishlatilmaydi. Qara kek qozoq tilida “to‘q ko‘k” havo rangni bildiradi. Qora so‘zi o‘zbek tilida ko‘k rangga leksik daraja hosil qilish vositasi sifatida birikib kelmaydi. Qora qizil birikmasi shevalarda ishlatilib, to‘q qizil rangni ifodalashga xizmat qiladi.

Kek ala “och ola kulrang (otning rangi haqida)” birikuvi ham o‘zbek tilida mavjud emas. Kek boz qozoq tilida “to‘q kulrang”ni bildirgan. Kek boz at “to‘q kulrang ot”ni tasvirlashga xizmat qilgan. O‘zbek tilida faqat bo‘z ot ishlatiladi. Kek so‘zi qozoq tilida soqolga nisbatan “oqish” ma‘nosini anglatadi: kek buryl saqal – “oqish soqol”. O‘zbek tilida mosh-guruch, oqish sifatlashlari bilan keladi.

Kek qozoq tilida tumanga nisbatan qo‘llanib, uning zichligini bildiradi. Bu birikuvda “ko‘k” leksemasining “qalin”, “ko‘p” semalari namoyon bo‘lgan: kek tyman → zich tuman. Kekjal o‘zbek tilidagi “ko‘k yol” birikuviga teng keladi. Bu o‘rinda ko‘k so‘zi bo‘rining yoliga nisbatan sifatlovchi bo‘lib qo‘llangan, “tajribali” degan sememani ifodalashga xizmat qilgan. Kek shalg‘yn birikmasi “baland, zich yashil ot” tushunchasini ifodalaydi. Kek shap “ko‘k o‘t; sabza” ni ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi “cho‘p” so‘zi aslida forscha-tojikcha so‘z bo‘lib, quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: 1. Novda, shox bo‘lagi; ingichka, uzun tarasha, yog‘och parchasi. 2. Biror maqsad uchun maxsus tayyorlangan tayoq(-cha). 3. Molga ovqat bo‘ladigan quruq o‘t, xas-xashak (beda, pichan va sh. k.). 4. O‘simlik, giyoh [6: 592]. So‘z izohidan ko‘rinadiki, cho‘p leksemasi tarkibida “quruqlik” semasi mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida ko‘k cho‘p birikuvi ishlatilmaydi. Ko‘k leksemasidagi “yoshlik”, “namlik” semalari uni cho‘p so‘zi bilan biriktirish imkonini bermaydi.

Aytish mumkinki, sintagmatika – sintagmatik munosabatda ishtirok etuvchi har bir lisoniy birlik o‘zining muayyan o‘rniga, pozitsiyasiga ega bo‘ladi, tavsiflanishi bilan ham ajralib turadi. Muayyan pozitsiyadagi birlik bir vaqtning o‘zida muayyan nutqiy vazifaga egaligi bilan ham muhimdir. Nutq jarayonidagi lisoniy birlikning o‘rni, pozitsiyasi, ayni vaqtda, uning nutqdagi nisbiy joylashishidir. Qiyoslang: Ko‘m-ko‘k osmon. Moviy dengiz to‘lqinlari qirg‘oqqa urilmoqda. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, qat‘iy xulosa shuki, sintagmatik munosabatlar tilning bosh, ya‘ni kommunikativ vazifasini ta‘minlaydi.

Turk tilshunosligida ham gok [7: 677] leksemasi bilan bog‘liq juda ko‘p birliklar mavjud: [goklere cikarmak](#) – ko‘klarga ko‘tarmoq; [goklere cikmak](#) – samolarga

chiqmoq; gök delinmek – osmonning teshilishi; gök gürlemek – momaqaldiroq chaqishi; göğə merdiven dayamış – ko'kka narvon qo'yimoq; gök ada – osmon oroli; gök atlası – osmon atlası; gök bilimi – osmonshunoslik; gök boylami – samoviy uzunlik; gök cismi – osmon jismi; gökdelen – osmono'par bino; gökdoğan – ko'kdog'; gök ekseni – osmon o'qi; gök eşleği – samoviy o'yin; gök gözli – ko'k ko'zli... (gökgüvercin, gökkandil, gök kır, gök kubbe, gök kumu, gökkuşağı, gök kutbu, gökkuzgun, gök küresi, göksoğan, gök taşı, göktirmalayan, gök tirmalayıcı, gök yakut, gökyolu, gökyüzü, küresel gök bilimi, gök delinmek)

Bu birikmalar va iboralar o'zbek tiliga qiyoslaganda ikki xil holat kuzatiladi. Birinchi holatga ko'ra ba'zi birikmalar, ya'ni ko'k leksemasining valentlik imkoniyatlari o'zbek tilida ham kuzatiladi:

O'zbek tilida	Turk tilida
ko'k ko'zli	gök gözli – ko'k ko'zli
ko'k yuzi	gök yüzü
ko'klarga chiqmoq	göklere çıkmak
ko'klarga chiqarmoq	göklere çıkarmak –
ko'k toqiga narvon qo'yimoq	göğə merdiven dayamış –
ko'kdog'	gökdoğan

Bir qator birikuvlar o'zbek tilida kuzatilmaligi ikkinchi holat hisoblanadi: gök gürlemek – momaqaldiroq chaqishi degan birikma o'rnida o'zbek tilida *osmon gulduragi*, *osmon guldurashi* birikmalari qo'llanadi. Turk tilida turkiy ko'k leksemasi ishlatiladi. O'zbek tilida fors-tojik tilidagi *osmon* so'zi ishlatiladi: gökdelen – osmono'par bino. Gökgüvercin “ko'k kaptar” ma'nosidagi so'zdir. Rang tushunchasi bir xil, *güvercin* (kaptar) so'zi farqlanadi. Gökkuzgun – ko'k quzg'un. *Quzg'un* zoonimiga nisbatan turklarda ko'k rang sifati berilgan. O'zbek tilida *quzg'un* so'zi qora rang bilan sifatlanadi: qora quzg'un. Gök atlası “ko'k atlası” degan tushuncha o'zbek tilida deyarli qo'llanmaydi. Bu tushuncha turk tilida kamal akka nisbatan qo'llanadi. gök bilimi – osmonshunoslik. Turk tilidagi gök delinmek (osmonning teshilishi) birikmasi o'zbek tilida uchramaydi. *Yomg'ir ko'p yog'ayotgan holatga nisbatan Osmonning tubi teshildi* iborasi ishlatiladi.

Gök ada – osmon oroli; gök boylami – samoviy

uzunlik; gök cismi – osmon jismi; gök ekseni – osmon o'qi; gök eşleği – samoviy o'yin; gökkandil, gök kır, gök kubbe, gök kumu, gökkuşağı, gök kutbu, gök küresi, göksoğan, gök taşı, göktirmalayan, gök tirmalayıcı, gök yakut, gökyolu, küresel gök bilimi, gök delinmek birikuvlari o'zbek tilida kuzatilmaydi. Gök bilimi [8: 363] – osmonshunoslik o'zbek tilida astronomiya, tilning tarixiy bosqichlarida esa *ilmi nujum* – arabcha so'zlar asosidagi forsiy izofa bilan ifodalangan.

Ko'k leksemasining rang semasidan tashqari ham ko'plab ma'no semalari mavjud. Tadqiqot ishimizda shu semalarni ham ko'rsatib o'tishni o'rinli deb topdik. Ko'k rang aslida tiniq osmon rangidagi moviy, zangori rang, umuman olganda, ko'k tusiga mos bir qancha o'xshash ranglar ham tilimizda ko'k deyiladi. Jonli so'zlashuvda ba'zan kulrang, havorang va yashil rangni ham ko'k sifati bilan ishlatamiz: *ko'k bo'ri*, *ko'k kaptar*. Bo'ri va kaptarlarning rangi ayni ko'k emas, kulrangning to'qroq shaklidir. Lekin bu birliklar ham ko'k leksemasi bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni aytish mumkin, boshqacha aytganda ko'k leksemasi quyidagi ma'no imkoniyatlariga ega:

a) yashil, sabza, ko'k o't semasi: *Qarshimda tebrnar ko'k barglar har on*;

b) maysa, ko'kat semasi: *Yomg'irlar yog'ib, yerda o't-o'lan ko'rına boshladi, hayvonlarning og'zi ko'kka tegdi. Ko'k terish bahonasi bilan dalalarni tusay boshlagan edi*;

d) rezavor o'simliklar: *Ko'k solib qatirlangan mas-tavaning hidi keldi*;

e) “pishmagan”, “xom”, “barra” ma'nosi: ko'k so'zi rangni ifodalash bilan birga “xom”, “yetilmagan”, “g'o'i”, “barra” kabi tabiiy sifatlarni anglatadi: *ko'k uzum, ko'k qalampir, ko'k piyoz, ko'k no'xat, ko'k novda. Bir tupida olma endi sarg'ayib yiltiramoqda, bir tupida musht-day yirik olmalar ko'm-ko'k, ularga boqishning bilan tishning qamashib, og'zingga so'lak to'ladi*.

f) yashil rang semasini berishda ham ba'zan ko'k beriladi: *Yiroqda samoviy ufq... Ko'zi o'ynaydi (Boqar, boqar...) Ko'ngli sovub, Ko'k o't chaynaydi*. Bu misolda ko'k leksemasi predmetning rangini ifodalashdan ko'ra ko'proq uning turi (ho'lligi, sabza ekani)ni anglatmoqda. Xuddi shu holatni ushbu leksema *choy* so'zi bilan birikib kelganida ham ko'rishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Базарбаева А. Когнитивно-семантическая структура цветообозначений в английском, узбекском и русском языках: Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2019.
2. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent, 2019.
3. Hojijev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.
4. Бектаев К. Большой казахско-русский, русско-казахский словарь. – Алматы, 1995.
5. Hojijev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
7. Древнетюркский словарь. – Л., 1969.
8. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские лексические основы на буквы “К”, “К”. – М., 1997.

Nasiba ABDUZOIROVA,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

## TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA SHAXS FOJIASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi obrazlar xarakteristikasi tahlilga tortilgan va shaxs fojiasi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, roman, biografiya, Surxondaryo, obraz, xarakter, istilo, sho'ro hukumati, paxta, Dehqonqul, sharqshunos va tarixchilar, paxta ishi, tergov, nazariya, modern, absurd.

**Annotation.** In this article, the character of the characters of the novel "Fields by my father left" by writer Togay Murad is analyzed and the tragedy of the character is revealed.

**Keywords:** literature, novel, biography, Surkhondaryo region, image, character, conquest, Soviet power, cotton, Dehkangul, orientalist and historians, cotton case, research, theory, modernity, absurdity.

**Аннотация.** В данной статье анализируются характеристики героев романа "Поля, оставленные моим отцом" писателя Тогая Мурада и раскрывается человеческая трагедия.

**Ключевые слова:** литература, роман, биография, Сурхандарьинская область, образ, персонаж, завоевание, советская власть, хлопок, Дехкангул, востоковеды и историки, хлопковое дело, исследование, теория, современность, абсурд.

Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi... bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi [1: 87]. Darhaqiqat, barcha zamonlarda shoir va yozuvchilar katta kuchga ega insonlar hisoblangan. Chunki ular o'z asarlaridagi konsepsiya orqali xalqqa ta'sir o'tkazgan, ularni ma'naviy jihatdan boshqargan. Adabiyot juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan va hozirda ham rivojlanishda davom etayotgan keskir quroldir. Uning vujudga kelish jarayoni, rivojlanishi Sharq mutafakkirlariga borib taqaladi. "Badiiy ijod jarayoni nafaqat G'arb mutafakkirlarini, balki Sharq allomalarini ham azal-azaldan qiziqtirib kelgan. Jumladan, Ibn Sino, Farobiy, Yusuf Xos Hojib kabi allomalarning qarashlarida mazkur tushuncha talqini u yoki bu tarzda o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin" [2: 19].

XX asr o'zbek adabiyoti sho'ro mafkurasi ostida o'tgan bo'lsa-da, juda katta poydevorga ega, badiiy, ilmiy ijodga boy adabiy asr bo'ldi. Bu davrda hayoti va ijodi, dunyoqarashi, ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati bilan namuna bo'la oladigan ilm ahli ko'paydi. Keng dunyoqarash va yangicha ruh bilan o'zbek adabiyotiga kirib kelgan yozuvchilardan biri Mengnorov Tog'ay Murod bo'ldi. O'zbek adabiyotining bu novator ijodkori Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Xo'jasoat qishlog'ida dunyoga kelgan. Oddiygina qishloq bolasi sifatida ulg'aydi. Otasi zahmatkash dehqon, kolxoz ishchisi edi. Bilamizki, ijodkorlar orasida marhum yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Qalamkashga qishloqning qalbi va shaharning aqli kerak" [3: 91] degan gapi mashhur. Tog'ay Murodda esa bu ikki xislat mujassam edi.

Maktabni tugatgach, Toshkentga o'qishga kelib, hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika yo'nalishini bitirgan voha farzandi bir qator nashriyotlarda faoliyat yuritdi. Yozuvchi bo'lish istagi uni bir daqiqa ham tinch qo'ymadi, izlanmasdan yashashga imkon bermadi. Shu maqsad hosili o'laroq otashin qalb egasi "Otamdan qolgan dalalar", "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo Yer qo'shig'i", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" kabi salmoqli asarlarni yozdi va o'z nomini abadiyatga jo etdi. Ular orasida "Otamdan qolgan dalalar" romani badiiy mukammalligi va adabiyotga yangicha ruh olib kirgani bilan alohida tahsinga sazovordir. 1993-yili nashr etilgan ushbu roman ramziy ma'noga ega edi. Muallif ilk sahifada "Birlashga Millatlar Tashkiloti a'zosi – Ozod O'zbekiston uchun bitdim" [4: 1] deb epigraf keltiradi. Unda 130 yil yurtimiz ustida istibdod bayrog'ini ko'targan sobiq Sovet Ittifoqining o'lkada yuritgan siyosati va qabohati haqida so'z yuritiladi. "Muallif o'z romanida butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko'rmagan, qut-barakat yurtida kosasi oqarmagan munis o'zbek xalqi siyosini Dehqonqul timsolida badiiy talqin etadi" [4: 1]. Dehqonqul SSSR davrida yashagan o'zbeklarning bo'rtma obrazidir. Asar shunday boshlanadi: "Men farg'onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo'laman" [4: 2]. Voqealar Dehqonqul ismli oddiy bir dehqon yigiti tilidan hikoya qilinadi. Bobosi Jamoliddin ketmon Farg'onadan bo'lib, yozuvchining kelib chiqishi vodiya borib taqaladi. Bobo va nabira o'xshash obrazlardir. Asar mehnatkash inson obrazi bilan boshlanib, xuddi shunday zahmatkash kishi obrazi bilan tugaydi.

"Dehqonqul mustahkam sabr-chidam egasi. U tishirishqoq, o'z kasbining mohir ustasi. Paxta ilmini va uning sir-sinoatini ba'zi mutaxassislardan ham yaxshiroq va ko'proq biladi" [5: 19]. Jamoliddin ketmon

yer chopish chog'ida o'tgan-ketganga e'tibor bermaydigan kishi. Birov bilan ishi yo'q, shunchaki o'z ishini sevadigan, yurtiga muhabbati cheksiz bu inson o'z fe'l-atvoriga nisbatan Salohiddin bo'yrachidan "Senga ketmon bo'lsa bo'ldi, dunyo bilan ishing yo'q" degan iddaoni eshitadi [4: 7]. Ikkisining o'rtasidagi uzun suhbat Chor Rossiyasining Qo'qonni bosib olganidan tortib, Toshkentning qay tarzda egallanganigacha boradi. Shahar qo'lga olinishi chog'ida Saidazimboy ismli savdogar ruslarga Kaykovus arig'ini berkitishni maslahat bergani va Toshkent aholisi qirq kun suvsiz qolib, chor-nochor taslim bo'lishga majbur bo'lganini aytib o'tadi. Toshkent va Qo'qon xonligi 1876-yili bosib olinadi. Dushman o'zbekning o'zagiga zarba berayotgan bir paytda xalq farzandi millati va yurtini sotishi kishi g'azabini keltiradigan hodisadir. Shu o'rinda marhum shoirimiz Muhammad Yusufning "Ona tilim" she'ridagi "Kimlar uchun biz edik bir badaviylar, O'zbekni qon qaqsatganni o'zbek siylar" [6] misralarida haqiqat borligini bilamiz.

Asar sujeti mana shunday hikoya tarzida davom etadi. Podsho hukumati askarlari Jamoliddin ketmon yurtiga ham boradi, egallanmagan hudud qolmaydi. O'sha davrda ham istibdod va bosqinga qarshi chiquvchi mard o'g'lonlar bor edi. Masalan, Mulla Namoz deya ulug'lanuvchi shaxs zulmga qarshi kurash maqsadida qo'zg'olon uyushtiradi. Asarda gapirish imkoniyati cheklangan obraz – Ibodin soqov qatiq sotib, qari onasi Xayotxon ayani boqadi. Mulla Namoz uyushtirgan qo'zg'olonni bostirish uchun Skobelev ismli gubernator keladi. "Mixail Dmitriyevich Skobelev – Rossiya imperiyasining Turkistondagi bosqinchilik urushlarida faol ishtirok etgan rus harbiy arbobi, infanteriya generali. Bosh shtab akademiyasini tugatgan (1868). 1869-yili O'rta Osiyoga kapitan unvoni bilan kelib, 8 yil ichida general-mayor unvoni bilan Rossiyaga qaytgan. Skobelev Xiva xonligini bosib olish (1873) va "Po'latxon" qo'zg'olonini (1873–1876) bostirishda Konstantin Petrovich Kaufmanning eng yaqin yordamchilaridan biri bo'lgan" [7]. U boshchiligida rus armiyasi keldi. Machitlar vayron, xalq xarob bo'ldi – bir so'z bilan aytganda, odamlarning uyi kuydi. Jamoliddin ketmon yurtga kofir oraladi deya o'z yerini tashlab, tog'ga ko'chib ketdi va u yerda Qurbon qoraqirg'iz unga yerini berdi. Lekin tog'da ham Jamoliddinni yashashga qo'yishmadi. Rus hukumati tazyiqi ostida u avval Dushanbe, keyin Surxondaryoning Denoviga ko'chib keldi (bu hududlar 1981-yilga qadar Denov tumaniga qarashli bo'lgan, hozirgi kunda esa Oltinsoy tumani tarkibida) [8]. Asarning shu qismida Jamoliddin ketmon sujet tizmasidan chiqariladi va o'rniga ikkinchi avlod vakili – Aqrab keladi.

Surxon elida bir odat bor: er-xotin bir-birining ismini aytmaydi, farzandlarining ismi bilan murojaat qiladi yoriga. Aqrab qo'rboshi ham xotinini Dehqonqul deb chaqiradi. U ruslarga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etadi. Sherigi Rashid bilan birga qarshilik harakatining rahbari Ibrohimbek qo'lida harbiy tayyorgarlik ko'radi. Bu harakatlarning vujudga kelishida turk ofitserlarining o'rnini beqiyosdir. Anvar podsho – Hisor taraflarda o'zbeklarni ruslarga qarshi milliy harakatlar uchun undagan general. U "1921-yil oktabrda Kavkazdan Buxoro

shahriga kelgach, 9-noyabrda Qarshi yaqinidagi Qalliko'l atrofida Mulla Nafis qo'rboshi bilan uchrashib, maxsus bayonot bilan chiqadi hamda turkistonliklar va buxoroliklarning sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi muqaddas kurashiga qo'shilganini e'lon qiladi" [9: 44]. Aqrab uzoq vaqt davomida kechalari hech kimga bildirmay uyiga kelib yuradi. Tog'da harbiy ta'lim olayotganidan rus hukumati xabar topadi va bir kuni uyiga kelganida qo'lga tushirishadi. Uni Sibirga surgun qilmoqchi bo'lishadi. Lekin Aqrab o'lsa, yurtida o'lishini deb aytib shu gaplarni takidlaydi: "Oshingni yesa-da, mard yesin, boshingni yesa-da, mard yesin" [4]. Shu tariqa, bu obraz o'z vazifasini bajaradi.

Voqealar rivoji Dehqonqul boshchiligida davom etadi. Asarda u soqov Ibodinga konflikt obraz. Ya'ni Ibodin soqov onasiga mehribon, Dehqonqul esa onasi tashigan suvlarga tupuruvchi, aytganini qilmaydigan obraz sifatida xarakterlanadi. Dehqonqul boshchiligida 5-sinfdan to 10-sinf gacha barcha o'quvchilar paxtaga jalb etiladi. Onalar bolalarini kiyim-kechagi-yu, ovqati bilan paxta frontiga jo'natadilar. Bolalar Stalin kolxozining oldida to'xtab, maktab sinfxonalariga joylashadilar. Dehqonqul ko'rgan bitikka ishonib aytiladigan bo'lsa, 1980-yilning 5-sentabr kuni edi va bitikka "Sovet xalqi kommunizmga yashayapti" deb yozib qo'yilgandi. "Kommunizm – xususiy mulkchilikni inkor qilishga asoslangan turli qarashlarning umumiy nomi" [10]. Kommunizm insonlarning yashash sharoiti bir xil bo'lib, sinfiylikka chek qo'yiladi.

Maktab direktori o'ta hovliqma, bo'lmagan ishni bo'ldi deydi, o'zi Mavlonovni (obkom – hokim) tanimsa-da, har kuni gap eshitganini pesh qiluvchi kishi sifatida tasvirlanadi. Aslida esa ochiqko'ngil, haqiqatparvar. Uning Vatandashlik "Bizning yurtga Amir Temurlar kerak, Boburlar kerak" [4] degan so'zlaridan bilinib turadi. Bolalar paxta terishni boshlaydilar. Ularga yuklatilgan norma – 80 kilogramm. Eng kam paxta teradiganlar butifos (dori) sepadigan samolyotga yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajaradi. Dehqonqul va do'sti Ziyod ularning safida. O'sha davr siyosatining ayanchli tarafi oddiy aholining ezilishida edi. Masalan, yo'l ko'rsatuvchilar ota-onasining mansabi yoki xarakteriga qarab tanlanadi. Buni muallif asarida dialoglar orqali yetkazib bergan. Ularda SSSRdagi ijtimoiy hayot ochiq-oydin ko'rsatilgan:

"... – Faqat oz teradiganlar bo'lsin. Yo'qlama daftarini o'qiyman: Jalilov Xurram?"

- Bo'lmaydi – otasi uchiga chiqqan arizaboz.
- Bir gap bo'lsa Toshkangacha yozadi.
- Yozishni qo'ying, idorama-idora chopadi.
- Oti katta bor – qabuliga kiradi.
- Unda, bo'lmaydi. Qoraboyev Abil?
- Abil Merganni o'g'limi? E-e, qo'ying-qo'ying.
- Nimaga qo'yamiz?
- Abil merganni bilmaysizmi?
- Bilamiz! – deydi direktorimiz. – Mergan bo'lsa kim bo'пти?
- Manavi sinf rahbaridan so'rang, aytib beradi...
- Xavfli shaxs, xavfli! – deya bosh saraklaydi direktorimiz. – Cho'liboyev Ziyod?
- Bir qari onasi bor.

Direktorimiz shahodat barmog'ini nishlaydi.  
– Ana shu bo'ladi! – deydi. Muallimlarimiz tashqarilaydi" [4: 40–41].

Shunday qilib, Ziyod samolyotlarga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib ketdi va butifos sepilgan dalada uxlab qoldi. Doridan zaharlangan yigitcha tuzum qurboniga aylanib vafot etdi. Ertasi kuni tush mahali bir momo eshak minib keladi. U – Ziyodning onasi edi. Lekin haqiqatni qari kampirdan yashirishadi. Shundan keyin voqealar rivoji tezlashadi va Dehqonqul voyaga yetgan, dalada paxta yetishtiruvchi inson sifatida gavdalana boshlaydi. Maktab direktorining egiz qizlaridan biri Klara Xodjayevna rayon partiya komitetining uchinchi sekretari, Dehqonqul esa brigadir bo'ladi. Ayol uni "mash'al brigadir" deb ataydi. Bu tipni marhum yozuvchilarimiz Said Ahmadning yumoristik yo'nalishdagi hajviy hikoyasi – "Sobiq"da va O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki – besh" nomli qissasida uchratishimiz mumkin.

Qishloqqa SSSR sotsialistik rejimini kuylagan shoirlar keladi. Ular paxta dalalarini ko'rishga oshiqadi. Mash'al brigadirning oldiga borishadi. Asarning shu qismiga kelganida yozuvchi bir qator ijodkorlar ismini sanab o'tadi. Bular: Adham Rahmat, Sergey Borodin (Aslida bu shaxsning "Samarqand osmonida yulduzlar" asari berilgan, lekin biz asar muallifini tanishtirmoqchimiz), To'g'ay Murod. Ha, muallif o'zini ham keltirib o'tadi. Dehqonqulga mukofot sifatida mototsikl berilishi aytiladi, ammo puli uning oyligidan ushlab qolinadi. U faqat dalasi bilan mashg'ul, paxtasi bilan o'vora bo'ladi. Bir kuni daladan uyga kelganida qizi yig'layotganini ko'radi. Ayoli o'zini yoqib yuborganidan xabar topgach, shifoxonaga o'tlanadi... Bu davr ayollar uchun fojiali bo'lgan. O'z joniga qasd qilish ko'paygan. Asarga ko'ra, bitta tumanda 4 ta, respublika bo'yicha esa 753 ta ayolning o'z joniga qasd qilgan. Dehqonqulning ayoli Sho'ro davrida tug'ilgan. Bolaligi paxta dalasida kechdi, paxta dalasi ichida ulg'aydi, kelin bo'lib yana paxta dalasiga keldi, paxta terdi, bola tug'ib ham paxta terdi" [11]. Eri esa so'qqabosh qoldi. Lekin Dehqonqul shifokordan ayolini ruhiy kasalga chiqarishini talab qiladi. Shifokor esa Dehqonquldan bu holat tasodif bo'lgani to'g'risida "yuqoridagilar"ga ma'lumot berishini so'raydi. Dehqonqul hukumatga qo'shilib, o'z ayoli fojiasini ehtiyotsizlik kasofati bo'lgan baxtsiz hodisaga yo'yadi. Oradan ancha vaqt o'tdi. Qorlar yog'di, izlar bosildi deganlaridek, Dehqonqul avvalgidek hayot kechira boshladi. Moskvadan amaldorlar, rejissorlar keldi. Qo'yni sotib o'z bolalariga kiyim olib berishini so'ragan onasining gapiga kirmagan Dehqonqul mehmonlar uchun o'sha qo'yni so'yib, bir tiyinga qimmat obro' orttirdi. Asarning shu qismida o'quvchi Dehqonqulning xarakteridan g'azablanadi. Negaki mehmonlar uchun olib kelingan xurmodan ikki dona olgani uchun o'g'lini urib, og'zi-burnini qonga to'ldiradi. Lekin bu holatda ko'proq Dehqonqulga rahmimiz keldi. U o'z qadrini bilmagan, bolalariga rahmi kelmagan, tuzum uchun qurbon qul! Hech kim kishanlamasa-da, ma'nan qul, ma'nan manqurt obraz u!

Ko'rsatuv olish uchun kelgan rejissorlar Dehqonqulning uyiga borishadi. Hovliga mashina va ot ham olib kelinadi. Klara Xodjayevna chet elda yur-

gan Boymirza Hayit, Vali Qayumxon, Buloqboshi kabi mafkuraviy dushmanlar ko'rib qo'ysin deb, yaxshilab olishlarini tayinlaydi. Aslida ular O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashgan tarixchi, siyosatchi, adabiyotshunos olimlardir.

Boymirza Hayit 1917-yili Namanganda tug'ilgan tarixchi, adabiyotshunos, sharqshunos olim. Jadidchilik harakatidan keyingi davrda SSSR zulmi va siyosiy harakatlarga qarshi chiqqan. U o'z xotiralarini shunday eslaydi: "1956-yildan e'tiboran Sovet Ittifoqida va Turkistonda menga, ya'ni fikrlarimga qarshi jiddiy tashviqot boshladilar. Meni "vatan xoini", "sotqin", "gitlerchi", "qotil", "imperialistlarning ayg'oqchi-xizmatchisi", "O'rta Osiyo tarixini va lenincha milliy siyosatni soxtalashtiruvchi", "panturkist", "panislomist", "josus", "millatchi" kabi sifatlar bilan tasvir etishga kirishildi. Menga qarshi hisobsiz maqolalar, risolalar, kitoblar va radioeshittirishlar uyushtirildi" [12].

Vali Qayumxon 1904-yilning 15-iyulida Toshkentda tavallud topgan. U XX asr boshida Germaniyada tahsil olgan taraqqiyparvar, siyosatchi, olim, 30-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi, II jahon urushi davrida harbiy kollobaratsionist edi. 1993-yil 89 yoshida Germaniyaning Dyuseldorf shahrida vafot etgan [13].

Bir kuni Dehqonqulning uyini SSSR harbiylari bosdi. Bo'yniga to'pponcha tirab, uyini tintuv qilishdi. Ivan Ivanovich Ivanov ismli shaxs tergovni Moskvada olib bordi. Tergov "o'zbeklar ishi", ya'ni "paxta ishi" bo'yicha bo'layotgandi. Bu o'zbek xalqiga nisbatan qatag'onchilik siyosatining bir ko'rinishi edi. "1985–1990-yillarda O'zbekistonda "paxta ishi" degan uydirma bo'yicha jami 40000 kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasiz o'tirdi, 5000 nafari esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi [14]. Dehqonqul jinoiy ishga sherik va kolxoz raisiga pora bergan shaxs sifatida tergov qilinadi. Bu jarayon qiynoqlar va kaltaklar bilan o'tkaziladi. Voqea SSSRning umrini nihoyasiga yetkazgan rahbar Gorbachyov davrida bo'lib o'tadi.

To'g'ay Murod ushbu asarini yozishni 1987-yil – Moskvadan qaytganida – boshlamoqchi bo'ladi, lekin tajribasi yetarli emasligini his etadi [15]. Shu sababli tarix va qishloq xo'jaligiga oid kitoblarni o'rganadi. Asarning to'qqizinchi bobidagi Afg'onistonga oid tarixiy voqealar esa real faktlarga asoslangan. O'sha davrda SSSR bosh prokurorining yordamchisi O'zbekiston Jumhuriyati birinchi kotibi bo'lgan Usmonxo'jayevni qo'rqitib, bo'yniga qilmagan ishlarini iladi. Usmonxo'jayev qismati Dehqonqulni ham bandi qildi. Sud Denovda bo'ldi. Dehqonqul sakkiz yilga qamaldi. Asar shunday yakun topdi. Roman oxirida Dehqonqul tilidan aytilganidek, o'zbek bir yuz o'ttiz yil ruslarga uyini to'rini berdi, yuz o'ttiz yil chizgan chizig'idan chiqmadi, yuz o'ttiz yil kul desa kuldi, yig'la desa yig'ladi, yuz o'ttiz yil o'zi yemay yedirdi, kiymay kiydirdi, yuz o'ttiz yil har maqomiga ko'ndi, lekin dini boshqa, tili boshqa el bo'lmadi.

"Otamdan qolgan dalalar" 1986–1991-yillarda yozilgan bo'lib, o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan hisoblanadi. Shuning uchun uni va umuman, muallif ijodini nazariy jihatdan o'rgangan adabiyotchi-

lar talaygina. Xususan, A.Xolmurodovning ilmiy ishi-da Tog'ay Murod qissalari tahlilga tortilgan bo'lsa, U.To'laganova yozuvchi asarlaridagi ritm haqida so'z yuritgan. Z.Mirzayevaning Tog'ay Murod asarlarining Amerika Qo'shma Shtatlarida o'rganilishi, Zavqiddin Suvonqulovning yozuvchi asarlaridagi obrazlar poetikasiga qarashlari va Munavara Xidirovaning "Tog'ay Murod asarlari poetikasi va ijod jarayonining o'rganilishi" mavzusidagi ilmiy izlanishlari bu yo'ldagi yaxshi qadamlar bo'lgan deyish mumkin.

Asarda asosiy mazmun va e'tibor insonga qaratilishi lozim. "Otamdan qolgan dalalar"ni o'qir ekanmiz, yozuvchi dalaga yoki bo'lmasa g'ozaga haddan ortiq e'tibor qaratganini ko'ramiz. Agar u inson bilan bog'liq omillar, xarakterlar va kishilar o'rtasidagi munosabatni ko'proq yoritganida, shuningdek, obrazlar hissiyoti, ong-shuuri bilan ishlaganida edi, asar nazariy jihatdan yanada mukammal, o'qishli va qalbga yaqin jihatdan chiqqan bo'lardi, deb o'ylaymiz. Uni ba'zi adabiyotchilar modern yo'nalishidagi roman sifatida talqin etishadi. Yozuvchining o'zi ham Umarali Normatov bilan bo'lgan bir suhbatda asariga shunday baho beradi: "G'animlarim da'vosicha, go'yo men etnograf, baxshi qalamkash emishman. "Denovdan nariga chiqolmaysan, naryoqda nimalar bo'layotganini ko'rmaysan, jahon adabiyotidan bexabarsan, modernizm nima, absurd, ong oqimi nima – bilmaysan, Nitshe, Freyd, Kafka, Joys, Kamyuga tishing o'tmaydi", deya tashlansalar bo'ladimi menga bu "bilag'on" nodonlar. Ishoning, Umarali aka, men Nitsheni, Freydni, Kafka, Joys, Kamyularni, modernizm adabiyotini ulardan kam emas, ortiqroq bilaman. Nitshe "Zardusht"ini, Kafka "Jarayon"ini, Kamyu "Begona"si bilan "Vabo"sini bir emas, bir necha bor o'qib chiqqanman. Joysning "Uliss"ini ham "Иностранная литература"da ruscha tarjimasini chiqmasdan burun qo'lyozmasini topib

o'qiganman, hatto uni o'zbekchaga tarjima qilishni ko'nglimga tugib qo'yganman. Bu oliftalarning moderncha mashqlari taqliddan nariga o'tmaydi, yozganlari tarjimaga o'xshaydi. Men ularga haqiqiy "o'zbekona modern", "o'zbekona absurd", "o'zbekona ong oqimi" qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman" [16].

Shu o'rinda modern yoki modernning bir tarmog'i hisoblangan absurd o'zbek millati, musulmon farzandi uchun xosmi, degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiy. Ustozimiz Qozoqboy Yo'ldoshev bir maqolasida modern asarlar ommaviy bo'lolmasligini yozgandi. Bu o'rinli fikr. Kitobxon modernistik absurd yo'nalishidagi asarni o'qir ekan, ong oqimida kechayotgan voqealarni tushunolmay halak bo'ladi. Bunday asarni o'qish uchun insonda bu yo'nalish bo'yicha nazariy bilim bo'lishi kerak, aks holda vaqtini behuda o'tkazgandek his qiladi o'zini. Bu borada taniqli mutaxassislar ham o'rinli fikrlar bildirishgan. Misol uchun, zabardast olim, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov "Absurd ma'nisizlikdir" maqolasida absurdning adabiyot uchun keraksiz va yot tushuncha ekani, u so'z san'atini ma'nisizlik olamiga aylantirishini ochiq-oydin ta'riflagan [17]. Suvon Meliyev esa qat'iy ravishda modernizm o'zbek adabiyotiga xos emasligini aytgan. Bu xulosa uzoq ilmiy jarayonlar va adabiy kechmishlar xolsilasi o'laroq paydo bo'lgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Tog'ay Murod surxon shevasidan foydalanib, milliy tilda o'qishli bir asar qoldirdi. U oshkora taqlid qilmadi, o'z istedodsizligini yashirish uchun G'arbgaga xos metodlar orqasiga yashirinmadi. Aksincha, haqiqiy qalamkash bo'la oldi, asarlarida o'zbek milliy koloritini ko'rsata oldi, o'zbek xalqining novator ijodkori sifatida tarixga o'z nomi va asarlarini qoldirdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Burxonova F. Adabiy-estetik qarash va ijodiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Mengronov T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994.
5. Suvanov Z. Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi: Filol. fan. nomz. diss...avtoref – Toshkent, 2019.
6. Yusupov M. Ona tilim. <https://corp.uzairways.com/uz/muhammad-yusuf-ona-tilim?ysclid=m4i3imykoj344287502>.
7. Mixail Skobelev. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mixail\\_Skobelev](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mixail_Skobelev).
8. Oltinsoy tumani. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Oltinsoy\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Oltinsoy_tumani).
9. Rajabov Q., Zamonov A. 10-sinf O'zbekiston tarixi (1917–1991). Darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017.
10. Kommunizm. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kommunizm>.
11. O'razbayeva M. Badiiy tafakkurdagi yangilanish va ayol obrazi talqinidagi o'ziga xoslik. IIm-fan // – Toshkent, 2022. №1 (26).
12. Vatan sizlarniki bo'lgani kabi meniki hamdir. Boymirza Hayit bilan suhbat. – Toshkent, 2017. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/boymirza-hayit-bilan-suhbat.html>.
13. Vali Qayumxon. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Vali\\_Qayumxon](https://uz.wikipedia.org/wiki/Vali_Qayumxon).
14. Islamova S. O'zbekistonda paxta ishi va uning oqibatlarini. [http://iht.uz/download/slides/1kurs/historyofuzbekistan/2sem/009\\_O'zbekiston\\_tarixi\\_O%E2%80%98zbekistonda\\_paxta\\_ishi\\_va\\_uning\\_oqibatlarini%20\\_25mavzu\\_1kurs.pdf](http://iht.uz/download/slides/1kurs/historyofuzbekistan/2sem/009_O'zbekiston_tarixi_O%E2%80%98zbekistonda_paxta_ishi_va_uning_oqibatlarini%20_25mavzu_1kurs.pdf).
15. Xidirova M. Tog'ay Murod asarlari poetikasi va ijod jarayonining o'rganilishi: Filol. fan. nomz... diss – Toshkent, 2022.
16. Normatov U. Sokin ko'ngil rozlari. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/umarali-normatov-sokin-kungil-rozlar/?lng=lat&ysclid=m49sdj9ex5687517802>.
17. Sarimsoqov B. Absurd ma'nisizlikdir. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ba-odir-sarimso-ov-absurd-manisizl/?lng=lat&ysclid=m4mc4hobnw707433763>.

Эльвина АЛИЕВА,  
доктор филологических наук, доцент,  
Озода ТЕМИРОВА,  
магистрант II курса Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ФОРМЫ ПОВЕЛЕНИЙ И ПОБУДИТЕЛЬНЫХ ВЫСКАЗЫВАНИЙ СО ЗНАЧЕНИЕМ ДОЛЖЕНСТВОВАНИЯ И НЕЦЕЛЕСООБРАЗНОСТИ В ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ ВЛАДИСЛАВА ФЕЛИЦИАНОВИЧА ХОДАСЕВИЧА

**Аннотация.** В статье проведен лингвистический анализ форм повелений и побудительных высказываний со значением долженствования и нецелесообразности в лирике Владислава Фелициановича Ходасевича с учетом поэтической коммуникативной ситуации, структуры и семантики анализируемых единиц, а также микро- и макротекста. В структуре поэтического текста формы повеления и императивные высказывания под влиянием различных условий поэтической коммуникативной ситуации и окружающего контекста подвергаются семантической и функциональной трансформации, приобретая значение долженствования и нецелесообразности.

**Ключевые слова:** императив, повеление, императивные высказывания, речевые формы устного диалога, коммуникативная ситуация, поэтический текст, Владислав Фелицианович Ходасевич.

**Annotatsiya.** Maqolada Vladislav Felitsianovich Xodasevich lirikasida she'riy kommunikativ vaziyat, tahlil qilinayotgan birliklarning tuzilishi va semantikasi, shuningdek, mikro va makromatn hisobga olingan holda she'riy matn tuzilishida buyruq va buyruq gap shakllarining lingvistik tahlili o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** imperativ, buyruq, buyruq gaplar, og'zaki muloqotning nutq shakllari, kommunikativ vaziyat, she'riy matn, Vladislav Felitsianovich Xodasevich.

**Annotation.** The article presents a linguistic analysis of the forms of imperatives and urging statements with the meaning of obligation and inappropriateness in the lyrics of Vladislav Felitsianovich Khodasevich, taking into account the poetic communicative situation, the structure and semantics of the analyzed units, as well as the micro- and macrotext. In the structure of the poetic text, the forms of imperatives and imperative statements under the influence of various conditions of the poetic communicative situation and the surrounding context undergo semantic and functional transformation, acquiring the meaning of obligation and inappropriateness.

**Keywords:** imperative, command, imperative statements, speech forms of oral dialogue, communicative situation, poetic text, Vladislav Felicianovich Khodasevich.

Одной из первых работ, посвященных семантико-функциональному анализу повеления в рамках поэтического языка, является работа И.И.Ковтуновой «Поэтический синтаксис». Ученый выделяет речевые формы устного диалога, среди которых повелительное наклонение относит к сильным признакам, так как повеление предполагает определенного собеседника, отсутствующего в лирическом произведении в момент речи, что связано со спецификой лирики [1, с. 61].

Анализ повелений в поэтическом тексте позволил ей предположить, что значения форм повелительного наклонения в поэтической речи разнообразны и сложны и «их специфика определяется иными условиями коммуникации в поэзии по сравнению с устной речью – способом контакта (письменная речь), особым характером адресатов в поэтическом тексте (адресат – отсутствующее лицо, адресат – не лицо) и некоторыми особенностями структуры поэтического сообщения (текста)» [там же, с. 119].

И.И.Ковтунова подчеркивает, что «утрата побудительного значения происходит в повелительных формах, направленных ко второму лицу, но характер отрицает, исключает расчет на его ответную реакцию», «значения форм повелительного наклонения в поэтической речи определяются условиями коммуникации, особым характером адресатов и другими структурами текста» [там же].

Исследованию императива на материале поэтических текстов посвящены также работы российских исследователей Э.В.Слининой [2], А.В.Чижонковой [3], Л.А.Мелеховой [4], Л.А.Рыжкова [5] и узбекистанских лингвистов В.О.Ноненмахер [6], Э.А.Алиевой [7] и др.

Обзор современной научной литературы позволил сделать вывод о необходимости дальнейшего изучения структурно-семантических типов и функций побудительных предложений в современной русской художественной речи, а также об отсутствии работ по изучению семантико-функциональ-

ного потенциала данной синтаксической единицы на материале поэтических текстов В.Ф.Ходасевича.

Владислав Фелицианович Ходасевич (1886–1939), русский поэт, литературный критик, мемуарист. Им было написано пять сборников: «Молодость», «Счастливый домик», «Путем зерна», «Тяжелая лира», «Европейская ночь».

Из 183 обследованных нами лирических стихотворений В.Ф.Ходасевича формы повеления содержатся в 76 стихотворениях, из них в 20 стихотворениях выявлены формы повеления со значением долженствования. К этой группе относятся стихотворения «Кузина плачет», «Перешагни, перескачи», «Велишь – молчу», «Голос Джени», «Поэту», «За окном ночные разговоры», «Сны», «Завет», «Анюте», «Акробат», «Рыбак», «Искушение», «Гостю», «Ворожба», «Джон Боттон» и др. В этих стихотворениях поэт часто использует формы повеления в значении долженствования для выражения внутреннего конфликта, морального выбора и стремления к действию. Например, в стихотворении «Кузина плачет» наблюдается прямая апелляция лирического «Я» к родному человеку – к «кузине», которая осуществляется как с помощью обращения, так и глаголов в форме повелительного наклонения единственного числа, а также эллиптических высказываний. В начальной строке первой строфы значение повеления выражается эллиптическим высказыванием:

**1. Кузина, полно: Всё изменится!**

*Пройдут года, как нежный миг,  
Янтарной тучкой боль пропенится  
И окропит цветник.*

**2. Поверь судьбе. Она не строгая,**

*Она берет – и дарит вновь.*

*Благодарю ее за многое,*

*За милую любовь:*

**4. Не плачь. Ужели не отдаст она**

*Моим устам твои уста?*

**Смотри, какая тень распластана**

*От белого куста! («Кузина плачет»)* [8].

Во второй, четвертой строфах анализируемого стихотворения формы повеления «поверь», «не плачь», «смотри», образованы от глаголов несовершенного и глаголов совершенного вида, обозначающих реальное действие, которое происходит в момент речи. Данные повеления выражают оптимистичный взгляд на мир, служат не только призывом к действию, но и уверяют девушку в том, что ситуация может улучшиться. Лирический герой пытается вселить надежду, подчеркивая важность веры в лучшее будущее. Следует также обратить внимание на двукратный повтор форм повелений в заключительной строфе. Повтор усиливает значе-

ние долженствования: **Не плачь. Ужели не отдаст она/ Моим устам твои уста? / Смотри, какая тень распластана / От белого куста!**

Таким образом, использование форм повеления и их повторов усиливает экспрессивность высказывания.

Рассмотрим пример, в котором присутствуют синонимические тавтологические повторы форм повелительного наклонения:

**Перешагни, перескачи,**

**Перелети, пере– что хочешь –,**

**Но вырвись: камнем из пращи,**

**Звездой, сорвавшейся в ночи...**

**Сам затерял – теперь ищи...**

**Бог знает, что себе бормочешь,**

**Ища пенсне или ключи**

(«Перешагни, перескачи»)[там же].

В данном стихотворении использованы формы автоадресации лирического героя к своему творческому «Я». Формы повеления, сохраняя побудительный смысл, приобретают долженствовательное значение: «ты должен это сделать, для того чтобы реализовать заложенное в тебя природой творческое начало».

Стихотворение «Сны» адресовано лирическим героем душе, т.е. носит автокоммуникативный характер. Стихотворение состоит из шести строф, обращение и формы повеления заключены в трех первых строфах:

*Так! наконец-то мы в своих владеньях!*

*Одежду – на пол, тело – на кровать.*

**Ступай, душа, в безбрежных сновиденьях**

**Томиться и страдать!**

*Дорогой снов, мучительных и смутных,*

**Бреди, бреди, несовершенный дух.**

*О, как еще ты в проблесках минутных*

*И слеп, и глух!*

*Еще томясь в моем бессильном теле,*

*Сквозь грубый слой земного бытия*

**Учись дышать и жить в ином пределе,**

*Где ты – не я;*

*Где отрешен от помысла земного,*

*Свободен ты... Когда ж в тоске проснись,*

*Соединимся мы с тобою снова*

*В нерадостный союз («Сны»)* [там же].

Здесь формы повеления не утрачивают побудительного значения. При автоадресации оно сохраняется, сопровождаясь долженствовательным оттенком значения [1, с. 260]. Авторское «Я» расщепляется на душу, тело, представлявшие собой единство, и тело обращается к душе с повелением «**Ступай, душа, в безбрежных сновиденьях //**



**Томиться и страдать!**», «**Бреди, бреди, несовершенный дух**», «**Учись дышать и жить в ином пределе**». Адресат противопоставляет две свои расщепленные ипостаси: «Где ты – не я», «Твой сон... мой небосклон».

В стихотворении «Акробат» обращение с повелением содержится в последнем двустишии:

*Поэт, проходи с безучастным лицом:  
Ты сам не таким ли живешь ремеслом?* («Акробат») [8].

Обращение «поэт» имеет двоякого адресата – самого себя и любого другого поэта, поэтому повеление «проходи» приобретает двойственный смысл: побуждение, адресованное самому себе, и долженствование, обращенное к себе и любому поэту.

В некоторых стихотворениях В.Ф.Ходасевича встречаются и такие, в которых формы повеле-

ния приобретают модальное значение нецелесообразности («не надо», «не стоит», «не следует»). Например, в стихотворении «В тихом сердце – едкий пепел»:

*Но, склоняясь над общей чашей,  
Уст улыбкой **не криви!***

а также в стихотворении «Я»:

***Не подражайте** же мертвецу,  
Как подражаете поэту [там же].*

Итак, формы повеления и императивные высказывания в структуре поэтического текста Вл.Ходасевича под влиянием различных условий поэтической коммуникативной ситуации и окружающего контекста подвергаются семантической и функциональной трансформации, приобретая значение долженствования и нецелесообразности.

### Литература

1. Ковтунова И. Поэтический синтаксис. М.: Наука, 1989.
2. Слина Э. Мысль о будущем и императивная форма речи в лирике А.Пушкина / Межвузовский сборник научных трудов. Псков, 1991.
3. Чижонкова Л. Императивы Анны Ахматовой: диалог с миром // Гуманитарные науки, 2008, №9 (13). Пенза.
4. Мелехова Л. Коннота́бия императива. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2012.
5. Рыжков Л. Императив в поэзии А.С.Хомякова // Русская речь, 2016, №2.
6. Ноненмахер В. Общекоммуникативная типология лирических стихотворений В.Ходасевича // Узбекистонда хорижий тиллар, 2021, №1 (36).
7. Алиева Э.А. Экспрессивные синтаксические средства русской орнаментальной прозы. Ташкент: Университет, 2022.
8. Ходасевич В.Ф. Стихотворения // <http://hodasevich.lit-info.ru>.

**Hamza ABDULLAYEV,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
media nazariyasi va amaliyoti kafedrasida  
o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi*

## JURNALISTIK IXTISOSLASHUV VA SO'Z ERKINLIGI

**Annotatsiya.** Jahon jurnalistikasi taraqqiyotida so'z va matbuot erkinligiga erishish yo'lidagi intilishlar muhim o'rin tutadi. So'z va matbuot erkinligi qadriyat kabidir. Unga birdaniga erishib yoki uni osongina o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu qadriyat hayotda qaror topishi, bunday maqomga loyiq bo'lishi uchun qalam ahli ko'p zahmat chekishi lozimligi jahon tajribasidan ma'lum. Bunga erishish uchun professional va ixtisoslashgan jurnalistikaning zarurati milliy va xalqaro tajribalar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** professional va haqqoniy jurnalistika, jurnalistik mahorat, ixtisoslashuv, so'z erkinligi.

**Annotation.** In the development of world journalism, the pursuit of freedom of speech and the press holds a significant place. Freedom of speech and the press is a value that cannot be immediately achieved or easily acquired. This value must be established in life, and it is evident from global experience that journalists must put in considerable effort to deserve such a status. To achieve this, the necessity of professional and specialized journalism has been analyzed based on national and international experiences.

**Keywords:** professional and truthful journalism, journalistic skills, specialization, freedom of speech.

**Аннотация.** В развитии мировой журналистики важное место занимает стремление к достижению свободы слова и прессы. Свобода слова и прессы – это ценность, которую невозможно достичь сразу или легко освоить. Эта ценность должна быть утверждена в жизни, и, согласно мировому опыту, журналистам нужно приложить большие усилия, чтобы заслужить такое положение. Для достижения этого была проанализирована необходимость профессиональной и специализированной журналистики на основе национального и международного опыта.

**Ключевые слова:** профессиональная и правдивая журналистика, журналистское мастерство, специализация, свобода слова.

Professional va haqqoniy jurnalistika, so'z va matbuot erkinligi masalalari ko'plab bahslarga sabab bo'ladi. Bu bo'yicha har yili xalqaro reytinglar ham tuziladi. Masalan, "Chegara bilmas muxbirlar" (Reporters Without Borders) xalqaro nodavlat tashkilotining reytingida 2023-yili O'zbekiston 180 ta davlat orasida 137-pog'onada ko'rsatilgan (2022-yilda 133-o'rinda edi) [1].

So'z erkinligi tushunchasi hammaga tanish va undan manfaatdor bo'lsa-da, jurnalistlar uchun kundalik faoliyat, hayot tarzining bir bo'lagidir. Shuning uchun butun dunyoda soha faollari doim so'z va matbuot erkinligi uchun kurashadi, ter to'kadi, kerak bo'lsa, bu yo'lda qurbonlar beradi.

"So'z erkinligi qayerdan boshlanadi? Albatta, so'z erkinligining alohida ta'rifi yo'q, u mana bu yerdan boshlanib, mana bu yerda tugaydi deb aytib bo'lmaydi [2]. So'z va matbuot erkinligi qadriyat kabidir. Unga birdaniga erishib yoki uni osongina o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu qadriyat hayotda qaror topishi, bunday maqomga loyiq bo'lishi uchun qalam ahli ko'p zahmat chekishi lozimligi jahon tajribasidan ma'lum. Bugun Amerika va Yevropa media olamidagi o'ziga xos erkinlikka ko'p yillik kurashlar va fidoyi jurnalistlar, faollar mehnati tufayli erishilgan, desak to'g'ri bo'ladi. Xususan, AQShda asos solingan "sariq matbuot", jurnalist tekshiruvi (masalan, "Uotergeyt ishi") va reportorlik san'ati tushunchalari; yoki bo'lmasa, so'z erkinligi prinsiplarini qo'llab-quvvatlaydigan matbuotning libertarian hamda ijtimoiy

mas'uliyat nazariyalari va boshqa ko'plab yutuqlar yuzlab, minglab mahoratli va professional jurnalistlarning mehnati mahsulidir. Sinchkovlik bilan tahlil etilsa, sohada erishilgan qariyb barcha yutuqlar professionallik, mukammal jurnalistika sari intilish asnosida qo'lga kiritilgan oydinlashadi. Matbuot va so'z erkinligi orzusi ham idealdagi jurnalistikani yaratish yo'lidagi maqsadlar tufayli shakllangan bo'lsa, ajab emas.

Mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "Haq olinur, berilmas" iborasi ayni masalaga to'liq mos keladi. Chunki so'z erkinligi berib qo'yiladigan ne'mat emas, unga erishiladi. Erishganda ham professional mahorat bilan erishiladi.

O'zbekiston so'z erkinligi tamoyillariga amal qilish bo'yicha jahon reytingida 137-pog'onada ekani mam-lakat jurnalistlari mahorat bobida hali yana ko'p mehnat qilishi kerakligini, kasbiy ko'nikmalarini oshirishi zarurligini anglatadi, nazarimizda. Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan, ochiq va erkin jamiyat uchun bu ijobiy ko'rsatkich emas, albatta.

Negaki, O'zbekiston qonunchiligida har kim fikrlash, so'z erkinligi huquqiga ega ekani (33-modda); senzura-ga yo'l qo'yilmasligi (82-modda); O'zbekistonda omma-viy axborot vositalari erkinligi, har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega ekani hamda boshqa qator huquq va erkinliklar aniq belgilab qo'yilgan [3]. Ya'ni OAVga oid qonunchiligimizda bu borada muammo deyarli yo'q. Bu huquqlardan to'g'ri va oqilona foydalana olish esa,

jamoatchilikning, ayniqsa, jurnalistlarning o'z huquqlarini chuqur bilishiga, mahoratiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Jurnalistik mahorat nima? Professionallik-chi?

Filologiya fanlari doktori Xurshid Do'stmuhammad mamlakatimizda OAV soni va jurnalistlar safi kengayib borayotgani haqida yozar ekan, quyidagi muammoga e'tiborimizni qaratadi: "Biroq shunday bir sharoitda jurnalistlarimiz orasida *ixtisoslashuv, professionallashuv va mahorat masalalarida* bir qadar oqsoqlanish sezilayotgani ham sir emas. Mavzu tanlash va unga yondashishdagi yuzakichilik, janr tushunchasi va tuyg'usining siyqalanishi, tahlildagi nochorlik, so'zni his qilmaslik, yengil shov-shuvbozlik qusurlari bosma nashrlarda ham, radio va televideniya ham, qolaversa, internet tarmog'ida ommalasha borayotgan elektron nashrlardagi chiqishlarda ham ko'zga tashlanadi" [4: 74].

E'tibor bersak, olim "professionallashuv" va "mahorat" masalalarini "ixtisoslashuv" tushunchasidan so'ng sanamoqda. Bizningcha ham, professionallik va mahorat ixtisoslashuvdan keyin keladigan darajalardir, ya'ni bu sifatlar muayyan sohaga ixtisoslashgan jurnalistga nisbatan qo'llanilishi to'g'ri bo'ladi.

Olim yana bir o'rinda "Bora-bora ... ixtisoslashgan jurnalist hech bir mublag'asiz jamiyatning ilg'or, faol va fidoyi shaxsi darajasiga ko'tariladi" [5: 130], deb ta'kidlaydi.

Rus tadqiqotchisi Andrey Dmitrovskiyning talqini ga ko'ra, mahoratli jurnalist quyidagi oltita sifatga ega bo'ladi [6]:

1. Shaxs sifatida shakllangan.
2. Mas'uliyatli, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega.
3. Kirishimli va daxldorlikni his etadi.
4. Xalqchil.
5. Ziyrak.
6. Barchaga baravar va ochiq.

Tadqiqotchi bu sifatlarni izohlar ekan, ular hayotning turli jabhalarini chuqurroq tushunish, yoritish imkonini berishini, professional jurnalistik faoliyatda ixtisoslashuvni taqozo qilishini qayd etadi.

Darhaqiqat, jurnalistika professional kasbiy faoliyat turi hisoblanadi. Kasb – ixtisoslik va mutaxassislik tushunchalaridan iboratdir. Zamonaviy dunyoda OAV turlari (matbuot, radio, televideniya, internet sayti va hokazo) ko'paygani sari sohada mutaxassislik va ixtisosliklari soni ham ortib bormoqda. Ixtisoslikka oid umumiy kasbiy xususiyatlar majmuasi professional jurnalist shaxsiyatining asosini tashkil qiladi [7].

Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, "professional" (lot. professio – rasmiy belgilangan kasb) so'zi *biror kasbga oid, xos, biror kasb bilan bog'liq bo'lgan; Biror ishni o'ziga kasb qilib olgan, o'z kasbining mutaxassisi bo'lgan (shaxs) ma'nolarini* anglatadi. Manbada jumladan, "*professional mahorat*", "*professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari...*" iboralari misol tariqasida keltiriladi [8: 315].

Gavana (Kuba) universitetining jurnalistika fakulteti professori, fan doktori Miriam Rodrigues Betankur "Ixtisoslashgan jurnalistika: sohaning yuqori bosqichimi?" [9] nomli maqolasida mavzuning tarixiy, konseptual va instrumental jihatlarini yoritish bilan birga, muxbirlarning ixtisoslashuvi zamonaviy jurnalistikaning asosiy tendesiyalaridan biri, soha taraqqiyotining yuqori bosqichi ekanini asoslab beradi.

Darhaqiqat, jurnalistikaning tadrijiy rivojlanish tarixiga ko'z tashlasak, bu ayni haqiqat ekani ko'rinadi. Bundan 50–60 yil muqaddam gazeta-jurnal, teleradio tahririyatlarida ishlagan bo'lajak mutaxassislar adabiyot yoki filologiya fakultetida tahsil olgan. Masalan, O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti – O'zMU)ning jurnalistika bo'limi ham 1949-yili filologiya fakulteti qoshida ochilib, 1967-yilda fakultet maqomiga ega bo'lgan. Bu tendensiya nafaqat bizda, balki butun dunyoda shunday edi. Ertami-kech barcha jurnalistika fakultetlari filologiya yo'nalishidan ajralib chiqdi. Vaqt o'tishi bilan bu fakultetlarda matbuot, radio va televideniya uchun alohida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. So'ng yo'nalish va kafedralar soni ortib bordi.

Aytaylik, Moskva davlat universiteti (MDU)ning jurnalistika fakultetida 1969-yilda matbuot, radio va televideniya faoliyatini o'rganish laboratoriyasi, 1973-yilda fotojurnalistika va 1975-yilda xalqaro bo'lim tashkil etilgan edi. 1989-yili iqtisodiy jurnalistika va reklama, 1990-yili jurnalistika sotsiologiyasi kafedralari ochildi. Ayni paytda bu muassasada 15 dan ortiq yo'nalishda ixtisoslashgan jurnalist kadrlar tayyorlanmoqda [10: 175].

Chunki professional mahoratga ega jurnalistgina axborotga egalik qila oladi – uni izlab topadi, baholaydi, saralaydi, qayta ishlaydi, ta'sirchan yondashuv asosida auditoriyaga taqdim etadi. Noprofessional jurnalist esa, axborotni boshqarish layoqatiga ega bo'lmaydi. Buni shunday tushunish lozim: keskir qilich no'noq qilichbozning qo'lida o'tmas pichoq kabi samarasiz bo'lganidek, axborot ham uni saralay olmaydigan, kerakli paytda, kerakli maqsadda ishlatishni bilmaydigan muxbir qo'lida oddiy matn yoki shunchaki xabardan ortiq narsa emas.

Tadqiqotchi Boris Misonjnikovning ta'biri bilan aytganda, universalizm (ya'ni muayyan mavzuga ixtisoslashmaslik – *ta'kid bizdan*) holatining yuzaga kelishi yaxshilik alomati emas. Chunki "universal" jurnalistning kasb cho'qqisini zabt etishi kam kuzatilgan. Alaloqibat u o'rtacha darajadagi reportyor, zaif tahlilchi bo'ladi, badiiy publitsistika bobida esa gapirmay qo'yaqolaylik" [11].

"Forbes" jurnalining prognozlariga ko'ra, keng auditoriyani qiziqitira oladigan tor soha va yo'nalishlar bo'yicha yuqori professional malakaga ega bo'lmagan oddiy muxbir kelgusida hech kimga keraksiz bo'lib qolishi mumkin. Chunki bugungi kunda ma'lum bir auditoriyaga mo'ljallangan ixtisoslashgan mediaga qaraganda an'anaviy jurnalistikaga talab kamayib bormoqda [12].

Mazkur manbaga ko'ra, jahonda o'z so'zi, yondashuviga ega bo'lgan, odamlar o'z kelajak rejalarini belgilashda, mavjud holatlarni baholashda maqola va prognozlariga tayanadigan nufuzli matbuot nashrlarida minglab mutaxassislar ishlaydi. Masalan, "The New York Times" gazetasi dunyoda professional jurnalistika maktabini yaratgan eng yetakchi matbuot nashrlaridan biri. 2019-yili gazetada 4500 nafar xodim faoliyat yuritgan. Yoki bo'lmasa, ispan tilida chop etiladigan eng nufuzli nashrlardan biri "El Pais" gazetasini olaylik. 2020-yilgi ma'lumotga ko'ra, gazeta tahririyatlarida 1000 nafar xodim ishlagan. Ular tarqatayotgan katta hajmli axborot turli aholi qatlamlari, sohalar, yo'nalishlar, mavzularga bag'ishlangan bo'lib, keng auditoriyaning qiziqishlarini o'ziga jalb etadi. Bu nashrlar har kuni yuz minglab nusxalarda chop etilishidan tashqari, internet tarmoqlaridagi sahifalarida ham o'n millionlab obunachi va kuzatuvchilariga ega. Har kuni dunyoning ko'plab axborot vositalari ulardan iqtiboslar keltiradi.

Ushbu raqamlar mazkur tahririyatlarda jurnalistlar soha va yo'nalishlar kesimida chuqur ixtisoslashganini, o'z sohasi bo'yicha ulardan mukammalroq, eksklyuzivroq materiallar tayyorlay oladigan muxbirlar kamligini anglatadi. Bunday yutuqning siri ixtisoslashuv va mahoratning ortida yashiringanini ilg'ash qiyin emas.

So'z erkinligi jamiyat va davlat taraqqiyotining haqiqiy generatoridir. U taraqqiyotning oyog'iga tushov bo'ladigan yolg'on, xiyonat, laganbardorlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, mahalliychilik, qonunbuzarlik, korrupsiya kabi illatlarni yemiruvchi, sog'lom raqobat muhitini rag'batlantiruvchi jonli mexanizm. Agar biz so'z erkinligi qaror topgan huquqiy demokratik jamiyatni qurmoqchi bo'lsak, professional, ya'ni ixtisoslashgan jurnalistikani shakllantirishimiz kerak. Tor mavzularni chuqur tahlil eta oladigan, kamchilik va muammolarini ochib beradigan, o'z haq-huquqlarini taniydigan, qalami o'tkir va mohir jurnalistlar xolis va haqqoniy jurnalistikani ham, to'rtinchi hokimiyatni ham amalda yarata olada.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reporters Without Borders. <https://rsf.org/en/index>.
2. Jalolxonov O'. So'z erkinligi: U qanday paydo bo'ladi? [www.kun.uz](http://www.kun.uz). 08.03.2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni, 5-modda.
4. Do'stmuhammad X. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
5. Дмитриевский А. Смысл творчества и критерии мастерства в журналистике (философско-антропологический подход) // [cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru).
6. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики: Учебное пособие. – М.: РИП-холдинг, 2000. – (Практическая журналистика).
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zME, 2006.
8. Miriam Rodríguez Betancourt. Periodismo especializado ¿una fase superior? Facultad de Comunicación de la Universidad de La Habana, 2013//URL: [mesadetrabajo.blogia.com/2006/110702-periodismo-especializado.-una-fase-superior-.php](http://mesadetrabajo.blogia.com/2006/110702-periodismo-especializado.-una-fase-superior-.php)
9. Abdullayev H. Ixtisoslashgan jurnalist kadrlarni tayyorlash muammolari. Zamonaviy bosma OAV muammolari: xalqaro va milliy tajriba (2020-yil 27-martdagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami). – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
10. Мисонжников Б. Введение в профессию: журналистика. – Москва: Юрайт, 2024. – С. 37.
11. Польшаева Тамара. Качества журналиста: какими профессиональными навыками должен обладать специалист в области журналистики // [kirovpravda.ru](http://kirovpravda.ru). 22.12.2021.

**Gulchehra MUSTAFAYEVA,**  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

## O'ZBEK TILIDA TURG'UN O'XSHATISHLAR VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar tahlil qilinadi va ularning madaniy, lisoniy xususiyatlariga hamda tildagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, o'xshatish subyekti, konstruktsiya, etalon, lingvokulturologiya, lingvomadaniy xususiyat.

**Annotation.** In this article focuses on Uzbek static similes' analysis. Their cultural and linguistic significance is also studied.

**Keywords:** simile, the subject of simile, construction, ethalon, lingvoculturology, lingvocultural features.

**Аннотация.** В данной статье анализируются устойчивые сравнения в узбекском языке и акцентируется внимание на их культурно-лингвистическом значении.

**Ключевые слова:** сравнение, сравнительная лингвистика, строительство, эталон, языковая и культурная особенность.

O'xshatishlar obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifati yuzaga kelib, ma'lum madaniyat vakillarining ongida mavjud olamning milliy lisoniy manzarasini ifoda qiluvchi vositadir. Olim Muhammadjon Mukarramov o'xshatishni uch o'lchamda ifodalagan: "O'xshatish obyekti – tasvirlanmoqchi bo'lgan predmet, hodisa; o'xshatish obrazi – taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, o'xshatish belgisi – ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir" [1: 62]. O'xshatishlar ma'lum madaniyatga tegishli bo'lgan xalq nutqida qo'llanib, ma'lum vazifani bajarib keladi. Muloqotda asosan so'zlovchi nutqining ta'sirchanligini ta'minlash va tinglovchiga yanada tushunarli holda yetkazish, adabiyotda asar badiiy-estetik bo'yoqdorligini oshirish kabi maqsadlarda foydalaniladi. Odatda o'xshatishning 2 ta turi ajratiladi:

1. Erkin o'xshatishlar (muallif tomonidan yaratilgan).

2. Turg'un o'xshatishlar (xalq tomonidan yaratilgan).

O'g'zaki nutqda ko'proq turg'un o'xshatishlardan foydalanamiz. Chunki bu turdagi o'xshatishlar atrof-dagilarning nutqida ko'p qo'llanadi va natijada ongimizga muhrlanib qoladi, suhbat jarayonida esa beixtiyor tilimizga ko'chadi. Bundan tashqari, hamma uchun tushunarli ekani ham so'zlovchini ushbu o'xshatishlardan foydalanishga undovchi muhim sabablardan biridir. Aslida tildagi bu birliklarni ham ma'lum bir shaxs yaratgan, ammo vaqt o'tishi bilan umumxalq orasida ommalashib, muallifi unutilgan. Fikrimcha, individual o'xshatishlar, muallif qarashlari boshqalar tomonidan to'g'ri yoki asosli deb topilganida va foydalanilganidagina turg'un o'xshatishlarga aylana boradi. Natijada o'sha xalq madaniyatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rinadi. Shuni ham alohida ta'kidlamok joizki, turg'un o'xshatishlar tarkibida o'xshatish etaloni alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi aynan etalonda o'sha xalqning dunyoqarashidagi o'ziga xoslik, milliy-madaniy konnotatsiya yuzaga chiqadi. Masalan, o'zbek tilidagi *qo'yday yuvvosh* o'xshatishida berilgan *qo'y* etalonida

milliy-madaniy qarash o'z aksini topgan. Buni shunday tushuntirish mumkin: *qo'y* o'zbek xalqida beozorlik, yuvvoshlik kabi xususiyatlarni ifodalab keladi, ammo boshqa xalqlarda, jumladan, ruslarda *qo'r* ramzidagi hayvon hisoblanadi.

Universal grammatikaga ko'ra, til o'zlashtirish tug'ma omillar hamda atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi. U tillarning invariant va variant xususiyatlarini kodlaydigan prinsiplar va parametrlarni o'z ichiga oladi. Prinsiplar insonning barcha tabiiy tillariga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar bo'lib, tillarning o'zgarish xususiyatlarini, ya'ni o'xshash universal xususiyatlarni kodlaydi [9]. Inson ongida muayyan kesim va unga bo'ysunuvchi yordamchi komponentdan iborat



yaxlit sintaktik tuzilma mavjud. Bu barcha tillar uchun birdek tegishli. Biroq bu prinsiplarning o'rnatilishi tillarda farqlanadi. Bunday farqlar parametrlar deyiladi. Masalan, ingliz tilida *U kitobni o'qidi* (He read the book) gapi *ega+kesim+to'ldiruvchi* shaklida yuzaga kelsa, o'zbek tilida *ega+to'ldiruvchi+kesim* ko'rinishida, ya'ni sintaktik tartib farqli ravishda, to'ldiruvchi kesimdan keyin yoki oldin keladi. Parametrlar kombinatsiyasining mavjudligi tillarning bir-biridan farq qilishini izohlaydi. Parametr modellari xilma-xil, til o'zlashtirishda bolaning asosiy vazifasi – til muhitiga qarab parametrlar tanlash hamda ularning qiymatini belgilashdan iboratdir [3: 474].

Ona tilini o'zlashtirishda universal grammatikaning mavjudligi haqida turlicha qarashlar bor. Umumiy nativizm nazariyasi lingvistik nativizmni inkor etgan holda, bolaning tayyor sintaktik tuzilmaga xoslangan miya bilan tug'ilmasligi haqida fikrlarni keltiradi. Unga ko'ra, turli elementlar (so'zlar) turi strukturalarni hosil qiladi. Sintaktik strukturalar esa ana shu elementlarning qayta-qayta ishlov berilishidan paydo bo'ladi. Boshqa tomondan miyada nutq markazlarining mavjudligi Chomskiyning tilning tug'ma tabiati hamda universal grammatikaning mavjudligi haqidagi tahminlarini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda, neyrolingvistikaga oid qator tadqiqotlarda bolaning embrional rivojlanish davrida miyasida tilga oid "quti" mavjud bo'lib, u hech qanday tashqi stimulsiz ham mavjudligi haqida fikrlar yuzaga keldi [1: 8–30]. Chap miya yarimsharidagi Broka nuqtasi o'rganilganda, bu nuqta to'g'ri tarkibiy qismlarning iyerarxik tuzilishiga asoslangan til jumllarini tuzishda faollashgan, lekin oddiy chiziqli so'zlar tartibiga asoslangan til jumllarini tuzishda faollashmagan [8]. Erik Lenneberg esa tashqi stimulni qabul qilish uchun ham biologik asos bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [6]. Ayni holat universal grammatikaning mavjudligini izohlaydi.

Universal grammatika ona tilini o'zlashtirish qobiliyatining bir qismi sifatida qabul qilingan bo'lsa ham, ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida ham qiziq muhokamalarga sabab bo'lgan va hozirda ham ushbu muhokamalar davom etmoqda. Buning asosiy sababi parametrlar tanlanishi va o'rnatilishidagi farqlardir. Ikkinchi tilni o'zlashtirishdagi "tug'ma" mexanizmlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi, asosan, yosh bilan bog'liq. Ko'pgina tadqiqotchilarning bilingval bolalarda kuzatiladigan til o'zlashtirish masalasida har ikki til uchun ham bu mexanizm ishlashi haqida fikrlari mushtarak. Miyaning plastiklashuv jarayonida bola har ikki tildagi parametrlarni tanlashi va o'rnatishi mumkin [2: 35]. Ya'ni miya hali egiluvchan holatida har ikki tilning parametrlari miyada ma'lum "chiziq"larni osonroq hosil qila oladi. Bola til o'zlashtirishning dastlabki davrlarida tabiiy sharoitda tanlangan ikki tildagi parametrlarni birdek mustahkamlay oladi hamda ularni rivojlantiradi.

Kattalarning ikkinchi til o'zlashtirishida ham tug'ma mexanizmning ishlashi masalasi munozarali. Bu bo'yicha adabiyotlarda to'rtta aniq yondashuv belgilangan [5: 8]:

- Universal grammatika birinchi tilni ham, ikkinchi tilni ham o'zlashtirishga ham birdek taalluqli. Ona tili ikkinchi tilni o'zlashtirishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, ikkinchi tilni o'zlashtirish ham birinchi tilni o'zlashtirishdek kechadi va dastlab eng cheklangan parametrlar sozlanadi.

- Universal grammatika prinsiplari kattalar uchun umuman mavjud emas. Ular til o'zlashtirish jarayonining boshiga qaytish imkoniyatiga ega bo'lishmaydi. Ikkinchi til turli strategiyalar orqali o'zlashtiriladi.

- Universal grammatika mavjud emas, biroq ikkinchi til o'zlashtiruvchilar ona tilida kodlangan ba'zi parametrlardan foydalanishi mumkin.

- Universal grammatika mavjud, faqat ona tilidagi parametrlar ikkinchi til ma'lumotlari bilan ishlashning oraliq usuli sifatida qaraladi.

Bu boradagi munozaralarning hali ham mavjudligi til o'zlashtirish murakkab jarayon ekanini ko'rsatadi. Nativizm nazariyasi til o'zlashtirishda "tug'ma" mexanizm sifatida faqat sintaktik strukturaning mavjudligini nazarda tutadi. Biroq ushbu mexanizm lingvistik ma'lumotga muhtoj ekanligi, ya'ni semantikaning e'tibordan chetda qolishi kognitiv nazariyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kognitiv nazariyaga ko'ra, til o'zlashtirish sintaktik tarkibni tanlash hamda uni rivojlantirish orqali emas, balki semantik idrok qilish orqali amalga oshadi. Bu haqidagi dastlabki qarashlar Dan Slobinga tegishli. Unga ko'ra, tilning rivojlanishi uchun ikki asosiy qadam mavjud bo'lib, ular funksional va formal darajalardir. *Funksional darajada* rivojlanish konseptual va kommunikativ qobiliyatlarining o'sishi bilan belgilanadi, ular idrokning tug'ma sxemalari bilan birgalikda ishlaydi, *formal darajada* esa tug'ma grammatik sxema ishga tushadi [11: 268]. Ya'ni bolada tug'ma semantik idrok mexanizmi mavjud bo'lib, tilning dastlabki rivoji semantika bilan amalga oshadi.

Grammatik strukturalar tizimli tartibda o'zlashtirilib, tartib til o'zlashtiruvchining yoshi yoki uning ona tilisidan mustaqildir. S.Krashen o'z tadqiqotlarida til strukturalarining o'zlashtirilishida muayyan tartib bor ekanini asoslaydi.

Keyingi yillarda til o'zlashtirish jarayoni bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ishida tovushlarning o'zlashtirilishida ham tartib mavjud ekaniga ishora qiladi. Tadqiqotlar tovushlarning ona tili (*p, m, h, n, w, b*) hamda ikkinchi til (*p, m, n, k, t, s*) sifatida o'zlashtirilishida bolalar dastlab nutqda lab undoshlarini nazoratga olishini ko'rsatadi. Tartibdagi o'xshashlik o'zbek tilini ona tili sifatida o'zlashtirayotgan bolalar nutqini kuzatish, tajriba o'tkazish, tartibni aniqlash (bor bo'lsa) hamda tartibni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillarni belgilash vazifasini tadqiq etishni taqozo etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Caplan, David (1984). The mental organ for language. In D.Caplan, A.R.Lecours, A.Smith (Eds.), Biological perspectives on language. – Massachusetts: Cambridge, MIT.
2. Dolores, Ben. A Second Language Acquisition Model Based on Neurolinguistics, Psycholinguistics and Applied Linguistic theory // Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. The University of Texas at Arlington, December, 1996.
3. Guasti, Maria (2002). Language acquisition: The growth of grammar. Cambridge, MA: MIT Press, 2002.
4. Jackendoff, Ray. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. – Oxford / New York: Oxford University Press, 2002.
5. Kim, H-Ri. First and Second Language Acquisition of Binding: An Investigation of Korean-Speaking Children and Korean Adult Learners of English // A Dissertation presented to the Graduate School of the University of Florida in...degree of doctor of philosophy University of Florida, 1993.
6. Lenneberg, Eric (1984). Biological foundations of language. – Malabar, FL: R.R.Krieger.
7. Lightbown, Patsy, Spada, Nina. (1993) How Languages are Learned. Oxford University Press.
8. Mariacristina Musso, Andrea Moro, Volkmar Glauche, Michel Rijntjes, Jürgen Reichenbach, Christian Büchel, Cornelius Weiller. (2003) Broca's area and the language instinct // Nature Neuroscience.
9. Pattern, Bill, Benati, Alessandro. (2010). Key terms in Second Language Acquisition. – New York 80 Maiden Lane, Suite 704, NY 10038.
10. Pesetsky, David. Linguistic Universals and Universal Grammar // The MIT Encyclopedia of the Cognitive Sciences / Edited by Robert A. Wilson and Frank C. Keil. – Massachusetts Institute of Technology, 1999.
11. Slobin, Dan. (1971a) Developmental psycholinguistics. In W.Dingwall (Ed.), A survey of linguistic science. College Park: University of Maryland Press.
12. Usmanova Sh. Psixolingvistika fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent: Universitet, 2008.

**Sanobar DJUMANOVA,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,*  
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA YARATILGAN JURNALISTIK MATNLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqolada jurnalistika sohasiga sun'iy intellektning kirib kelishi, neyrotarmoqlardan jurnalistik matnlar tayyorlash jarayoni, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan matnlar tili va uslubining o'ziga xosliklari, ulardagi mantiqiy buzilishlar, imloviy va punktuatsion xatoliklar haqida so'z yuritiladi. Matndagi insoniylik tushunchasi tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, neyrotarmoqlar, matni insoniylashtirish, til, uslub, tahrir.

**Annotation.** The article discusses the introduction of artificial intelligence into the field of journalism, the process of generating journalistic texts using neural networks, the distinctive features of language and style in texts created with artificial intelligence, their logical inconsistencies, and spelling and punctuation errors. The concept of humanizing text is also analyzed.

**Keywords:** artificial intelligence, neural networks, text humanization, language, style, editing.

**Аннотация.** В статье рассматривается проникновение искусственного интеллекта в сферу журналистики, процесс создания журналистских текстов с помощью нейронных сетей, особенности языка и стиля текстов, сгенерированных искусственным интеллектом, логические нарушения в них, а также орфографические и пунктуационные ошибки. Анализируется концепция гуманизации текста.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, нейросети, гуманизация текста, язык, стиль, редактирование.

Sun'iy intellekt jurnalistikadagi yangi raqamli chegara sifatida sohaning samaradorligini oshirib, axborotni olish va yetkazishni tezlashtirmoqda. Ushbu texnologiya jurnalistikadagi axborot yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangiliklarni tezkorlik bilan ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Jurnalistlar maqolalar yaratishda uning matni generatsiya qiluvchi funksiyasidan foydalanyapti. Bu jarayonda sun'iy intellekt yaratgan matnlar tili va uslubidagi o'ziga xosliklar, undagi mantiqiylik buzilishlar, imloviy va punktuatsion xatoliklarni o'rganish zarurarini yuzaga keltiryapti.

Zamonaviy dunyoda til inson va sun'iy intellekt munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Avvallari lison, muloqotga nisbatan faqat insonga xos hodisa sifatida qaralardi. Sun'iy intellekt taraqqiyoti bu holatni o'zgartirdi. Endi "sun'iy intellekt texnologiyasida insonning kognitiv jarayonlarini ramziy tasvirlash o'rniga sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanish o'z-o'zini o'rganuvchi modellarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada sun'iy intellekt tilni insonlar belgilagan qo'llanish usullariga bog'liq bo'lmagan tarzda ishlatmoqda" [1: 111].

Sun'iy intellekt tomonidan yozilgan matnlarda ba'zan mantiqiy buzilishlar va noaniqliklar uchrab tura-di. Bunday holatlarning bir necha sababi bor va ularning har biri sun'iy intellekt texnologiyasi xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

*Birinchidan*, sun'iy intellekt tilni tushunishda yetarli darajada kontekstga e'tibor bermasligi mumkin. Bu uni inson mantiqidagi chetlashishiga olib keladi. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni sintez qilish va qayta ishlashda algoritmik usullarga tayanadi, bu esa ba'zi mavhum yoki murakkab kontekstlar uchun mos kelmaydi.

*Ikkinchidan*, tilning turlicha bo'lishi va bir xil so'zning turli kontekstlarda alohida ma'nolarga ega bo'lishi sun'iy intellekt yaratgan matnlarda mantiqiy muammo-

larga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat ayniqsa bir nechta o'zgaruvchan va mantiqan murakkab tuzilmali matnlarda yuzaga keladi.

*Uchinchidan*, sun'iy intellekt ayrim tilda kam yoki noaniq ma'lumotlarga asoslangan holda matn yaratgani uchun mantiqiy ketma-ketlik yoki bog'lanishlarda kamchiliklar uchrashi mumkin.

Sun'iy intellekt yozgan matnlarda imlo xatolariga sabab bo'luvchi omillar ham turlicha. Bunday asosiy sabablardan biri, sun'iy intellekt tizimlari o'qitish jarayonida noto'g'ri yoki kamchiliklarga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami bilan ishlaganda, natijada imlo xatolari paydo bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt foydalanayotgan bazadagi to'g'ri va yuqori sifatli ma'lumotlar sun'iy intellektga yanada aniqroq natijalar hosil qilishda yordam beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt bir nechta tilni qo'llab-quvvatlaganida har bir tilning o'ziga xos imlo qoidalari va grammatik qurilmalariga to'liq rioya qilmasligi mumkin. Bu esa xatolar paydo bo'lishiga olib keladi, ayniqsa kamroq ishlatiladigan til modellarida bu kabi xatoliklar ko'proq ko'zga tashlanadi. Ba'zida esa sun'iy intellekt modellarida imlo va grammatikani to'g'ri o'rganish uchun ma'lumot va vaqt yetishmasligi mumkin. Bu cheklovlar imlo va til uslubidagi xatolarni keltirib chiqaradi. Ba'zi so'zlar va jumlar turli kontekstlarda turlicha mazmunga ega bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt ushbu farqlarni har doim to'g'ri ajrata olmasligi natijasida imlo xatolari yuzaga kelishi kuzatiladi.

Dunyodagi yirik gazetalar jurnalistik faoliyatda yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanmoqda. Bunday asosiy muammo mualliflik huquqi masalasi bo'lsa, ikkincha masala sun'iy intellekt tayyorlagan matnda yolg'on, haqiqatga mos bo'lmagan axborotlarning ko'pligidir. Masalan, 2023-yilda ba'zi nashriyotlar maqolalar yozish uchun sun'iy intellekt dan

foydalanib, yoʻldan adashgani va tanqid, qoralash hamda obroʻsini yoʻqotish bilan toʻqnash kelganini koʻrsatadigan koʻplab hodisalar sodir boʻldi [2]. Buning eng yorqin misoli Amerikaning nufuzli Sports Illustrated (SI) sport jurnali, Gannett gazetalar tarmogʻi va CNET texnologik veb-sayti bilan bogʻliq voqealardir. Yolgʻon xabarlar tarqalishi tufayli ularning obroʻsi tushdi, shartnomalari bekor qilindi va auditoriyaning ularga nisbatan ishonchi kamaydi. Demak, sunʻiy intellekt jurnalistika rivojlanishi uchun vosita sifatida qaralsa-da, gazetalar aslida kontentni oʻzlari ishlab chiqarishlari kerak yoki sunʻiy intellektdan foydalanishini koʻrsatishi zarur.

Baʼzi tahririyatlar, shuningdek, kontent ishlab chiqarish vazifalarida ChatGPT kabi sunʻiy intellekt (genAI) kreativ texnologiyalarini sinab koʻrdilar, ammo faqat sharhlar, sarlavhalar yozish yoki vizual hikoyalar yaratish bilan cheklanishdi. Bundan tashqari, imlo tekshiruv uchun Grammarly va boshqa sunʻiy intellekt vositalari yozma kontentni tahrirlash, tuzatish va sifatini yaxshilash uchun ishlatilmoqda. Hatto sunʻiy intellekt xato qilgan, faktlarni notoʻgʻri keltirgan, sunʻiy intellekt tarafdorlikka yoʻl qoʻygan holatlar monitoring ham qilib borilmoqda [3].

Shuni ham alohida taʼkidlash kerakki, sunʻiy intellekt yaratgan matnlarning tili va uslubi tez surʼatlar bilan yaxshilanib bormoqda. Generative Pre-trained Transformer (GPT) matnni inson tiliga oʻxshash tarzda yaratishga harakat qilmoqda.

Sunʻiy intellekt generatsiya qilgan matnlarda mantiqiy xatolar, kontekstni tushunmaslik, ijodkorlik yoʻqligi kabi xatoliklarni bartaraf etish, shuningdek, yaratilgan matnlar grammatik jihatdan toʻgʻri, leksik boy, uslubi (rasmiy, norasmiy v.h.) aniq boʻlishi barobarida, inson yozganiga oʻxshash boʻlishi ustida ishlanmoqda. Sunʻiy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni insonlashtirish, yaʼni ularni inson tomonidan yozilgan matnlardan farq qilmasligi uchun ishlov berish jarayonidir. Bu jarayon turli xil texnikalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Insonlashtirilgan sunʻiy intellekt matnlari inson yozgan matnlardan farq qilmaydi, shuning uchun ularga ishonch kuchayadi. Uni oʻquvchilar yaxshiroq qabul qiladi.

Koʻpchilik sunʻiy intellekt modellari jamiyatni oʻzgartiradi hamda taʼlim tizimi va axborot yaratishda sezilarli yangilanishlarga sabab boʻladi deb hisoblaydi. Olimlar sunʻiy intellekt yaratgan kontentning sifatini tizimli ravishda baholash uchun inson tomonidan yozilgan va ChatGPT yaratgan argumentativ talabalar insholarini

taqqoslaydi [4]. Xulosaga koʻra, insonlar va generativ sunʻiy intellekt modellari oʻrtasidagi yozish uslublari sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, GPT modellari koʻproq nominalizatsiyalardan foydalanadi va gaplarni murakkab (yaʼni ilmiy) tuzadi, talabalar esa shaxsiy munoasabatini ifodalashga moyil boʻlib, modal va epistemik konstruktsiyalardan koʻproq foydalanadilar. Demak, hozirgi holatda sunʻiy intellektning aqli, fikrlashi insonnikidek darajaga yetmadi. Olimlar taxminiga koʻra, 2030-yilgacha sunʻiy intellekt “Tyuring testi”dan oʻtadi. Yaʼni uning javoblari, oʻzini tutishi, his-hayajoni insonnikidan mutlaqo farqlab boʻlmaydigan darajaga yetadi [5].

M. G. Shilina, I. I. Volkova, A.Y. Bombin, va A. A. Smirnova sunʻiy intellekt hodisasini sunʻiy kommunikatsiya sifatida qayta koʻrib chiqib, “sunʻiy jurnalistika” atamasini taklif qiladilar [6]. Ular tadqiqotlarida ilk bor sunʻiy intellektga asoslangan jurnalistikaning turli konseptual nuanslarini yoritishga, ijtimoiy dinamikasiga taʼsir koʻrsatib, ushbu sohaning asosiy texnologik va kommunikativ atributlarini qanday oʻzgartirishni tadqiq etishga harakat qilishadi.

Bu kabi tadqiqotlar ham “sunʻiy jurnalistika”da matnlar sifati va ishonchliligini oshirish muammosi mavjudligini koʻrsatadi. Sunʻiy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tajribali jurnalistlar yoki muharrirlar koʻrib chiqqani maqsadga muvofiq. Inson va avtomatlashtirilgan tizimlarning hamkorligi matn sifati va ishonchliligini oshiradi. Muharrirlar matnlar mazmunini va grammatikasini diqqat bilan tekshiradilar.

Tahlillarda koʻringanidek, sunʻiy intellekt, xususan neyroarmoqlar, jurnalistik matnlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan zamonaviy texnologiya sifatida faol ishlatilmoqda. Ushbu texnologiyalar matn yaratish jarayonida ishtirok etar ekan, ularning tili va uslubidagi oʻziga xos xususiyatlar alohida eʼtiborni talab qiladi. Imlo va punktuatsion xatolarni kamaytirish uchun ham inson nazorati talab qilinishi mumkin. Matnni insoniyashtirish sunʻiy intellekt orqali yaratilgan matnlarni yanada oʻqilishi oson va inson koʻnikmalariga moslashtirishni nazarda tutadi. Insoniyashtirish orqali tilning tabiiyligiga, hissiyot va muloqot koʻproq aks ettirishiga erishiladi. Sunʻiy intellekt texnologiyalari jurnalistikada qoʻllanishi davomida inson aralashuvi zarurdir. Bu aralashuv matnlarning yuqori sifatini va ishonchliligini taʼminlash, ularni mantiqan izchil va grammatik jihatdan toʻgʻri qilib koʻrsatishda oʻz ifodasini topadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bylieva, D. Language of AI // Technology and Language. 2022. № 3(1).
2. Hoa T. Journalism needs to avoid mistakes in the AI era February 8, 2024 // <https://www.vietnam.vn/ru/bao-chi-can-tranh-nhung-vet-xe-do-trong-ky-nguyen-ai/>.
3. Drapkin A. AI Gone Wrong: An Updated List of AI Errors, Mistakes and Failures November 13, 2024 // <https://tech.co/news/list-ai-failures-mistakes-errors>.
4. Herbold, S., Hautli-Janisz, A., Heuer, U., Kikteva, Z., & Trautsch, A. (2023). A large-scale comparison of human-written versus ChatGPT-generated essays. Scientific Reports, 13(1).
5. Karimov D. Sunʻiy intellekt: imkoniyatmi yoki tahdid? // Xalq soʻzi // 2024. <https://xs.uz/uzkr/post/sunij-intellekt-imkoniyatmi-yo-tahdid>.
6. Shilina M., Volkova I., Bombin A., Smirnova A. Artificial journalism: the reverse of human-machine communication paradigm. Mapping the field of AI critical media studies. RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism, (2023). 28 (4).

**Yayra MAKHMATKULOVA,**  
UzSWLU, Korean philology department  
(Lecturer, Korean language teacher)

## MAIN ASSUMPTIONS OF COGNITIVE LINGUISTICS AND LINGUOCULTUROLOGY

**Annotation.** This article provides a comprehensive introduction and essential reference work to cognitive linguistics and linguoculturology. It encompasses a wide range of perspectives and approaches, covering all the key areas of cognitive linguistics and linguoculturology.

**Keywords:** cognitive Linguistics, Linguoculturology, Linguopragmatics, Communicative Linguistics, Conceptualization, Conceptual World Picture.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyani keng qamrovli tushuntirish uchun muhim ilmiy qarashlar berilgan. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning barcha asosiy yo'nalishlarini ko'rsatuvchi ilmiy yondashuvlar chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, kommunikativ tilshunoslik, konseptualizatsiya, konseptual dunyo manzarasi.

**Аннотация.** В статье представлены всеобъемлющее введение и основные справочные материалы по когнитивной лингвистике и лингвокультурологии. В ней рассматривается широкий спектр точек зрения и подходов, охватывающих все ключевые области когнитивной лингвистики и лингвокультурологии.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, лингвокультурология, лингвопрагматика, коммуникативная лингвистика, концептуализация, концептуальная картина мира.

The development of linguistics at the present time is to a great extent influenced by the anthropocentric paradigm that caused the emergence of several new branches of linguistics, such as cognitive linguistics, linguoculturology, linguopragmatics, communicative linguistics, etc.

One of the rapidly developing branches is cognitive linguistics, which is concerned with the study of the relationship between linguistic units and the mental processes they represent, between human experience and its result – knowledge. Cognitive linguistics views linguistic cognition as indistinguishable from general cognition and thus seeks explanation of linguistic phenomena in terms of general cognitive strategies such as metaphor, metonymy, and blending. Grammar and lexicon are viewed as parts of a single continuum and thus expected to be subject to the same cognitive strategies.

Cognitive linguistics is a relatively new school of linguistics and one of the most innovative and exciting approaches to the study of language that has emerged within the modern field of interdisciplinary study known as cognitive science. The people whose works have been most influential in the creation of this framework include not only British and American scholars such as Fauconnier, Goldberg, G. Lakoff, Langacker, L. Talmy, and Taylor but also Russian and Uzbek scholars such as E.S. Kubryakova, N.N. Boldirev, D.U. Ashurova, N.M. Djusupov, Sh.S. Safarov, etc. Thus, cognitive linguistics originated from the works of a number of researchers who were interested in the relation of language and mind and who did not follow the prevailing tendency to explain linguistic patterns by means of appeals to structural properties internal to and specific

to language. Rather than attempting to segregate syntax from the rest of language, the researchers tried to distinguish cognitive principles and mechanisms not specific to language, including principles of human categorization, pragmatic and interactional principles, and functional principles in general, such as language economy.

The main principles of cognitive linguistics formulated by D.U. Ashurova are as follows:

- the acknowledgement of the two functions – communicative and cognitive – as the main functions of language;
- the principle of anthropocentrism proclaiming the key role of the human, his intellect, and knowledge in the process of language studies;
- the principle of interdisciplinarity postulating close links of cognitive linguistics with other sciences (psychology, sociology, cognology, philosophy, cultural studies);
- an interpretative approach to language based on the processes of conceptualization and categorization;
- Blurring boundaries between “inner” and “outer” linguistics, semantics, and grammar; synchronism and diachronism (Ashurova, 2013).

Cognitive linguistics derives its distinctive character from a number of guiding assumptions of other traditional branches of linguistics. One of them is that cognitive linguistics studies language stems from the assumption that language reflects patterns of thought. Therefore, to study language from this perspective is to study patterns of conceptualization, which, according to N.N. Boldirev, means the process of forming concepts in the person's mind (Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы

когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. №1. – с 18–36). It is a “process of knowledge structurization through some forms of knowledge and emergence of different structures of knowledge representation in the form of certain minimum conceptual units” (Е.С. Кубрякова. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. с. 93), i.e., a process involving the comprehension of new information that brings about the formation of concepts, conceptual structures, and an entire conceptual system.

The most important way in which cognitive linguistics differs from other approaches to the study of language, then, is that language is assumed to reflect certain fundamental properties and design features of the human mind. Since in almost all the situations in which we find ourselves, language allows quick and effective expression and provides a well-developed means of encoding and transmitting complex and subtle ideas. In fact, these notions of encoding and transmitting turn out to be important, as they relate to two key functions associated with language, the symbolic function and the interactive function.

Another important modern anthropocentric branch of linguistics is linguoculturology. Linguoculturology is defined as an independent branch of linguistics at the interface between linguistics, cultural studies, ethnolinguistics, and sociolinguistics. According to V.V. Vorobyov, linguoculturology is “a complex scientific discipline of a synthesizing type studying interrelation and interaction of culture and language in its functioning and reflecting this process as a complete structure of units in the unity of their linguistic and extra-linguistic (cultural) contents by means of system methods and with orientation to modern priorities and cultural establishments (systems of norms and public values)” (Vorobyov, 1999).

So, linguoculturology has its own integral aspect of studying language and culture. It deals with the “deep level” of semantics and brings into correlation linguistic meanings and the concepts of universal and national cultures. The aim of linguoculturology is to study linguistic means with the help of which language embodies, stores, and transfers culture (Маслова, 2007).

One of the most important notions of linguoculturology is the notion of “conceptual and linguistic world pictures.” As G.V. Kolshanskiy stated, the conceptual world picture, defined as a global image of the world, as a synopsis of knowledge structures (Ashurova, 2012), is reflected in individuals’ minds as a result of their intellectual activity. The conceptual world picture correlates with the language world picture; the latter is understood as an explicated world model with the help of various language means, as a language fixation of knowledge structures, and as a language representation of the world (Маслова, 2004). The language world picture

is a means of transferring information about the world, people, and their interrelation with nature (Телия, 1999). The notion of the language world picture, originally based on Humboldt’s conception of “language world vision,” has been further developed in many research studies (Колшанский, 1990; Сукаленко, 1992; Человеческий фактор в языке, 1988). The specificity of the language world picture as a subjective image of an objective reality lies in the fact that it reflects both individual and national experience (Ashurova, 2012).

Some scholars differentiate between the language world picture and the language national world picture; the former perpetuates general human experience, and the latter reflects the experience of a concrete national community. This differentiation, in our opinion, may be approved of only from the theoretical point of view. Practically, the language world picture and the language national world picture do coincide, specifying either universal or national human values. Everything depends on the approach or aim of a research. Accordingly, in every concrete case, the analysis is focused on general or nationally specific features (Ashurova, 2012).

The world picture is verbalized by all language means – lexicon, phraseology, language forms, and structures. However, a priority role is assigned to the text. It is in the text where all descriptive situations and evaluative attitudes to them find reflection. With regard to a literary text, it should be stressed that it is based on complex relationships of all-human, national, and individual components, thus reflecting particular conceptual structures and cognitive processes of the author’s individual world picture (Ashurova, 2012).

Among the main objectives of linguoculturology, V.V. Krasnykh distinguishes the study of culture by means of and on the basis of the language oppositions of culture that are fixed in language and being shown in a discourse. However, the main task of a linguoculturology, according to V.V. Krasnykh, is to research and describe the national and cultural space through the prism of language and discourse and also through the study of the cultural background of communicative space. The national cultural space “includes all existing and potentially possible ideas of cultural phenomena among members of national and cultural communities” (Гудков, Красных, 1988).

Language is accepted as an object of linguoculturology; however, it does not act as a system of purely formal linguistic rules and categories but as reflection and culture fixing, as part of social memory, and as a set of cultural values making an approximate basis not only for speech but also for informative activity (Леонтьев, 1993. С. 45–67). Certainly, the object of linguocultural research also includes the culture studied through a prism of language, included in a language context.

Linguoculturology studies national-cultural semantics of language units and aims at revealing national, cultural peculiarities of language units. In a word, it is the aspect of linguistics that studies the problem of the reflection of national culture in language. Despite the fact that linguoculturology is a new trend in linguistics, there are different approaches and aspects: phraseological (Телия, 1999), conceptological (Вежбиёкая, 1966), lexicographical (Степанов, 1997), and linguodidactical (Верещагин, Костомаров, 1983).

An extremely significant role in the world picture representation is assigned to culture-relevant language units – linguoculturemes. Linguocultureme is a complex, interlevel language unit, a dialectical unit

of both linguistic and extralinguistic factors, the correlation between the form of a verbal sign, its semantic content, and cultural sense (Воробъев, 2008). Linguoculturemes can be presented by a great variety of language forms, including words, word combinations, syntactical structures, text fragments, and even the whole text. The sources of cultural information in a linguocultureme are specific to each culture: realia, outstanding people, myths, images, beliefs, customs, and traditions).

Accordingly, linguoculturemes can be presented by non-equivalent lexicon, anthroponyms, mythologemes, phraseological units, paroemia, speech forms of etiquette, image-bearing means, etc.

#### References

1. Аскольдов С. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. Под ред. В. Н. Нерознака. М.: Academia, 1997. – С. 267–279.
2. Шутова Д. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистики // Филология масалалари. Ташкент, 2003, №1. – С. 41–45.
3. Ашурова Д. Стилистическое направление в лингвокультурологии // Язык и Культура. Тез. докл. III Междунар. науч. конф. 23–25 сентября. – М.: 2005. – С. 112–113.
4. Болдырев Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2001. – 123 с.
5. Васильева В. Текст в культуре и культура в тексте // Фактическое поле языка: памяти проф. Л.Н. Мурзина. – Пермь, 1998. – С. 19–24.
6. Верещагин Е., Костомаров В. Язык и культура: Фоновые особенности ономастической лексики: Лингвострановедение в преподавании рус. яз. как иностр. Метод. рук-тво. - 3-е изд. – М.: Русский язык, 1983. – 269 с.
7. Воркачев С. Счастье как лингвокультурный концепт. – М.: Гнозис, 2004. – 236 с.
8. Воробъев В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Академия, 2008. – 331 с.
10. Горбунова Е. Лингвокультурный комментарий прецедентных феноменов в англоязычном художественном тексте: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Самара, 2008.

Sohiba G'OIPOVA,  
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

## KORPORATIV IMIJ KONSEPSIYASINI TADQIQ ETISHGA DOIR YONDASHUVLAR

**Annotatsiya.** Korporativ imij konsepsiyasi zamonaviy kommunikatsiya nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin tutib, tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash va strategik maqsadlarga erishishda yetakchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tushunchaning nazariy asoslarini tahlil qilish orqali uning genezi, evolutsiyasi va zamonaviy talqinlarini aniqlash, shuningdek, turli ilmiy maktablar va yo'nalishlarning yondashuvlarini qiyosiy o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

**Kalit so'zlar:** imij, korporativ imij, PR-kommunikatsiyalar, ommaviy axborot vositalari, korporativ kommunikatsiyalar, kompaniyaning kommunikativ strategiyasi, korporativ nufuzni boshqarish, xavfsizlik mexanizmi.

**Annotation.** The concept of corporate image holds a significant position in modern communication theory and practice, being recognized as one of the leading factors in ensuring organizational competitiveness and achieving strategic goals. Through analyzing the theoretical foundations of this concept, it becomes possible to identify its genesis, evolution, and modern interpretations, as well as to conduct a comparative study of approaches from various scientific schools and directions.

**Keywords:** image, corporate image, PR communications, mass media, corporate communications, company's communication strategy, corporate reputation management, security mechanism.

**Аннотация.** Понятие корпоративного имиджа занимает важное место в современной теории и практике коммуникации и признается одним из ведущих факторов обеспечения конкурентоспособности организаций и достижения стратегических целей. Анализируя теоретические основы этой концепции, можно определить ее генезис, эволюцию и современные интерпретации, а также провести сравнительное исследование подходов разных научных школ и направлений.

**Ключевые слова:** имидж, корпоративный имидж, PR-коммуникации, СМИ, корпоративные коммуникации, стратегия коммуникации компании, управление корпоративной репутацией, механизм безопасности.

Korporativ imij konsepsiyasini tadqiq etishga doir ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, bu sohada fanlararo va kross-funksional ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu metodologik yondashuvlar turli ilmiy maktablar vakillari va tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, har biri korporativ imijning o'ziga xos ontologik va epistemologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotchilar taklif etgan har bir konseptual yondashuv korporativ imijning muayyan aspektini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi va shu orqali ushbu fenomenni yanada kompleks tushunishga hissa qo'shadi. Bunday plyuralistik yondashuvlar korporativ imijni turli epistemologik paradigmalarda doirasida o'rganish va uning tashkilot faoliyatidagi strategik ahamiyatini har tomonlama baholash imkonini yaratadi.

Ana shunday yondashuvlardan biri avstraliyalik tadqiqotchi Grem Dauling 198-yili taklif etgan funksional yondashuv hisoblanadi. Ushbu nazariy model korporativ imijni uch asosiy unsurining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab konstruksiya sifatida talqin etadi. Dauling o'z asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Korporativ imij – tashkilotning ichki mohiyati (korporativ shaxsiyat), tashqi qiyofasi (korporativ o'ziga xoslik) va jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi (korporativ reputatsiya) o'rtasidagi o'zaro murakkab aloqadorlikning natijasidir".

Dauling modeliga ko'ra, "korporativ shaxsiyat" tashkilotning ichki mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. U tashkilotning qadriyatlarini, falsafasi va

maqsadlarini o'z ichiga oladi. Korporativ nufuz (reputatsiya) esa tashkilot haqida jamoatchilik va manfaatdor tomonlar orasida shakllangan umumiy fikr va baholarni aks ettiradi. Korporativ o'ziga xoslik tashkilotning vizual va kommunikativ elementlarini qamrab oladi. Dauling o'z tadqiqotida bu uch komponentning o'zaro bog'liqligini alohida ta'kidlaydi, ya'ni korporativ shaxsiyat, nufuz va o'ziga xoslik bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi elementlar bo'lib, ularning uyg'unligi kuchli korporativ imijni shakllantiradi. Daulingning nazariy qarashlari korporativ imijni strategik boshqarish va rivojlantirish uchun konseptual asos yaratib, tashkilotlarga o'z imijini boshqarishda bu uch unurni muvozanatda saqlash va ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi.

Mazkur sohadagi impressiv yondashuv korporativ imij nazariyasida paradigmatic ahamiyat kasb etuvchi konseptual model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nazariy tizimni Devid Bernshteyn ilgari surgan bo'lib, korporativ imijni kompaniya haqidagi ko'p qirrali va turli manbalardan kelib chiqqan taassurotlar yig'indisi sifatida talqin qiladi. Uning "Kompaniya imiji va reallik: korporativ kommunikatsiyalarning tanqidiy tahlili" nomli monografik tadqiqotida batafsil ochib berilgan bu yondashuv korporativ imijni shakllantiruvchi manbalarni aniqlash-tirish va ularning o'zaro munosabatini o'rganishga qaratilgan. Bernshteyn o'z asarida quyidagi g'oyani ilgari suradi: "Korporativ imij – tashkilot haqidagi barcha taassurotlar va tasavvurlarning yaxlit yig'indisi bo'lib,



kompaniyaning kommunikativ strategiyasi va operasion xulq-atvori orqali shakllantiriladi”.

Bernshteyn modeliga muvofiq, korporativ imij asosan ikki fundamental faktor ta'sirida shakllanadi: kompaniyaning kommunikatsiya strategiyasi va uning institutsional faoliyati. Kommunikatsiya strategiyasi tashkilotning manfaatdor tomonlar (steykxolder, auditoriya) bilan o'zaro munosabatlar olib borish usuli, tarqatilyotgan axborot mazmuni (messej) va ularni yetkazish kanallarining to'g'ri tanlanishini o'z ichiga oladi. Tashkilot faoliyati (xulq-atvori) esa uning strategik qarorlari va operativ harakatlarining majmuasini nazarda tutadi. Bernshteyn bu borada quyidagicha mulohaza yuritadi: “Tashkilot faoliyati uning imijini shakllantiruvchi eng relevant manbadir. Jamoatchilik tashkilotning deklarativ bayonotlaridan ko'ra, uning real harakatlarga ko'proq e'tibor qaratadi”. Olimning bu yondashuvi tashkilotlar, kompaniyalarga o'z imijini samarali boshqarish uchun kommunikatsiya va faoliyat o'rtasidagi optimal balansni ta'minlashi zarurligini ta'kidlaydi.

Bernshteynning nazariy qarashlarini O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini bilish uchun “Uzbekistan Airways” milliy aviakompaniyasining faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin. 2018–2019-yillar davomida mazkur kompaniya o'z imijini optimallashtirish maqsadida bir qator deklarativ bayonotlar va marketing kommunikatsiyalarini amalga oshirdi. Jumladan, xizmat sifatini oshirish, yangi yo'nalishlar ochish va zamonaviy aviaparkni shakllantirish borasidagi strategik maqsadlar e'lon qilindi. Biroq jamoatchilik avvalgi tajribalarga tayangan holda bayonotlarni emas, real o'zgarishlarni kutardi. 2020–2021-yillar mobaynida esa kompaniya o'z faoliyatida (institutsional xulq-atvorida) sezilarli o'zgarishlar qila oldi. Boeing-787 Dreamliner tipidagi zamonaviy avialaynerlar xarid qilindi, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida xodimlar uchun maxsus trening dasturlari tashkil etildi, chiptalarni onlayn xarid qilish tizimi modernizatsiya qilinib, mobil ilova ishga tushirildi, yangi yo'nalishlar, xususan, Toshkent–Mumbay, Toshkent–Jidda kabi reyslar yo'lga qo'yildi, COVID-19 pandemiyasi sharoitida fuqarolarni vatanga qaytarish uchun maxsus reyslar tashkil etildi. Bu o'zgarishlar natijasida kompaniyaning imiji sezilarli darajada yuksaldi, deyish mumkin. Ijtimoiy media va ommaviy axborot vositalarida kompaniya haqida pozitiv fikrlar ko'paydi. Passajirlar oqimi oshdi va xalqaro reytinglarda kompaniyaning pozitsiyasi yuksalib bordi. Ushbu keys Bernshteynning nazariy qarashlari ahamiyatini empirik jihatdan ko'rsatib beradi. Zero kompaniyaning amaliy faoliyati uning imijini shakllantirishda eng maqbul manba bo'lib xizmat qildi.

Amerikalik Edmund Grey va britaniyalik olim Jon Balmerlar ilgari surgan strategik yondashuv korporativ imijni tashkilotning muhim strategik aktiv sifatida ko'rib chiqadi. Bu nazariy model korporativ imijni kompaniyalarning raqobatdagi ustunligini ta'minlovchi va uning

pozitsiyasini mustahkamlovchi integral unsur sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv korporativ imijni kompaniyaning uzoq muddatli strategik rejalashtirish jarayonining ajralmas qismi, tashkilot barqaror rivojlanishidagi muhim omil sifatida izohlaydi.

Grey va Balmer “Korporativ imij va korporativ nu-fuzni boshqarish” nomli tadqiqotlarida quyidagi fikrni ilgari suradilar: “Korporativ imij tashkilotning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy aktivdir”. Bu nuqtayi nazar korporativ imijning tashkilot faoliyatidagi strategik ahamiyatini ko'rsatib, unga boshqa moddiy aktivlar bilan bir qatorda, muhim resurs sifatida qarashni taqozo etadi. Ularning konseptual modeliga ko'ra, korporativ imij bir qator funksiyalarni bajaradi.

Birinchiidan, korporativ imijning differensiasiya funksiyasi tashkilotning, kompaniyalarning bozordagi o'rnini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega. Bu funksiya orqali kompaniya o'zining betakror xususiyatlarini namoyon etib, raqobatdoshlaridan ajralib turadi. Differensiasiya jarayonida korporativ imij tashkilotning o'ziga xos qadriyatlarini, madaniyati va falsafasini bozor ishtirokchilariga, auditoriyaga, aholiga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu funksiyaning samarali amalga oshirilishi natijasida iste'molchilar ongida kompaniya haqida ijobiy va o'ziga xos tasavvurlar shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, tashkilotga o'z mahsulot va xizmatlarini raqobatdoshlikdan farqlash imkonini beradi.

Ikkinchiidan, korporativ imijning qiymat yaratish funksiyasi tashkilotning moliyaviy samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu funksiya orqali kompaniya o'z mahsulot va xizmatlariga qo'shimcha qiymat baxsh etadi, natijada iste'molchilar nuqtayi nazaridan ularning umumiy qadri oshadi. Iste'molchilar nuqtayi nazaridan, kuchli imijga ega kompaniya mahsulotlari ko'pincha yuqori sifat, ishonchlilik va qo'shimcha qulayliklar bilan bog'liq holda qabul qilinadi. Bundan tashqari, kuchli imij kompaniyaning yangi mahsulot va xizmatlarini bozorga kiritishni osonlashtiradi, chunki iste'molchilar allaqachon mavjud ijobiy tasavvurlarga tayanadilar.

Uchinchiidan, korporativ imijning resurslarni jalb etish vazifasi orqali kompaniya zaruriy manbalarni, xususan, moliyaviy vositalar, inson salohiyati va aqliy mulkni o'ziga jalb qilish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Ijobiy va kuchli imij tashkilotni turli manfaatdor guruhlariga jozibali qilib ko'rsatadi va ularning e'tiborini qozonishga ko'maklashadi. Xususan, moliyaviy resurslarni jalb qilish nuqtayi nazaridan ijobiy imij sarmoyadorlar va moliya muassasalarining kompaniyaga bo'lgan ishonchini oshiradi. Oqibatda, tashkilot o'z faoliyat doirasini kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish va innovasion g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun zarur mablag'larga ega bo'ladi. Ijobiy imij iqtidorli va malakali mutaxassislarni jalb etishda ham muhim omil hisoblanadi. Nufuzli kom-

paniyada faoliyat yuritish ko'plab professionallar uchun maqbul tanlov sanaladi, zero bu ularning shaxsiy nufuzini ham oshirib, kasbiy istiqbollarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, korporativ imijning bozor ulushini kengaytirish funksiyasi orqali kompaniya o'z faoliyat doirasini yangi sohalarga yoyish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy va barqaror imij tashkilotga yangi geografik hududlarni o'zlashtirish yoki yangi mahsulot segmentlariga kirish jarayonida sezilarli afzalliklar yaratadi.

Beshinchidan, korporativ imijning inqirozlarni samarali boshqarish funksiyasi tashkilotlarga murakkab vaziyatlarda o'z nufuzini saqlab qolish va tezkor tiklanish imkoniyatini taqdim etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy imij kompaniyalarga turli xil favqulodda holatlarda o'zining ishonchliligi va barqarorligini namoyon etish imkonini beradi. Mazkur funksiya tashkilotlarning tashqi va ichki tahdidlarga samarali qarshi turishi, o'ziga xos "xavfsizlik mexanizmi" vazifasini bajaradi.

Grey va Balmer o'z nazariy qarashlarida korporativ imij kompaniyaning strategik boshqaruvida asosiy o'rin egalab, nafaqat tashqi, balki ichki kommunikasiyalarni ham nazarda tutishini ta'kidlaganlar. Bu korporativ imijning ikki tomonlama tabiatini ochib beradi: u bir vaqtning o'zida ham tashqi, ham ichki auditoriyaga ta'sir ko'rsatadi. Tashqi stejkxolderlar uchun u kompaniya haqidagi tasavvurlarni shakllantirsa, ichki auditoriya uchun korporativ madaniyat va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu esa korporativ imijni doimiy ravishda

monitoring qilish, baholash va takomillashtirib borish zarurligini nazarda tutadi.

Umuman, korporativ imij tushunchasini tadqiq etishga doir turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular bu murakkab fenomenni turli nuqtayi nazardan o'rganishga imkon beradi. Har bir yondashuv korporativ imijning ma'lum bir jihatiga e'tibor qaratadi va uni tushunishga o'z hissasini qo'shadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bu yondashuvlarning integrasiyalashgan holda qo'llanilishi korporativ imij tushunchasini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, korporativ imij tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: bu axborot qabul qiluvchi resipientlarning ongida shakllanadigan, tashkilot tomonidan maqsadli yoki stixiyali tarzda uzatiladigan axborot oqimlari natijasida yuzaga keladigan va resipientlarning tashkilotga nisbatan munosabatiga ta'sir ko'rsatadigan hissiy tasavvurlar va taassurotlar majmuasidir. Shu bilan birga, korporativ imij shakllanishida bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, imij resipientlar ongida – tashkilotning bu boradagi sa'y-harakatlaridan qat'i nazar – doimiy ravishda shakllanib boradi. Ikkinchidan, tashkilot haqidagi ma'lumotlarning uzatilishi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Uchinchidan, resipientlar qabul qilgan axborot har doim subyektiv ravishda emotsional baholanadi. To'rtinchidan, shakllangan imij resipientlarning tashkilotga nisbatan qarorlar qabul qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

Диляра БАЛИЧ,  
 Андрей КУЧИНСКИЙ,

старшие преподаватели Узбекского государственного университета мировых языков

## ВОЛШЕБНИЦА ЗЕМНОМОРЬЯ (к 95-летию со дня рождения Урсулы Ле Гуин)

**Аннотация.** Статья посвящена 95-летию со дня рождения американской писательницы Урсулы ле Гуин, даются данные о ее биографии, описывается ее творчество, в частности цикл о Земноморье, написанный в жанре фэнтези.

**Ключевые слова:** Урсула ле Гуин, фэнтези, цикл о Земноморье, писатель-фантаст, фэнтези-проза.

**Annotatsiya.** Maqola amerikalik yozuvchi Ursula Le Guin tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, unda yozuvchining tarjimai holi haqida ma'lumot beriladi, shuningdek, ijodi, xususan, fantaziya janrida yozilgan Yer dengizi haqidagi sikl tasvirlangan.

**Annotation.** The article is dedicated to the 95th anniversary of the birth of the American writer Ursula Le Guin, provides information about her biography, describes her work, in particular the Earthsea cycle, written in the fantasy genre.

**Keywords:** Ursula Le Guin, fantasy, Earthsea cycle, science fiction writer, fantasy prose.



*Поверьте, дети прекрасно понимают, что единорогов нет. Но они также прекрасно понимают, что книги про единорогов – конечно, если речь идёт о хороших книгах – это правдивые книги.*

«Правила жизни Урсулы Ле Гуин»,  
 опубликованные в журнале  
 “Esquire”, 2017

В истории мировой литературы можно выделить интересное явление: литературные произведения, которые изначально создавались для взрослой аудитории, становятся в конечном счёте классикой литературы для подрастающих поколений. Дети XX и XXI веков нередко знакомятся с произведениями, которые создавались именно для взрослой аудитории (например, прежде всего взрослым читателям адресовал своего «Конька-горбунка» П.П.Ершов). В истории мировой литературы XX века не так уж много произведений, предназначенных с самого начала подрастающему поколению – детям и юношеству.

Среди «юношеских бестселлеров» XX века особое место занимает знаменитая литературная сказка «Волшебник Земноморья» – роман, условно относимый к так называемому «жанру высокого фэнтези». Исследователь «жанра фэнтези» Т.Чернышева называет фэнтези «адетерминированной («не определяемой», «принципиально не опознаваемой до конца») моделью действительности, повествованием сказочного типа со многими посылками»,

«игровой фантастикой» [цит. по 1]. В то же время «высокое фэнтези» имеет и черты традиционной для второй половины XX века «эскапистской литературы». «Фэнтези – «волшебная история» – способ освобождения, побега из неблагоприятной действительности. Побег (*escape*) – значимая тема (...) многих трудов как заступников, так и критиков фэнтези. Фэнтези, бесспорно, – литература «эскапистская», бросающая вызов теперешнему бытию [2]. По нашему мнению, лучшему из фэнтези-циклов Урсулы Ле Гуин – циклу романов и повестей о Земноморье – более всего подходит следующее определение этого направления современной художественной литературы: «Мир фэнтези – это пропущенные через современное сознание и ожившие по воле автора древние мифы, легенды, сказания» [3].

Роман «Волшебник Земноморья», а также произведения, ставшие его продолжениями, были созданы известной писательницей из США Урсулой Ле Гуин. По мнению известного исследователя англо-американской прозы С.Гоголевой, «...»Высокое» эпическое фэнтези ('high fantasy') является наиболее востребованным и читаемым (среди других жанровых разновидностей фэнтези); (...) жанр отличается вниманием к психоло-

гической достоверности поступков и характеров героев; его авторы скрупулезно создают свой мир, стараясь дополнить его дополнительными атрибутами: картами, историей, родословными (правителей) и т.д. К этому течению и можно отнести Урсулу Ле Гуин с её романом «Волшебник Земноморья»...» [1].

Среди авторов фэнтези XX века – «... жанра сказочно-мифологической прозы приключенческого, как правило, характера, сложившегося в англоязычной литературе» [4] – выделяют ряд знаковых имён авторов, повлиявших на мировую художественную литературу в целом. Начинали работу на этом поприще преимущественно авторы-мужчины – очень разные в своём творчестве и в своих взглядах на «предназначение» фэнтези Роберт Говард, Говард Лавкрафт, Джон Рональд Руэл Толкин (Толкиен), Клайв Стейплз Льюис... Произведения этих авторов весьма несхожи, и можно утверждать, что каждый из них предложил для фэнтези собственный, оригинальный вектор развития. В середине XX века и в 60-е годы в мировой литературе фэнтези появляются и женские имена – достаточно назвать Мэри Стюарт, Ли Брэккетт, несколько позже Мэрион Циммер Бредли и Танит Ли. Но всё же среди авторов фэнтези, своим творчеством фактически изменивших мир художественной литературы, особенно выделяется имя писательницы Урсулы Ле Гуин (1829–2018).

Урсулу Ле Гуин невозможно назвать автором исключительно произведений фэнтези. Как автор-фантаст (а фэнтези рассматривается как часть «бесконечного материка фантастической литературы») Урсула Ле Гуин известна и как автор “science fiction” – «научной фантастики», признанный автор антиутопий... Она пробовала себя как писатель-экспериментатор и создавала постмодернистские тексты ещё до того, как в 80-е годы XX века постмодерн (постмодернизм) стал «мейнстримом», основным направлением современной мировой литературы; ей подвластны тайны «магического реализма», она создавала удивительные сказки для детей разного возраста. Помимо этого следует отметить её работы в качестве критика и литературоведа, философские эссе, тонкую лирику... Однако современные читатели, услышав имя писательницы, вольно или невольно вспоминают произведение, изменившее её судьбу и подарившее мировой литературе образ невероятного Земноморья.

Дочь известного учёного-антрополога и писательницы, дальняя родственница физика Роберта Оппенгеймера, юная Урсула Ле Гуин с детства проявляла интерес к художественной литературе и даже весьма конкретно – к фантастической прозе. «В пять лет Урсула научилась читать и писать, а в одиннадцать попыталась опубликовать своё первое фантастическое произведение в журнале «Astounding Science Fiction». Впрочем, рассказ не напечатали, чему Ле Гуин впо-

следствии была только рада... (...) Урсула была классическим «книжным ребёнком», погружённым в себя и свои фантазии. (...) Годы же обучения в средней школе запомнились Урсуле скорее прочитанными томами, чем общением со сверстниками: «Публичная библиотека Беркли стала моим пристанищем, половину жизни я проживала в книгах... В определённом смысле я в гораздо большей степени чувствовала себя как дома в Париже 1640 года или в Москве 1812-го, чем в Кембридже, штате Массачусетс, в 1948 году» [5].

Получившая в итоге степень магистра Колумбийского университета по средневековой французской и итальянской литературе Урсула Ле Гуин помышляла о серьёзной научной карьере, но страсть к творчеству в области фантастики всё же победила – в 1962 году состоялся её громкий дебют – была опубликована повесть «Апрель в Париже», которую сама писательница позднее иронически называла «меланхолическим фэнтези».

«История (моего) Земноморья началась в 1964 году, когда мной были написаны и изданы два первых рассказа. Ничего особенного в них не было; это, скорее, напоминало выпавший моряку шанс первым высмотреть в море парочку островов, но отнюдь не открытие нового мира. (...) Земноморье в этих рассказах уже существует, только мной оно ещё не исследовано. И кое-какие упомянутые там вещи – тролли, черная магия – никогда больше не появятся. Однако по одному элементу из каждой истории будет вплетено в сложную и таинственную структуру Земноморья в рассказе «Правило имен» – это магия, основанная на знании Истинных Имен...» [6, с. 7].

Всего цикл о Земноморье состоит из шести книг начиная с «Волшебника Земноморья» (1964–1968) и был продолжен романами «Гробницы Атуана», «На последнем берегу», «Техану», «На иных ветрах» и сборником рассказов «Сказания Земноморья». Также в «Историю Земноморья» входят ещё четыре рассказа: «Слово освобождения», «Правило имён», «Дочь Одрена» и «Свет домашнего очага».

Главный герой цикла произведений о Земноморье – великий волшебник, известный на островах Земноморья как Гед Перепелятник. В романах мы видим историю удивительно долгой жизни Геда, его мужания, годы обретения опыта и служения великому искусству магии, поиска учеников и просто людей, способных понять мятущую душу героя... «В цикле «Волшебник Земноморья» двойственность героя выражает идею о том, что в любом человеке в потенциале содержатся как положительные, так и отрицательные качества (...). Сочетание этих противоположных характеристик обуславливает сложность и неоднозначность характеров главных героев и их способность к развитию (в первую очередь через осознание героем как светлых, так и тёмных сторон своей личности)» [7].

Как уже было отмечено, Урсула Ле Гуин приходит в фэнтези-прозу тогда, когда другие авторы – Говард, Лавкрафт, Толкиен – сформировали каноны этого направления фантастики. Именно поэтому следует отметить, что Урсула Ле Гуин привнесла в свой цикл о Земноморье ряд идей, волновавших читателей в 60-е годы, «в эпоху Вудстока и хиппи»: психоанализ, стремление к полной, даже «пределной» творческой самореализации; интерес к восточной мифологии и мистике; интерес к феминизму. Задумав своё произведение как роман-трилогию, Урсула Ле Гуин ставила в центр повествования мага-мужчину – сначала юношу-ученика, затем мастера, затем почти всесильного, но уязвимого в своём неизбежном одиночестве патриарха... Но уже в первой книге у Урсулы Ле Гуин появляются яркие женские образы, а во второй книге трилогии появляются Ары – волшебницы, сначала антагонисты Геда, а потом его ученицы и последовательницы. В каждом из произведений о Земноморье женские образы становятся всё более значимыми...

В то же время писательница одной из первых подняла вопрос об опасности превращения фэнтези в исключительно развлекательную, «коммерческую литературу». «...Уже в 70-е годы XX в. «производство» фэнтези всё более подчиняется законам рынка – начинается эра «товарной фэнтези» (термин У. ле Гуин). В подавляющем большинстве «создаваемые в последние десятилетия произведения жанра носят сознательно эпигонский характер, повторяя известные образцы. Это не исключает, конечно, отдельных оригинальных или заметных в литературном плане явлений, но на базе этих явлений обычно быстро формируются новые шаблоны» [7]. К сожалению, сделанные Урсулой Ле Гуин прогнозы о судьбе литературы фэнтези во многом сбылись и в англо-американской фантастической прозе, и в мировой литературе на грани XX и XXI вв. в целом.



Однако именно творчество Урсулы Ле Гуин формирует канон нового, «гуманистического» фэнтези. Исследователи также подчёркивают, что «Волшебник Земноморья» – именно «женское» фэнтези (названо так по аналогии с небезызвестной «женской прозой»): «В работах, написанных женщинами, нет структурированной властной системы, а возможности героя не беспредельны, здесь герой чаще маг и гуманист, как у У.Ле Гуин» [1]. Особую привлекательность романам Ле Гуин придает именно стремление изобразить лучший мир, мир, в котором хотелось бы остаться, «...мир, который притягателен сам по себе».

Писательницы не стало в 2018 году; но её произведения интересны читателям, и цикл романов, повестей и рассказов «Волшебник Земноморья» продолжает привлекать к себе внимание подрастающего поколения: «Ле Гуин никогда не перестаёт удивлять и восхищать читателей вечным поиском новых форм, оставаясь при этом тонким художником и мыслителем, способным бесстрашно заглянуть в пропасть бытия и с мудрой улыбкой поведать о том, что она видела на краю мира» [8].

### Литература

1. Гоголева С.А. Другие миры: традиции и типология жанра фэнтези // Природные ресурсы Арктики и Субарктики, 2006, №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/drugie-miry-traditsii-i-tipologiya-zhanra-fentezi>
2. Наумчик О.С., Суркова К.В. Архетип культурного героя как основа образа Геда в цикле «Земноморье» Урсулы ле Гуин // МНКО, 2019, №4 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhetip-kulturnogo-geroya-kak-osnova-obraza-geda-v-tsikle-zemnomorie-ursuly-le-guin>
3. Эйдемиллер И.В., Лебедев А.Ю. Мир фэнтези // Звезда, 1993, №10.
4. Алексеев С.В. Фэнтези // Знание. Понимание. Умение, 2013, №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fentezi>
5. Луговская Т. Урсула Ле Гуин: какой она была // Мир фантастики, 2019. М., 2019. [Электронный ресурс]. / <https://www.mirf.ru/book/ursula-le-guin>
6. Ле Гуин У. Книги Земноморья: романы, повесть, рассказы, эссе / Пер. с англ. И.Тогоевой. СПб.: Азбука, Азбука-Аттикус, 2023.
7. Гоголева С.А. Философия жанра фэнтези // Природные ресурсы Арктики и Субарктики, 2014, №3 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofiya-zhanra-fentezi>
8. Криницкая Н.И. Музыка и танец в фантастических произведениях Урсулы Ле Гуин, 2013. Материалы XXXVII международных конференций Российского общества по изучению культуры США [отв. ред. канд. филол. наук. Л.Г.Михайлова]. М.: Факультет журналистики МГУ, 2013.

**Aziza ASLANOVA,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

## O'ZBEKISTONDA BRENDING ASOSLARI VA UNI TARG'IB QILISH

**Annotatsiya.** O'zbekistonda branding asoslari va uni targ'ib qilish masalasi mamlakat iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Brandingdan tashkilotlar va davlatlar tartibga solish va raqobatdek strategik instrument sifatida foydalanadi. Boshqa mamlakatlar bilan solishtirilgan tadqiqotlar brandingning samaradorligini oshirish va unga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada O'zbekistondagi branding usullari tahlil qilinadi, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga baho beriladi, qolaversa, brandingni rivojlantirishdagi muammolar hamda ularga yechim topish yo'llari qay etiladi. Branding usullarini amaliyotga tatbiq qilish va ixtisoslashtirilgan targ'ibot mexanizmlarini ishlab chiqish O'zbekistondagi raqobatbardosh muhitni yaxshilash va davlatning xalqaro bozordagi mavqeyini mustahkamlashga ko'maklashadi.

**Kalit so'zlar:** branding, targ'ib qilish, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston, muammolar, samaradorlik, strategiya.

**Annotation.** The topic of branding fundamentals and its promotion in Uzbekistan holds significant importance for the country's economic and cultural development. Branding is used as a strategic tool for regulation and competition, both for organizations and governments. Research conducted in other countries influences the enhancement of branding effectiveness and the formation of attitudes towards it. This article analyzes branding methods in Uzbekistan, evaluates their economic and social significance, and addresses existing problems in branding development, offering solutions. The implementation of branding strategies and the development of specialized promotional mechanisms will help improve the competitive environment in Uzbekistan and strengthen its position in the international market.

**Keywords:** branding, promotion, economic development, Uzbekistan, issues, effectiveness, strategy.

**Аннотация.** Тема основ брендинга и его продвижения в Узбекистане имеет важное значение для экономического и культурного развития страны. Брендинг используется как стратегический инструмент для регулирования и конкуренции, как для организаций, так и для государств. Исследования, проведенные в других странах, влияют на повышение эффективности брендинга и формирование отношения к нему. В статье анализируются методы брендинга в Узбекистане, оценивается их экономическое и социальное значение, а также указывается на существующие проблемы в развитии брендинга и возможные пути их решения. Применение брендинговых методов и разработка специализированных механизмов продвижения помогут улучшить конкурентную среду в Узбекистане и укрепить его позицию на международном рынке.

**Ключевые слова:** брендинг, продвижение, экономическое развитие, Узбекистан, проблемы, эффективность, стратегия.

So'nggi o'n yillikda notijorat biznes ajralib, mamlakat brendlari asosan sport, siyosat, turizm, madaniyat va notijorat segmentlarida keng tarqalganligi va ahamiyati oshganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, zamonaviy dunyoda madaniy va tarixiy meros ham haqiqiy milliy brendga aylangan.

O'zbekistonda brandingning rivojlanishi 1991-yilda SSSRdan mustaqillikka erishgandan so'ng boshlangan. Vaqt o'tishi bilan O'zbekiston kompaniyalari o'z brendlari yaratish muhimligini anglay boshladilar. Ayni paytda O'zbekistonning ko'plab kompaniyalari o'z brendlari mahalliy va xalqaro bozorlarda targ'ib qilmogda [1].

Britaniyaning Markaziy Osiyo bo'yicha yetakchi olimasi bo'lgan hamda London Universitetining Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS)ning ilmiy xodimi vazifasida mehnat qilgan Shirin Akiner milliy brandingni ikki turga ajratadi: pozitiv milliy brend va negativ milliy brendi. Bu har bir davlatda turli davrlarda uchradigan holatlardir. Olimaga ko'ra, "1990-yillardagi qisqa "asal oyi" davridan so'ng, G'arbning O'zbekistonga nisbatan munosabati, ehtimol, mamlakatning qat'iy mustaqil tashqi siyosati tufayli yomonlashgan.

O'zgarishlar bizga yangi davrni – "raqamli asrni" olib keldi va bu asr bizga tashkilot muammolarini hal qilishga imkon beradigan yangi usullarni taqdim etdi. Raqamli asrda tashkilot brandingiga juda ko'p afzalliklarni olib keldi, ammo agar brend tashkilot iste'molchilar bilan ijobiy munosabatlarga ega bo'lsa u juda qimmatli marketing vositasi evaziga bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda brend va brandingni targ'ib qilishda bir qancha tashkilotlar o'z faoliyatini yurita boshladi. Ular asosan kompaniya faoliyatini nafaqat O'zbekiston, balki MDH va Yevropa davlatlariga nufuzini oshirishga xizmat qilishadi.

Bu sa'y-harakatlar natijasi xalqaro kompaniyalarning O'zbekistonga qiziqish bildirayotganida ko'proq namoyon bo'ladi. Xususan, Mashhur brend hisoblangan Nike, ADIDAS, Apple, Netflix, INDITEX va boshqalar O'zbekistonda ishlab chiqarish quvvatlarini ochgan. Siyosatshunos Doniyor Ashimboyev mamlakatda iqtisodiy dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy sabablari sifatida bir nechta omillarni ko'rsatadi. Shulardan muhimlari "O'zbekiston dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biri. Toshkent yaxshi muhandislik bazasiga, yetarlicha kuchli texnik

ma'lumotga, yengil sanoat mutaxassislarini tayyorlash sohasida ma'lumotga ega" ekani va "juda arzon ishchi kuchi, harakatchanlik, mehnatga yo'naltirilgan mentalitet, amaliy intizom"ni ta'kidlaydi. "Toshkent Turkiston o'lkasining sobiq markazi Olmaotaga qaraganda ancha rivojlangan shahar bo'lgan, ammo boshlang'ich shartlari taxminan bir xil edi" [2] deydi u.

Makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (IMRI) mutaxassislari kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish kontekstida hududiy brending rolini o'rganishdi [3]. Ular ushbu yo'nalishlarning mashhurligini oshirishga hissa qo'shgan marketing kompaniyalariga bir nechta misollar keltirdilar. Misol uchun, ONLYLYON kompaniyasi Lion (Fransiya) shahrining xalqaro miqyosda xabardorligi va obro'sini oshirishga yordam bergan. Kampaniya logotipi – Arslon bo'lib, asta-sekinlik bilan hududning ramziga aylandi va Yevropaning turli aeroportlarida shaharning qush nigohidagi videosi namoyish etila boshladi.

Hududlarning muhim turistik salohiyati amalga oshirilmayotganligiga qaramay, O'zbekistonning ayrim kompaniyalari o'z brendlari mahalliy va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli targ'ib qilmoqda [4: 412]. Shuningdek, O'zbekiston boy madaniy merosga ega bo'lib, brending strategiyasini ishlab chiqishda bunga e'tibor qaratilishi lozim. Mamlakatimiz ko'plab buyuk olimlar, shoir va yozuvchilarning vatani bo'lib, ularning merosi umuminsoniy madaniyatni boyitdi [5]. Aynan bobokalonlarimiz ham mamlakatning imidji va milliy brendlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning ko'pmillatli xususiyatini aks ettiruvchi an'analarlar yana biri bu uning musiqasi, raqsi, rassomchilik faoliyati, amaliy san'ati, tili, oshxonasi, kiyim-kechaklarida mavjud. O'zbekistonning har bir hududining o'ziga xos turlari borki, ular milliy libos va mahalliy shevalarda yaqqol namoyon bo'ladi [6]. Shuningdek, milliy me'morchilik an'alarining ko'plab yodgorliklari Buxorodagi Somoniylar hukmdori Ismoil maqbarasi I (IX–X asrlar), Samarqandning XIV–XV asrlarda qurilgan yirik masjidlari va maqbaralari va boshqa ko'plab go'zal qabrlar, masjidlar, saroylar, hamda madrasalar borligini qayd etish mumkin [7]. Milliy brendlar mahalliy an'analar va qadriyatlarga namoyon bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, O'zbekiston boy madaniyat va tarixga ega mamlakat. Bu omil tashqi brending strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistondagi ko'plab kompaniyalar milliy brend yaratish va ilgari surish yo'llarini endigina tushuna boshladilar ammo, ularda bu borada tajriba biroz kamroq deb aytisak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda birinchi omil mamlakatimizda brendingga yo'naltirilgan sifatli ta'lim dasturlari va kurslari yetishmasligi va yetarli darajada rivojlanmaganligini keltirish mumkin. Kompaniyalar va marketologlar brending sohasida bilim va amaliy ko'nikmalarga cheklangan kirish imkoniyatiga duch kelishadi. Bunga asosiy sabablardan biri, O'zbekiston bozorini brending uchun katta byudjet va resurslarga ega bo'lgan jahon brendlari bilan yetarli darajada to'ldirilmaga-

nidadir. Bozor iqtisodiyotida brending kompaniyalarning yetarli darajada bo'lmaganligi, mahalliy kompaniyalarda tajriba etishmasligini keltirib chiqaradi. Shu sababli ular jaxon brendlari bilan raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Keyingi omil sifatida ko'pgina o'zbek kompaniyalarining byudjetda cheklanishlarning mavjudligi va milliy brendni rivojlantirish hamda ilgari surishda yetarli mablag'ga ega bo'lmashligi, nazarimizda. Aksariyat hollarda brendni yaratishda bozor tahlili va qisqacha bayoni, joylashishni aniqlash, brend platformasi, nomlash, korporativ identifikatsiya, aloqa strategiyalari, brendga oid adabiyotlar va yo'riqnomasini ishlab chiqish bilan boshlanadi [8]. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, O'zbekiston boy madaniyat va tarixga ega mamlakat. Bu omil milliy brending strategiyalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Cheklangan moliyaviy resurslar muammosi juda keng tarqalgan va bir nechta mumkin bo'lgan javoblarga ega. Bunda:

– **Strategik resurslarni taqsimlash:** O'zbekiston kompaniyalari milliy brendingni ilgari surishda o'zlarining moliyaviy resurslarini strategik taqsimlashdan boshlashlari mumkin. Bu brendingning eng ko'p qiymat keltiradigan sohasiga ustuvor ahamiyat berishni anglatadi. Misol uchun, ishni sifatli logotip va qadoqlash dizaynini yaratishdan boshlab, uni keyinchalik takomillashtirish (rebranding) mumkin.

– **Raqamli platformalardan foydalanish.** Onlayn aloqalar va ijtimoiy media ommabopligi oshishi bilan kompaniyalar o'z milliy brendlari yanada samaraliroq va tejamkorlik bilan targ'ib qilish uchun raqamli platformalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq. Bu veb-sayt yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lish va onlayn reklamani o'z ichiga olishi mumkin.

– **Hamkorlik.** Davlat tashkilotlari yoki xususiy kompaniyalar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin. Bunga qo'shma marketing kompaniyalari, tajriba yoki resurslarni almashish kiradi, bu esa milliy brending xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

– **Innovatsion yondashuvlar.** Ba'zida innovatsion yondashuvlar byudjeti cheklangan kompaniyalarga xalqaro maydonda harakatlanish va ajralib turishga yordam beradi. Bunga katta investitsiyalar kerak bo'lmasdan iste'molchilar e'tiborini jalb qiladigan tayyor g'oyalar va ijodiy yechimlar bo'lishi mumkin.

– **Ichki resurslarni o'qitish va rivojlantirish.** Kompaniyalar, shuningdek, ichki xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritishlari mumkin, shunda ular tashqi brending sohasida yanada malakali bo'lib, qo'shimcha tashqi resurslarga ehtiyoj sezmasdan milliy brend rivojlanishiga ko'proq hissa qo'shishlari mumkin.

Milliy brendingni rivojlantirishda jamoatchilik bilan aloqalar yordamiga murojaat qilmasdan, faqat standart to'g'ridan-to'g'ri reklama vositalaridan foydalangan holda munosabatlarni qurish va davom ettirish mumkin

emas, nazarimizda. Bugungi kunda aksariyat yirik kompaniyalar ham bunday deb o'ylamaydi. "Aloqalar tijorat muvaffaqiyatining kalitidir. Bugungi kunda brendlar nar-salar emas, balki munosabatlar atrofida qurilgan", deydi Ser Richard Branson. Masalan, Avon ko'krak sara-toniga qarshi kurash uchun har yili mablag' ajratadi. McDonalds esa bolalarga yordam fondini yaratgan [9].

Reklamalari odamlarning fikrini tom ma'noda o'zgar-tiradigan, ularni yangi yo'llar bilan harakat qilishga majbur qiladigan haqiqiy ajoyib reklama namunasiga aylangan Nike o'z missiyasini yanada aniqroq amal-ga oshirish uchun boshqa vositalardan foydalanadi. Xayriya dasturlari, sport tadbirlari, hatto sport haqida-gi musiqiy filmlarga homiylik qiladi. Bu PR faoliyatini-ning barchasi Nike kompaniyasining milliy brendingini rivojlantirishdagi reklama strategiyasining bir qismidir. Boshqa taniqli kompaniyalar ham xuddi shunday tarzda odamlar bilan munosabatlarni quradilar. Kommunikativ xabarlardagi izchillik, bitta g'oyaga sodiqlik, uzoq mud-datli ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlar tizimi orqali o'z missiyasini amalga oshirish, jamoatchilik e'tiborini tor-tadigan muntazam yorqin voqealar – bu brendga o'z tarafdorlari bilan mustahkam aloqalarni saqlashga yor-dam beradi.

Dunyoning yetakchi kompaniyalari shunchaki si-fatli mahsulotni taklif qilishning o'zi yetarli emasligini allaqachon tushunib yetishgan. Yorqin, taniqli tasvir-ga ega bo'lgan, iste'molchilar orasida his-tuyg'ularni uyg'otadigan xarakterga ega bo'lgan mahsulotni taklif qilish ham endi yetarli emas. Bugungi kunda bozorda uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun iste'mol-chilar uchun dolzarb, muhim va qiziqarli bo'lgan aktual mavzuni taklif qilishlari kerak.

Mamlakatimizda mazkur sohada ko'plab kompani-yalar milliy brending muhimligini endigina anglay bosh-ladilar. Ularning ba'zilari, masalan, "O'zbek paxtasi" va "Bukhara Silk" brending strategiyasini muvaffaqi-yatli qo'lladi va jahon bozorida tan olinadigan brendga aylandi.

Muayyan sohalarda, xususan, to'qimachilik sa-noatida brendingning ahamiyati oshdi. Sababi, O'zbekistonda to'qimachilik sanoati noyob madaniy va

tarixiy merosga ega ekanligini alohida ta'kidlash kerak, bu esa uni milliy brend sifatida rivojlantirishda ayniqsa muhim. Kiyim-kechak va to'qimachilik nafaqat tovar, balki o'zbek madaniyati va san'atining tashuvchisiga ham aylanishi mumkin. Sa'y-harakatlar tufayli atlas va adras matolari brending jahon e'tirofiga sazovor bo'l-gan o'zbek brendlariga misol bo'la oladi. Ushbu yo'na-lish jahon to'qimachilik va kiyim-kechak bozorida taniqli brendlarga aylandi. Bu orqali O'zbekiston mahsulotlari jahon bozoriga muvaffaqiyatli eksport qilishda milliy brending asosiy omil bo'lishi mumkinligini ham ko'rsa-tadi. Taniqli brendlar orqali ko'proq xorijiy iste'molchilar va investorlarni jalb qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "O'zbek paxtasi" va "Buxoro ipagi" namunalari boshqa tarmoqlardagi kompaniyalar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi, bu esa xa-bardorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun tashqi brending strategiyalarini qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu muvaffaqiyatli o'zbek milliy brendlari mamlakat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkinli-gini alohida ta'kidlash zarur.

Puxta o'ylangan brending strategiyasi jamoatchilik-ning maqsadli guruhlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mam-lakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda kuchlarni mam-lakat brendini shakllantirish hamda uni amaliy ravishda amalga oshirishni ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvat-lashni rivojlantirishga, mavjud manbalar va O'zbekiston shaharlaridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisob-ga olgan holda jamlash zarur. O'zbekistonda tarixiy shaharlarning jozibali brendlarining yaratilishi investor-lar va sayyohlar uchun mamlakatning umumiy qiyofasi-ga hamda hududlarning jozibadorlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, natijada umuman mamlakat iqtisodiyoti o'sishiga yordam beradi .

Shunday qilib, milliy brendning yangi asl maqsadi ja-hon miqyosida yuqori darajadagi xabardorlikni saqlash-dir. Bundan tashqari, foydalanuvchining/sayohatchi-ning brend imidjidagi jihati, foydalanuvchi brendni tahlil qilganda paydo bo'ladigan assotsiatsiyalar orqali tahlil qilinishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekistan//Material iz Vikipedii// <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD> // o'tredaktirovana 15-avgusta 2023//.
2. Nima uchun brend firmalar O'zbekistonda tanlamog'da? - Review.uz - Review.uz. Murojaat sanasi: 23.11.2024.
3. Matn: Avazbek Xudoyqulov// kreativ-iqtisodiyot-kontekstida-hududiy-breningning-ahamiyati-qanday // <https://yuz.uz/uz/news/5/Xomidov-Qaxxoralii-iyul-2023>.
4. Hududlarda Turistik Majmualar Faoliyatini Shakllantirish Va Tizimli Boshqarish Asosida Hududlar Turistik Salohiyatidan Samarali Foydalanish Masalalari//412-445// v-412.
5. Nation Branding, Social Classes and Cultural Heritage in Uzbekistan// <https://cabar.asia/en/nation-branding-social-classes-and-cultural-heritage-in-uzbekistan> // [Elektron resurs].
6. Culture of Uzbekistan/ Advantour// <https://www.advantour.com/uzbekistan/culture.htm> // [Elektron resurs].
7. Cultural life// The Editors of Encyclopaedia Britannica// <https://www.britannica.com/place/Uzbekistan> // [Elektron resurs]//
8. Doing Business in Uzbekistan Deloitte Uzbekistan// [https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/kz/Documents/uzbekistan/KZ\\_Doing\\_Business\\_in\\_Uzbekistan\\_2019.pdf](https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/kz/Documents/uzbekistan/KZ_Doing_Business_in_Uzbekistan_2019.pdf) //2019/ [Elektron resurs]//.
9. Rol PR v brendinge//Psixologiya i biznes// Irina Kuminova // <https://psycho.ru/library/1357> // [Elektron resurs]//.



Sherzod ATAMURADOV,  
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## O'ZBEK-TURK MULOQOT MADANIYATIDA TAQLID SO'ZLAR PRAGMATIK TO'SIQQ SIFATIDA

**Annotatsiya.** Maqolada taqlid so'zlar o'zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida tahlil etilgan. Taqlidlarning milliy-madaniy til birligi tarzidagi o'ziga xos xususiyatlari, tarjimonning individual strategiyasi, tarjima va asliyat tilini mukammal bilmaslik bilan bog'liq holatlar pragmatik to'siqqa sabab bo'lishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ to'siq, kommunikant, muloqot, taqlid so'zlar, muallif akti, tarjima akti.

**Annotation.** The article is focused on the analysis of imitative words as means creating pragmatic barrier in Uzbek-Turkish communicative cultures. It is stated that the factors such as imitations which include specific national-cultural language units, translator's individual strategy, as well as the cases when a translator does not have a good command of the source and target languages may cause pragmatic barriers.

**Key words:** communicative barrier, communicant, communication, imitative words, author's act, translation act.

**Аннотация.** В статье анализируются подражательные слова как средство создания прагматического барьера в узбекско-турецкой коммуникативной культуре. Указывается, что такие факторы, как подражания, включающие в себя определенные национально-культурные языковые единицы, индивидуальная стратегия переводчика, а также случаи, когда переводчик не владеет в достаточной степени исходным и целевым языками, могут стать причиной возникновения прагматических барьеров.

**Ключевые слова:** коммуникативный барьер, коммуникант, коммуникация, подражательные слова, авторский акт, акт перевода.

O'zbek va turk tillari vakillari o'rtasidagi muloqotda, turk tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan turk tiliga qilingan turli xarakterdagi matnlar tarjimasida, diplomatik doira vakillarining o'zaro rasmiy muzokaralari chog'ida, turk tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida nutqiy faoliyat bilan bog'liq turli kommunikativ-pragmatik to'siqlarga duch kelinadi. Mazkur to'siqlar kam ahamiyatli muammolar bilan bir qatorda, salmoqli hamda munosabatlarga putur yetkazuvchi holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'zbek-turk muloqot madaniyatida nutq vaziyatidan kelib chiqadigan kommunikativ to'siqlar, bunga sabab bo'layotgan lisoniy va nolisoniy omillarni aniqlash, ularga ilmiy-amaliy baho berish, muammolar yechimi yuzasidan chora-tadbirlarni joriy qilish orqali yuqoridagi holatlarning bartaraf etilishiga erishiladi. Shu tariqa mazkur tadqiqot natijalari pragmatik lingvistik, komparativistik lingvistik, turkologiya, madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik singari tilshunoslik hamda unga yondosh sohalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zbek-turk muloqotida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan biri taqlid so'zlardir.

Taqlid so'zlar dunyoning barcha tillarida mavjud bo'lgan lisoniy birliklar sanaladi. Ular tabiatdagi biror tovush yoki holatni tilda qayta ifodalash orqali yuzaga keladi. Taqlid so'zlar tabiat hodisasining ayni ifodasi bo'lmay, "...borliqdagi turli jonli va jonsiz predmetlar, narsa va hodisalarning tabiiy obraz va tovushlarining taxminiy ifodasi" [5: 217] hisoblanadi. Taqlid so'zlar tilning tovush yoki holatni ifodalash kuchi orqali namoyon bo'ladi va uning o'ziga xos fonetik tabiatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, taqlid so'zlar tillarda bir xil fonetik

tarkibga ega bo'lmaydi. Tillardagi bunday noo'xshashliklar kommunikativ faoliyatda turli darajadagi pragmatik holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Mavzuning tadqiq qilinishi muammoni idrok etish va muloqot samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzab hisoblanadi.

O'zbek va turk tillarida taqlid so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turk tilshunosligida taqlid so'zlar *undovlar* (ünlem) tarkibida *taqlidiy undovlar* (yansima ünlemleri) sifatida o'rganiladi va ularga quyidagicha ta'rif beriladi: "Taqlidiy undovlar tabiatdagi tovushlarni aks ettiruvchi va hayvonlar ovozigacha taqlid etishga asoslangan so'zlardir" [3:199]. O'zbek tilshunosligida esa ularga alohida olingan so'z turkumi sifatida qaraladi. Sababi, "taqlid so'zlar lug'aviy ma'no anglatmasligi, maxsus sintaktik shakllarga ega emasligiga ko'ra mustaqil so'z turkumlaridan, so'zlar o'rtasidagi munosabatni bildirmasligiga ko'ra yordamchi so'zlardan, emotsional-ekspressiv xususiyatlarga ega emasligiga ko'ra undovlardan farq qiladi" [1: 142-143].

Yuqorida ta'kidlanganidek, taqlid so'zlar tabiiy tovush yoki obrazning aynan ifodasi emas. Shu jihatdan ushbu birliklarning fonetik tarkibi tillarda o'zaro farqlanadi. Masalan, itlar dunyoning istalgan yerida bir xil ovoz chiqarishiga qaramay, bu tovush o'zbek tilida "vov-vov", rus tilida "gav-gav", turk tilida "hav-hav", ingliz tilida "bow-wow", "woof-woof", xitoy tilida "wang-wang" tarzida kodlanadi.

O'zbek va turk tillari bir oilaga mansub qarindosh tillar hisoblanadi. Ular grammatik jihatdan umumiy asos va mushtaraklikka ega. Tillarning o'zaro yaqinligi ularni xorijiy til sifatida o'rganish, o'zlashtirishni osonlashtira-

di. Hatto maxsus til bilimiga ega bo'lmay turib ham, bu ikki til sohiblarining o'zaro muloqotida kommunikativ munosabat muayyan darajada amalga oshadi. Ya'ni o'zbek va turk tili vakillari kundalik masalalarda bir-birini anglab, aloqa-aralashuvga kirisha oladilar. Shu nuqtayi nazardan ushbu tillar vakillarining o'zaro muloqotida bir qator taqlid so'zlarning ma'nosini tushunish oson kechadi. Masalan, chaqaloq ovozi "ingaa – ingaa" taqlidi orqali, qanot ovozi "pir – pir" taqlidi orqali, mushuk ovozi "miyov – miyav" taqlidi orqali, sigir ovozi "mo' – mö" taqlidi orqali har ikki tilda bir xil ifodalanadi va tillar vakillarining perseptiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bu esa, o'z navbatida, "Turk va o'zbek tillari aslida alohida, mustaqil til emas, ular bir tilning lahjalaridir", "Turk tilini alohida xorijiy til sifatida o'rganish shart emas", "Turk tilini qisqa fursatda to'liq o'zlashtirib olish mumkin", "O'zbekcha so'zlarni turkcha talaffuzga moslashtirish kifoya, til tushunarli bo'laveradi", "Talaba boshqa tilni o'zlashtirmayaptimi, uni turk tili guruhiga o'tkazing, o'qib ketadi", "Turk tilini bilasiz?! Boshqa yaxshiroq, qiyinroq til o'rgansangiz bo'lmaydimi?" singari turli fikr va qarashlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Umumiy asos va mushtaraklik omili ta'sirida shakllangan yuqoridagi fikr-mulohazalardan farqli o'laroq, bugungi kunda o'zbek va turk tillarini alohida, mustaqil tillar sifatida baholash, ularga shu asosda yondashish zarur. Boisi, ko'p yillar mobaynida bir-biridan uzoq hududlarda, farqli tillar bilan yonma-yon rivojlangan hozirgi o'zbek va turk tillari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Tafovutlarning kelib chiqishi, bir tomondan, tilning ichki rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sirga aloqadordir. Muayyan lisoniy hodisaning (masalan, singarmonizm) tillarda saqlanib qolgani yoki saqlanib qolmagani, leksik birliklar ma'no mundarijasining o'zgarishga uchrangani, ayrim ma'nolarning faollashib, ayrimlarining passivlashgani, bir-biridan farqli tillardan (masalan, o'zbek tili rus tilidan, turk tili G'arbiy Yevropa tillaridan) o'zlashmalar qabul qilgani va o'zlashmalarining qabul qilib olinayotgan tillardagi ma'no ko'lami bir xilda emasligi, milliy-madaniy o'ziga xosliklar, tezaurus farqi kabi bir qator omillar mazkur tafovut manbaya hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, tillar o'rtasidagi farqlar diskursiv faoliyatda pragmatik to'siqning asosi bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi jadval orqali keltirilgan o'zbek va turk tili taqlidiga xos muqobil juftliklar fikrimizni tasdiqlaydi:

Turk tilida	O'zbek tilida
cayır cayır	chars-churs, chirs-chirs
civil civil	chug'ur- chug'ur
çat	qars, qirs
çatır çatır	chars-churs, chirs-chirs
çıt	tiq
fokur fokur	vaqir-vuqur

güm güm	duk-duk, gup-gup, gurs-gurs
hav hav	vov-vov
ışıl ışıl	yal-yal
mışıl mışıl	pish-pish (pishillab)
parıl parıl	yal-yal
pırıl pırıl	yalt-yult
şak şak	qars-qars
şakır şakır	shitir-shitir, chug'ur-chug'ur
şap şap	cho'lp-cho'lp; tap-tap
şapır şupur	chalp-chulp, cho'lp-cho'lp
tik tak	chiq-chiq
vak vak	g'aq- g'aq

Taqlid so'zlar tovush yoki holatning taqlidiy ifodasi bo'lgani uchun kommunikantlar nutqida turlicha qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, Aziz Nesin qalamiga mansub "Şimdiki Çocuklar Harika" romanida quyidagicha matn keladi:

"Öğretmenin karşısındaki provada, topuğumu boyuna yere vurmaktan, ayakkabımın bir çivisi gevşeyip ucu dışarı çıkmış. Ben -Hey deyip de olanca hızımla ayağımı yere vurunca, o çivinin sivri ucu **hart** diye topuğuma girdi" [4:22].

Yuqoridagi muallif aktida tovushga taqlidni ifodalovchi "hart" (birdan va qattiq tarzda) taqlid so'zi qo'llanilgan. Mazkur asarning Miad Hakimov tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimasida esa quyidagicha:

"Boya o'qituvchi bilan repetitsiya qilayotganimizda poshnadagi mix joyidan ko'chgan ekan, bilmabman. O'sha mix shu topda **shart** etib tovonga kirib ketsa bo'ladimi?!" [7:11]

Tarjima aktida "shart" taqlid so'zi qo'llanilganini ko'ramiz. Aslida, turk tilidagi "hart" taqlidining o'zbek tilidagi muqobili "g'arch" hisoblanadi. "Shart" taqlid so'zi esa "tez va keskin" tarzda yuz bergan holatni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Shunga qaramay, bu o'rinda tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ta'kidlash joiz. Tarjima matni o'quvchiga holat yuzasidan to'g'ri tasavvur bera oladi.

Ko'rinadiki, taqlid so'zlarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tovush yoki holatga taqlidning tillararo o'zaro farqlanishi ba'zan muloqot jarayonida, tarjima faoliyatida kommunikativ to'siqni keltirib chiqaradi:

"Yanımda adı anıldıkça yüzümü ekşitiyor, yeni öğrenmeye çalıştığım Türkçe kelimelerle "Hüseyin pis, Hüseyin çirkin, edepsiz... Ööö," diye yere tükürüyordum" [2: 22].

Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanidan olingan yuqoridagi parcha tarjimada quyidagicha aks etgan:

"Oldimda nomi tilga olingan hamono yuzimni teskari o'girib olar, men endi-endi o'rgana boshlagan turkcha

soʻzlar bilan: “Husayn pis, Husayn chirkin, edepsiz... oo”, – deb yerga tupurardim” [6: 17].

Turkcha matnda kelgan “ööö” taqlidi, alifbo farqi tu-fayli boʻlsa kerak, tarjimada “oo” tarzida aks ettirilgan. Shuningdek, “Husayn pis, Husayn chirkin, edepsiz... oo” jumlasini havolada “Husayn yomon, Husayn yaramas, adabsiz... oo” deb oʻgirilgan / izohlangan. Tarjima aktida “oo” taqlidi orqali aynan qanday propozitiv maʼno ifodalanayotgani aniq emas, qolaversa, muallif aktida “ööö” taqlidi orqali berilgan “oʻxchish” holati anglashil-may qolgan. Nazarimizda, tarjimada soʻzlovchining afti burushganini (yüzü ekşimek) taʼkidlash, “oʻoʻh” taqli-didan foydalanish kitobxon-kommunikantning holatni toʻgʻri va aniq tasavvur qilishiga yordam beradi.

Koʻrilganidek, tillararo va madaniyatlararo yaqinlik oʻzbek-turk muloqot madaniyatiga ikki jihatdan taʼsir koʻrsatadi: bir tomondan muloqot subyektlari uchun qu-laylik tugʻdirib, kommunikativ faoliyatning samarali ke-chishini taʼminlasa, ikkinchi tomondan, differensial holat va xususiyatlar asosida pragmatik toʻsiqni hosil qiladi. Oʻzbek-turk muloqotining samaradorligini taʼminlash, taqlid soʻzlar bilan bogʻliq kommunikativ toʻsiqlarning oldini olish uchun oʻzbek va turk tillaridagi taqlid soʻz-larning ikki tilli lugʻatini tuzish, oʻzaro muloqotda interfe-rensiyaga yoʻl qoʻymaslik, tilga oid bilim va koʻnikmalar-ni muntazam ravishda mukammallashtirib borish talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaboyev X., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi: oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Tafakkur boʻsto-ni, 2015.
2. Guntekin R. Çalıkuşu. – İstanbul: İnkılap Kitabevi Baskı Tesisleri.
3. Hengirmen M. Türkçe Temel Dilbilgisi. – Ankara: Engin Yay., 2006.
4. Nesin A. Şimdiki Çocuklar Harika. – İstanbul:
5. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi: oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Guntekin R. Choliqushi. Turkchadan Mirzakalon Ismoilij tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
7. Nesin A. Gʻaroyib bolalar. Turk tilidan Miad Hakimov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2006.

Gulhayo TOLIBOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi  
fakulteti birinchi bosqich magistranti

## ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR BILAN ISHLASH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy dasturlar, ularning afzalligi PIRLS va PISA misolida yoritiladi. Shuningdek, yangi ona tili darsliklari xususida ham ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** PIRSL, PISA, matn, kompetensiya, o'qish, o'qib tushunish.

**Annotation.** This article discusses modern programs and their advantages, illustrated by programs like PIRLS and PISA. It also covers the new native language textbooks.

**Keywords:** PIRLS, PISA, text, competence, reading, reading comprehension.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные программы и их преимущества на примере PIRLS и PISA. Также представлена информация о новых учебниках по родному языку.

**Ключевые слова:** PIRLS, PISA, текст, компетенция, чтение, понимание прочитанного.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyo nafaqat davlatlar, balki insoniyat zimmasiga ham kunning dolzarb muammolarini qo'yish bilan birga, ularning ijobiy yechimini ham talab qilmoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishda mamlakatdagi bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, fikrimizni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, insonning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi tizimini rivojlantirishiga oid farmonida [1] umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishning sifat jihatidan yangi daraja va usullarini joriy etish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi ta'lim standartlarini qo'llash, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash orqali ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, o'quvchi yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq:

– o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment – PISA);

– boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

– o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study – TIMSS);

– rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kirishildi [2].

Bu urinishlarning natijasi o'laroq, O'zbekiston ilk bora 2021-yili o'tkazilgan PISA xalqaro dasturida ishtirok etdi. PISA o'quvchilarning o'qish (matn tushunish), tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan dastur bo'lib, yoshlarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotda qay darajada qo'llay olishlarini aniqlashni maqsad qilgan. PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni xalqaro baholash assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Boston kollejiga (Massachusetts, AQSh) yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlar Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida tayyorlanadi. Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan [3: 8].

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida amalga oshiriladi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shu bois bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi matn mazmunini anglaydi, ma'nosini chaqadi (shu sababdan bu jarayon konstruktiv – inglizcha “construct” – yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qat-

nashuvchisi bo'lib, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab, qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda tuzilgan bo'lib, o'quvchi uni sharhlashiga imkon beriladi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjat va gazetalar, qo'llanmalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS dasturi asosida shakllantirilgan matnlar badiiy matndan estetik ma'lumot olish, shuningdek, ulardan foydalanishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oya va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi [3: 11].

Mazkur dastur asosida so'nggi yillarda til ta'limiga doir kamchiliklar bartaraf etilib, yangi – zamon talablariga monand, aynan PIRLS dasturi asosidagi darslik va qo'llanmalar yaratilyapti. Bundan maqsad – o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil fikrga ega va o'z qarashlarini erkin ifodalay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash bilan birga, yozma va og'zaki tarzda fikr ifodalashda grammatik bilimlarning vazifasini ko'rsatishdir.

Har qanday fikrni ifoda etishda grammatikaning ahamiyatini ta'kidlash zarur. Ma'lumki, til ta'limi ikki muhim kompetensiyani qamrab oladi: nutqiy va lingvistik. Til o'rganish uchun tuzilgan dastur-darsliklarda ham shu ikki kompetensiyalarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun mazkur ishlar ta'limning quyidagi to'rt tarkibiy qismini ko'zda tutadi.:

- tinglab tushunish (tinglangan audiomatndagi asosiy axborotni tushunish);
- gapirish (og'zaki so'zlashuvni, o'z fikrlarini og'zaki shaklda bildira olish);
- o'qib tushunish (adabiy-badiiy – ommabop materiallarni o'qib mulohaza yuritish, munosabat bildirish);
- yozish (diktant, bayon, insho, rasmiy ish qog'ozlarini yoza olish ko'nikma-malakalarini shakllantirish).

Nutqiy kompetensiyalar ahamiyatiga ko'ra faol (gapirish va yozish) va nafaol (o'qib va tinglab tushunish)ga bo'linsa-da, nafaol nutqiy kompetensiyalar ham aslida aktivdir. Bu kompetensiyalar orasida o'qib tushunish boshqalariga nisbatan yetakchi, desak xato bo'lmaydi. Negaki u yangi axborot olish va lug'at boyligini oshirish, nafaol so'zlarni faolga aylantirishning muhim vositasidir.

O'qish va o'qib tushunish mohiyatan bitta hodisani anglatrsa-da, aslida ularda ikki xil holat mavjud. O'qish – biror tilga oid matnni shu tilning talaffuz me'yorlariga, intonatsion qoidalarga, sintagmatik prinsiplariga amal qilish orqali bajarilgan faoliyatdir. U ham o'qib tushunish kabi muntazam davom etadi. Mazkur jarayonda so'zlarni qo'shib jummalarni to'g'ri va ravon o'qish, umumlashtiruvchi so'zga, uyushiq bo'laklarga

e'tibor qaratish, gapning ajratilgan bo'laklari, kiritma va undalmalarni talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda o'qish tushuniladi. Bu holat tilni o'rganishning quyi (A) bosqichidan yuqori (C) bosqichigacha konussimon spirral ko'rinishida davom etadi.

O'qib tushunish esa undan keyingi murakkab bosqich hisoblanadi. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida o'qish va o'qib tushunishni takomillashtirishning muhim shartlari mavjud. O'qish, eng avvalo, adabiy talaffuzni me'yorlashtiradi. O'qib tushunish esa o'rganilayotgan tilda nutq o'stirishdan tashqari, fikrlashni ham shakllantiradi.

PIRLS dasturining matn bilan ishlash qismi ham aynan o'qib tushunishni talab etadi va quyidagicha tartiblanadi:

- dastlab o'qish uchun matn beriladi;
- matnni o'qib, uni qay darajada tushunganini aniqlash maqsadida berilgan matn asosida shakllantirilgan savollarga javob so'raladi.

Yangi avlod darsliklarining oldingilaridan farqli tomoni ham shunda: aynan nutqiy kompetensiyalarga urg'u berilayotgani o'quvchida bir vaqtning o'zida to'rt turdagi ko'nikmalarining shakllanishiga imkon beryapti.

Darsliklar bilan tanishish jarayonida o'qib tushunish kompetensiyasi har bir sinf bosqichida xilma-xil vazifa bajarishi, matnlar o'quvchi yoshini inobatga olgan holda yangi bilimlar berayotganiga guvoh bo'lamiz va ularni quyidagicha tizimlashtirsak maqsadga muvofiqdir.

- 5-sinf o'quvchisi o'qib tushunish jarayonida:
- turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qishni;
  - matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganini tushuna olishni;
  - maqol, matal va hikmatli so'zlarning matndagi o'rnini aniqlay bilishni;
  - matn mazmuniga mos keladigan sarlavha(lar) topa olishni;
  - matnni qismlarga ajrata olishni;
  - matndan ko'zlangan maqsadni anglay olishni o'rganadi.

- 6-sinf o'quvchisi matn bilan ishlash jarayonida:
- turli ifodali uslubdagi matnlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib ravon o'qishni;
  - matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni farqlay olishni;
  - maqol va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olishni;
  - matnga sarlavha(lar) topa olishni;
  - matnni qismlarga ajratib, xatboshilarni aniqlay olishni;
  - matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallangani va qanday kontekstda yozilganini bilib olishni o'rganadi.

7-sinf o'quvchisi matn bilan ishlash jarayonida:

– matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda ravon va ifodali o'qiy olish;

– matnni tashkil qilgan grammatik vositalarning hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;

– o'zbek tiliga xos ibora(idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;

– matnga sarlavha(lar) topa olish va xatboshilarni aniqlash;

– yo'riqnomalar hamda ketma-ketlikda berilgan ko'rsatmalarni tushunish va bajara olish;

– xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish;

– matndan ko'zlangan maqsadni anqlay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallangani va qanday kontekstda yozilganini farqlay bilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Demak, har bir sinf darsligida keltirilgan matnlar ma'lum bir ustuvor maqsadlarni amalga oshirish vazifasini o'taydi. Vazifalarni bajarish jarayonida o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalari shakllanadi, rivojlanadi, takomillashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4097073>.

3. Ismailov A va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019.

4. G'ulomov A va boshqalar. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Muharrir, 2023.

5. Mavlonova K va boshqalar. Ona tili. 5-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

6. Mavlonova K va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

7. Mavlonova K va boshqalar. Ona tili. 7-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

**Ravshanbek EGAMBERDIYEV,**  
 Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 22-maktabning  
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## MAQOLLAR BILAN BOG'LIQ INTERFAOL METODLAR

**Annotatsiya.** Ushbu interfaol dars ishlanmasi sifatida taqdim etilayotgan maqolada raqam ishtirok etgan maqollar va ularning mazmun-mohiyati, ma'no ko'lamini, ishoraviy belgilari haqida so'z yuritilgan. Maqollarning qadimiylik va zamonaviylik nuqtayi nazaridan ma'no komponentlari sharhlangan. Maqola an'anaviy va no'an'anaviy darslarning sintez qilingan namunasi sifatida ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** dars, maqol, o'zbek, ilm, raqamli, harf, she'r, rasm, xulosa, so'z.

**Annotation.** This article, presented as an interactive lesson development, discusses digital proverbs and their content, meaning, and symbolic meanings. Sufficiently analyzes the meaning components of proverbs from the perspective of antiquity and modernity. The article is valuable and significant as an example of a synthesis of traditional and non-traditional lessons.

**Keywords:** lesson, proverb, Uzbek, science, number, letter, poem, picture, conclusion, word.

**Аннотация.** В данной статье, представленной в виде интерактивной разработки урока, рассказывается о цифровых пословицах и их сущности, объеме значения и символических знаках, объясняются смысловые компоненты пословиц с точки зрения древности и современности. Статья ценна и значима как пример синтеза традиционных и нетрадиционных уроков.

**Ключевые слова:** урок, пословица, узбекский язык, наука, цифра, буква, стихотворение, картинка, заключение, слово.

O'zbek tilining tarovati va hikmatomuz jarangi maqollarda yorqin namoyon bo'ladi. Insonlarning o'yi, xayollari, fikri, kundalik voqelikka munosabati va ichki xulosalari – hammasi maqollarda namoyon bo'ladi. Maqollar tashqi qurilishi nuqtayi nazaridan bitta fikr ifodasiga qaratilgan, ichki fikr komponentlariga ko'ra keng qamrovli. Ular fikr, didaktika va badiiylik mezonlari asosida yaratilgan. Agar faqat falsafiylik va didaktika o'rtasidagi ma'no ko'lamidagina iborat bo'lganida, inson shuuriga bu qadar kuchli o'rnashmas, ta'sirchanlik doirasi ham torroq bo'lardi.

Qaysidir jihatdan maqollar insoniyat hayotining ilk davrlarida fikrga qurilgan mini didaktik romanlar vazifasini o'tagan deyish mumkin. Bitta maqoldan olinadigan estetik zavq roman yoki poemalardagi badiiy-didaktik zavqqa teng bo'lgan. Shu tarzda insoniyat tafakkurida go'zallik, nafasat tushunchalari ezgulik zamirida paydo bo'lgan. Tasavvur qiling, she'r, hikoya, roman, teatr, kino, televideniye va vizual olam bo'lmagan davrlarda maqollar bo'lgan. Demak, qadimgi kishilik jamiyatida ular yuqorida sanagan ijod mahsullarining o'rnini bosgan, bosa olgan! Insonlarni go'zallikka, ezgulikka va kamolotga chorlagan. Misol uchun, Mahmud Koshg'ariy to'plagan 300 dan ortiq maqollarning 60 tasi hamon iste'molda. Masalan: "Teva olasi tashinda, odam olasi ichinda" [1]. Lekin savol tug'iladi: turkiy tilimiz xaritasini belgilagan maqollar bugun xalq o'rtasida qay darajada faol? Biz maktab ta'limi jarayonida ularni o'quvchi shuuriga singdira olyapmizmi? Maqollardagi ko'chma ma'noni bolalar qanchalik tushunishyapti? Undagi obrazlar mohiyatini anglashyaptimi? Raqam ishtirok etgan maqollarning insoniyatga xizmati nimalardan iborat? Aynan shu nuqtayi nazardan ushbu maqolamiz an'anaviy va interfaol dars metodlarini sintez qiladi.

Dars jarayonida raqam ishtirok etgan maqollarni qo'llash bo'yicha keyslari

Avvalo, raqam qatnashgan maqollarga oid ko'nikmalarni ko'rib chiqamiz. Quyida o'quvchilar uchun mavzu yuzasidan berilishi tavsiya etilgan topshiriqlar keltiriladi. Demak, raqamli maqolga birinchi misol: **Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar.**

### I. Maqol yuzasidan savol va topshiriqlar:

- Raqamlarning hayotingizdagi ahamiyati haqida sinfdoshlaringizga so'zlab bering.
- Bir, ming raqamlari anglatayotgan ma'noni izohlang.
- Ilmi – ilmsiz so'zlaridagi antonimlik xususiyatini izohlang.
- Maqolni ikki qismga ajrating. Har bir qismni o'zingiz to'ldirishga harakat qiling?
- Maqolda qaysi tovush takrori ma'noni yaqqol ifodalagan?
- Maqoldan qanday xulosa chiqardingiz?
- Kompyuterdagi grafik muharrir yordamida maqollarga doir rasm chizing.
- Raqamlar bilan bog'liq maqollar toping.

**II. Jadvaldagi maqollarning mazmunini izohlang.** Raqamlar o'rniga boshqa so'zlarni qo'yish mumkinmi? Shunday qilgan holda ma'noni saqlab qolishga harakat qiling.

Bir	Botir bir marta, qo'rqqoq ming marta o'ladi.
Ikki	Ikki o'n besh – bir o'ttiz.
Uch	Uyatliga – uch kun hayit, Uyatsizga – har kun hayit.

To'rt	Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar. To'rtovlon tugal bo'lsa, osmondagin undirar.
Besh	Besh qo'l barobar emas.
Olti	Beshning boshi bo'lguncha, Oltining oyog'i bo'.
Yetti	Yetti o'lchab – bir kes.
Sakkiz	Sanamay sakkiz dema.

### III. Maqolni o'qing va u bilan bog'liq vazifalarni bajaring.

#### Tani sog'lik – tuman boylik.

1. Siz *tan*, *tuman* so'zlarini do'stingizga qanday izohlagan bo'lardingiz?

2. *Tan*, *tuman* so'zlarining izohini o'qib, maqol mazmunini sharhlang.

Tan – kishining butun borlig'i, vujud.

Tuman – o'n ming, hisobsiz.

3. Maqolni qanday xulosalagan bo'lardingiz?

- tuman boylik insonning sog'ligi hisoblanadi;
- boylik – tan sog'ligida;
- inson sog' bo'lsa, xorlik ko'rmaydi;
- tan salomatligi – jonning rohati;
- tani sog'lik – totli hayotning asosi.

**O'qituvchi nutqi:** “Maqolga kim qanday ta'rif bermasin, hammasining mohiyati bir xil. Ta'riflardan birini keltiramiz: “Maqol – turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqol xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Maqollarda hayotdagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq ifodalash maqsadida tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli predmetlar, hayvonlar, o'simliklar, mevalar, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari obrazlaridan ustalik bilan foydalaniladi. Ana shu predmetlarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlarga ega bo'lgan kishilarning obrazlari gavdalantiriladi” [2: 7].

### Jonivorlar bilan bog'liq maqollarga oid topshiriqlar

I. O'ylab ko'ring-chi, maqollar orqali odatda insonlarga xos qanday xususiyatlar ko'rsatiladi?

II. Quyidagi jonivorlar maqol tarkibida qanday insonlarning obraziga aylanadi? Jadvalni to'ldiring.

Jonivor	Insonga xos xususiyat	Nima uchun aynan shu xususiyat qabul qilingan?
Tuya		
Qo'y		
Echki		

Qo'zi		
Qulun		
Uloq		
Toy		
Tulki		
Quyov		
Burgut		
Qurbaqa		

### III. Jadval asosida 3ta gap tuzing.

**Namuna:** Tuya obrazi orqali odatda kuchli, chidamli, sabr-matонатli, ba'zi hollarda esa takabbur kishilar timsoli ifodalanadi.

**O'qituvchi nutqi:** “*Matal, naql, masal, zarbulmasal, ta'bir, otalar so'zi, abushqa so'zi, mashoyixlar so'zi, donolar so'zi, donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi, qadimgilar so'zi, burungilar so'zi, ilgari o'tgan yaxshilar so'zi* kabi nomlar bilan atalsa-da, asosan ommaviy ravishda *maqol* atamasi qo'llaniladi”.

**Izoh:** Abushqa – eski o'zbek tilida kekxa, nuroniy, qari ma'nolarida ishlatilgan.

Mashoyixlar – hikmatli so'zlarni aytib o'tgan ulug' ota-bobolar, ustozlar.

Oqin – dostonchi, so'zamol, chechan kishilarga nisbatan aytiladi.

### Bir xil harfli va olmosh so'z turkumi qatnashgan maqollar

Bunday maqollar asosan undosh tovushlarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Qofiyali va qisqa bo'ladi. Bunday maqollarni juda tez yodlab olish mumkin.

**I. Juft-juft bo'lib ishlansin.** Birinchi guruh bir xil harf bilan boshlanuvchi, ikkinchi guruh esa olmosh ishtirok etgan maqollarga namunalar topib, jadvalni to'ldiring.

Bir xil harf bilan boshlanuvchi maqollar	Olmosh ishtirok etgan maqollar
Qilmish – qidirmish.	Sizdan – ugina, bizdan – bugina.

### II. Savollarga javob bering:

a) Maqollarda olmoshning qaysi turi ko'proq uchraydi deb o'ylaysiz? Fikringizni izohlang va misollar ayting.

b) Ko'pgina bir xil tovushlardan tashkil topgan maqollarni aytib ko'ring. Ular qaysi janrni esga soldi?

Nofaol so'zlar ishtirok etgan maqolga oid mashqlar

Maqol: Oqlik bor uyda og'riq dorimas.

**I. O'ylab ko'ring-chi, maqol nima haqida bo'lishi mumkin?**



a) *Oqlik* soʻzi bilan bogʻliq urf-odatlar haqida doʻstingizga soʻzlab bering.

b) Xalqimiz oqlik deganda qaysi mahsulotlarni, nimalarni nazarda tutgan?



d) Rasmlar maqoldagi qaysi soʻzni izohlay oladi?

e) Maqolda takror qoʻllangan tovush qaysi? Takrorning asosiy vazifasi nima?

f) Nima deb oʻylaysiz, *dorimas* soʻzining maʼnosi nima? Bu soʻzni *ogʻriq* soʻzidan ayri holda maʼnosini

anglash mumkinmi? *Dorimas* soʻzining izohini lugʻatdan oʻqing.

**Maqollarga doir qoʻshimcha mashgʻulotlar**

I. “Kim koʻp maqol biladi?” musobaqasida ishtirok eting.

II. “Fikr qaymogʻi”, “Donishmandlar donoligi”, “Xalq donoligining billur tomchilari” mavzusida ogʻzaki matn tayyorlang. Matnni sinfdoshlaringizga soʻzlab bering.

Maqollar insonning soʻz qoʻllash, uning taʼsir obyektini oshirish, soʻzning maʼno nishonini toʻgʻri belgilash malakasini shakllantiradi. Shu jihatdan maqollar davr oʻtsa-da, mazmun-mohiyatan eskirmaydi. Ulardagi maʼno yuki kamaymasligining asosiy sababi, falsafa, didaktika va badiiyatning mushtarakligidadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koshgʻariy M. Turkiy soʻzlar devoni. – Toshkent: Oʻzbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent: Oʻzbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990.
3. Husniddin H. Dilnur bitik. – Toshkent: Ijod nashr, 2022.

Фархад ХАЛИЛОВ,  
старший преподаватель Национального  
университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека

## О РОЛИ УЧЁНЫХ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ ТРАНСЛЕОЛОГИИ

**Аннотация.** В статье кратко прослеживается история развития узбекской школы перевода и подчеркивается роль в этом процессе ученых-филологов Национального университета Узбекистана, особо отмечается научно-педагогическая деятельность Гайбуллы Саломова как основателя узбекской школы перевода.

**Ключевые слова:** перевод, переводовед, переводоведение, школа перевода, искусство перевода, аспекты перевода.

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tarjimashunoslik maktabining qisqacha tarixi ko'rib chiqiladi va O'zbekiston Milliy universiteti olimlarining soha rivojlanishidagi roli qayd etiladi. Shuningdek, ushbu maktabning asoschisi sifatida G'aybulla Salomovning ilmiy-pedagogik faoliyati yoritilib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tarjimashunos, tarjimashunoslik, tarjima maktabi, tarjima san'ati.

**Annotation.** The article briefly traces the history of the development of the Uzbek school of translation and emphasizes the role of philologists from the National University of Uzbekistan in this process. The scientific and pedagogical activities of Gaybulla Salomov, as the founder of the Uzbek school of translation, are especially noted.

**Keywords:** translation, translation scholar, translation studies, school of translation, art of translation, aspects of translation.

История развития узбекской школы перевода имеет собственную специфику и своеобразие, которая характеризуется 1) широким развитием уже в средних веках переводов с восточных языков, в основном с арабского, наличие двуязычных словарей; 2) началом со второй половины XIX века переводов непосредственно с западных языков, 3) довольно широким развитием переводов художественной и научной литературы с русского языка, в том числе переводов с других языков мировой литературы посредством русского языка; 4) прямыми переводами на узбекский язык со всех мировых языков в годы независимости.

Значительный вклад в развитие узбекской школы перевода вносят и ученые-филологи Национального университета Узбекистана. Впервые в 1969 году на территории бывшего Советского Союза на базе факультета журналистики Ташкентского государственного университета (ныне Национального университета Узбекистана) была создана кафедра теории перевода, основателем и неизменным руководителем которой до 2000 года был Г.Т.Саломов.

Профессор Гайбулла Саломов – заслуженный деятель науки Республики Узбекистан, выдающийся узбекский ученый и мыслитель, человек энциклопедических знаний, основоположник узбекской школы перевода, внесший большой вклад в становление и развитие художественного перевода в Узбекистане. Его многочисленные труды – книги, учебники, учебные пособия, статьи, очерки – посвящены искусству перевода, его истории и теории, многим значительным аспектам перевода: билингвизму и многоязычию, вопросам подстрочника и перевода художественных произведений с языка оригинала, редактированию, статусу перевода и

переводчиков, созданию переводческих кадров, а также значению и роли перевода в развитии национальной литературы, духовности и культуры народа, в укреплении межкультурных связей. В таких его трудах как «Перевод идиом, пословиц и поговорок» (1961), «Язык и перевод» (1966), «Проблемы теории перевода и литературного редактирования» (1973), «Введение в переводоведение» (1978), «Литературные традиции и художественный перевод» (1980), «Проблемы перевода» (1983), «Основы теории перевода» (1983) и в написанных в соавторстве с профессором Сагдулло Аъзамом «Основы перевода» (1976), профессором Нажмиддином Камиловым «Мосты дружбы» (1979) и многих других его научных статьях и очерках рассматриваются вопросы перевода, связанные с национально-стилевыми особенностями языка оригинала и перевода: лексико-стилистическими пластами, изобразительно-выразительными средствами, национальными поэтическими формами, стихосложением, метрическими системами, индивидуальным стилем писателя и переводчика, вопросы перевода поэзии, прозы, драматургии, дубляжа кинофильмов. Эти труды стали основными учебными пособиями по теории перевода для студентов и настольными книгами для многих переводоведов и переводчиков республики.

Свою научную деятельность Гайбулла Саломов начал с работы в издательстве «Энциклопедия», с создания Большой Узбекской Энциклопедии (под руководством академика Ибрагима Муминова). Интересны его многочисленные выступления в печати, по радио и телевидению не только как крупного ученого-языковеда и литературоведа, теоретика и практика перевода, но и как педагога и общественного деятеля, идеолога.

Гайбулла Саломов принимал участие в организации Отдела перевода и взаимосвязей литератур в ИЯЛ АН Узбекистана, многие годы возглавлял работу Совета по переводу в Союзе писателей Узбекистана, был членом двух Советов по защитах кандидатских и докторских диссертаций (в Национальном университете и ИЯЛ АН), главным инициатором и редактором сборника «Таржима санъати» («Искусство перевода») и вместе со своим учеником и коллегой поэтом Тилаком Джурой успел выпустить шесть книг из этой серии, сам перевел произведения русских писателей А.П.Чехова, Ф.М.Достоевского, Л.Н.Толстого, писал рассказы, стихи и поэмы, руководил работой аспирантов, переводчиков, принимал участие в международных симпозиумах, посвященных проблемам перевода, и научных конференциях. Его знали не только в Узбекистане, но и во многих странах мира.

Профессор Гайбулла Саломов был большим ученым, истинным интеллигентом, достойнейшим человеком, добрым, принципиальным, сдержанным, немногословным, всегда готовым прийти на помощь. Гайбулла Саломов читал лекции по истории и теории перевода и сопоставительной типологии русского и узбекского языков в НУУз, УзГУМЯ, а в последние годы своей жизни и по религиоведению в Академии государственного строительства. Умение увлечь, зажечь и повести за собой огромную армию учеников и последователей способствовало созданию в Узбекистане истинной школы перевода.

Под руководством профессора на кафедре были подготовлены десятки докторов и сотни кандидатов филологических наук, среди них такие известные деятели науки и искусства Узбекистана как профессора Н.Камилов, Х.Кароматов, поэты-писатели Абдулла Арипов, Хуршид Даврон, Тохир Малик, Ойдин Хожиева, Г.Нуриллаева и многие другие.

Ученики и соратники ученого с честью продолжают дело, начатое Г.Т.Саломовым. В университете работали и работают много профессоров и преподавателей, которые, как и их наставник, вносят большой вклад не только в развитие переводческой науки, но и в общественную и государственную деятельность. Нажмиддин Комилов – доктор филологических наук, профессор, автор многих работ по теории перевода, о проблемах перевода произведений классиков узбекской литературы, работал председателем Избирательной комиссии Республики Узбекистан, а в настоящее время работает в Институте востоковедения. Хамидулла Кароматов – доктор филологических наук, про-

фессор, автор многих научных статей о проблемах перевода Корана, работал первым заместителем премьер-министра республики, послом Республики Узбекистан во Франции и Японии, ректором Университета мировой экономики и дипломатии. Иброхим Гафуров – Герой Узбекистана, кандидат филологических наук, автор многих научных и публицистических статей, касающихся проблем переводоведения, перевел на узбекский язык произведения многих классиков мировой литературы, таких как Ф.М.Достоевский, Ги де Мопассан, Э.Хемингуэй, Ч.Айтматов, В.Распутин и др. И.Гафуров – автор учебника «Таржимонлик мутахассислиги кириш» («Введение в специальность переводчика»), основатель и первый руководитель Партии национального возрождения Республики Узбекистан. Бахадир Садыкович Эрматов – кандидат филологических наук, доцент, автор многих научных и публицистических статей о проблемах теории перевода. Шухрат Салиджановна Имяминова – кандидат филологических наук, профессор, автор многих научных и публицистических статей по проблемам переводоведения. Ш.С.Имяминова – соавтор учебника «Таржима назарияси ва амалиёти» («Теория и практика перевода»). Яна Юрьевна Арустамян – доктор филологических наук, профессор, автор многих научных трудов по переводоведению, в том числе учебных пособий «Лингвистические проблемы перевода», «Глоссарий терминов переводоведения». Свой вклад в развитие переводческой науки, укрепление межкультурных и международных связей вносят доктор наук, профессора университета Р.Х.Ширинова, А.У.Маматов, С.Э.Камилова и многие другие.

Сегодня в узбекском переводоведении начался новый, перспективный, полный возможностей период. Основные особенности этого периода определяются такими факторами, как расширение литературного, культурного, научного общения с зарубежными государствами, широкие возможности для изучения иностранных языков, возможность для многих людей совершать поездки в зарубежные страны для повышения своей языковой квалификации, обилие необходимых учебных принадлежностей и словарей, возможность использования Интернета и телекоммуникаций, организация во многих университетах живого общения с носителями языка и многое другое.

#### Использованная литература

1. Abduazizov A., Komilov N. G'aybulla Salomovning o'zbek tarjimashunoslik ilmiy maktabi. Toshkent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy maktablari, 2008.
2. Isomiddinov Z. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8 jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
3. Маматова Х. К 80-летию со дня рождения Гайбуллы Саломова // «Звезда Востока», 2012, № 4.
4. Umirov S. G'aybulla as-Salom. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
5. Xalilov F.X. Tarjimashunoslik fani va universitet olimlarining uning rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi // Filologiyaning dolzarb muammolari, 2008.

**Dilfuza ISLOMOVA,**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsent.v.b.,  
pedagogika fanlari nomzodi;*

**Nigora MIRZAYEVA,**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsent.v.b.,  
filologiya fanlari nomzodi*

## ILM-FAN VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY O'QITISH VA AMALIYOT

**Annotatsiya.** Global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan keng mushohada, yuksak tafakkur, o'tkir iroda, pedagogik-psixologik bilim va mahorat talab etmoqda va har bir yangi metodika, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim berish usullari keng tadqiq qilinmoqda. Aslida oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan to'liq javob bera oladigan, ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli hamda ijodiy qobiliyati shakllangan, faoliyati davomida o'zini rivojlantira oladigan, o'zini-o'zi boshqarish va innovatsion faoliyatga ixtisoslashgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** ilm-fan, innovatsiya, rivojlantirish, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, funktsiyaning yoritilishi, tizim, mohiyat, zamonaviylik, o'quv materiallar integratsiyalashgan ta'lim.

**Annotation.** Global changes, daily development of science and technology and information and communication technologies require from the teacher of the 21st century broad observation, high thinking, sharp will, pedagogical and psychological knowledge and skills, and each new methodology, innovative technologies are included in teaching methods, widely used among the population. In fact, the main goal of higher education is qualified, educated, high-potential people who meet the requirements of the time, capable of contributing to the development of science, culture, economics, and the social sphere. It is important to prepare competitive specialists who will develop, and all efforts made for this should serve this goal.

**Keywords:** science, innovation, development, socio-pedagogical necessity, illumination of function, system, essence, modernity, educational materials integrated education.

**Аннотация.** Глобальные изменения, ежедневное развитие науки и техники и информационно-коммуникационных технологий требуют от учителя XXI века широкой наблюдательности, высокого мышления, острого ума, педагогико-психологических знаний и умений, и каждая новая методика, инновационные технологии входят в методы обучения, широко применяются среди населения. По сути, основная цель высшего образования – это отвечающие требованиям времени квалифицированные, образованные, обладающие высоким потенциалом люди, способные внести свой вклад в развитие науки, культуры, экономики, социальной сферы. Важно подготовить конкурентоспособных специалистов, которые будут развиваться, и все усилия, прилагаемые для этого, должны служить данной цели.

**Ключевые слова:** наука, инновации, развитие, социально-педагогическая необходимость, выяснение функции, система, сущность, современность, учебные материалы интегрированного образования.

Barchamizga ma'lumki, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan, malakali, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisiga qo'yilgan talablarga to'liq javob bera oladigan, ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadigan, yuksak ma'naviyatga ega, yuqori salohiyatli, ijodiy qobiliyati shakllangan, faoliyati davomida o'zini rivojlantira oladigan, innovatsion faoliyatga ixtisoslashgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir. "Eng avvalo, ma'rifatparvar pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik qarashlarining amaliy ahamiyati birinchi o'rinda keng ommani ma'rifatli qilish" [1: 19].

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb masala talabalarni nafaol ishtirokchilardan faol yaratuvchiga aylantirish, muammoni shakllantirish va uni hal qilish usullarini tahlil

etish, maqbul natijalarni topish va uning to'g'riligini isbotlashga qodir malakali mutaxassislarni yetishtirib chiqarishdir. Muammoni faqat o'quv materialini o'qituvchi orqali talabaga yetkazish bilan hal qilish mumkin emas [2: 11]. Agar talabalarga mustaqil ishlash o'rgatilmasa, ular o'z sohasini chuqur egallay olmaydilar. Kitoblar, darsliklar bir vosita, xolos. Sohadagi yechimlarni qidirish ustida mustaqil izlanish talab etiladi. Kredit-modul tizimining (bakalavriat) o'quv rejasida umumiy yuklamaning 50 foizi mustaqil ta'limga ajratilgan.

Bugungacha talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari, axborot-kommunikatsiya muhitida o'qitishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari A.Abduqodirov, R.Abduraxmanova, U.Begimqulov, R.Jurayev, U.Inoyatov, N.Muslimov, Sh.Sharipov, E.Yuzlikayeva, O.Qo'ysinovlar, ularning

kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari M.Usmonova, S.Salimova, M.Atakulova, N.Karimova, mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari esa G.Ergasheva, N.Toshmanovlar tomonidan tadqiq etilgan [3: 30]. Shuningdek, R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulovalar tarixiy-pedagogik jihatlari tahlil qilgan [4: 52].

O'qituvchi faoliyatidagi o'ziga xos xususiyat shundaki, u shakllantiriladigan tushunchaga hissiy bilimlarni kiritishga ratsional ravishda ko'maklashadigan obrazlar yig'indisini topadi va olamning ilmiy manzarasini tasavvur etish orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlar yakunida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlab, pedagogik va psixologik jihatdan baholaydi. Natijalar har bir dars jarayonida foydalanilayotgan texnologiyalarning ijobiylikini tasdiqlaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun uning dunyoqarashini kengaytirish zarur. Ularning faoliyatiga bog'liq keyingi muhim jihat esa fikrning betakror hissiy rag'bat, zamonaviy texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayoniga olamni bilish jarayonini joriy etishdir. Chunki talabalar uchun rag'bat o'ta muhim rol o'ynaydi. Ular olamni anglab, fikr, go'zallik va tarixiy manba, hodisalar murakkabligini bilib, asta-sekin ijtimoiy muhitga moslashadi va shuning barobarida darslarni tashkil qilish shart-shamoyilini his qila boshlaydi. Shu tariqa dastlabki ilmiy haqiqatlarni bilib oladi.

Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq jihatlardan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqiniga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimistdir. Maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnamashida ideal ham rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda, tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini doimiy ravishda rivojlantirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda, muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi [5: 47]. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy talablarning ortib borishi pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimida ham mazmuniy va sifat jihatidan o'zgarishlar zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlari sharoitida malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati yanada kuchaydi. Olib borilgan kuzatishlar va tahlil natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya va kasbiy-metodik moslashtirish jarayonida katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
2. Mavlonova R., Vohidova N.X. Ijtimoiy pedagogika (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Галагузова М.А. Социальная педагогика. Курс лекций. – М., 2006.
4. Mavlonova R., Vohidova N.X., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
5. Ishmuhammedov., R. Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.

**Dilnoza FAYZIYEVA,**  
Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 3-umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## ERNEST SETON TOMPSONNING “LOBO” HIKOYASI

**Annotatsiya.** Bu maqolada Ernest Seton Tompsonning 7-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan “Lobo” hikoyasini o'quvchilarga qiziqarli tarzda, yangi interfaol usullardan foydalanib o'tish uchun mo'ljallangan bir soatlik dars ishlanmasining mazmuni berilgan.

**Kalit so'zlar:** “VARK”, “O'rgimchak to'ri” va “Videosavol” metodlari, “Fikrlar bahsi” va “Zakovat sandiqchasi” o'yinlari.

**Annotation.** This article presents the content of a one-hour lesson designed to make students experience the story “Lobo” by Ernest Seton Thompson, given in the 7th grade literature textbook, in an interesting way, using new interactive methods.

**Keywords:** “VARK”, “Spider web” and “Video question” methods, “Discussion of ideas” and “Ingenuity box” games.

**Аннотация.** В статье представлено содержание часового урока, призванного побудить учащихся в интересной форме, с использованием новых интерактивных методов пережить рассказ Эрнеста Сетона Томпсона “Лобо”, изложенный в учебнике литературы для 7-го класса.

**Ключевые слова:** методы “ВАРК”, “Паутина” и “Видеовопрос”, “Обсуждение идей”, игра “Ящик изобретательности”.

**Dars shiori:** Tabiat va hayvonlar bilan qanday munosabatda bo'lsangiz, hayotingiz shunday rivojlanadi (Aleksandr Lukashenko).

**Ernest Seton Tompson falsafasi:** “Bu hayvonlarning har biri juda zarur merosni anglatadi, biz mutloq zarur bo'lmaganda ularni yo'q qilishga haqqimiz yo'q...”

**Hayot formulasi:** **INSON + TABIAT + O'ZLIK = OLIY BUTUNLIK.**

**Darsning maqsadi:**

– **ta'limiy:** E.S.Tompsonning hayoti va ijodi, “Lobo” hikoyasining yaratilishi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, asar qahramoni bo'lgan bo'ri-lar xarakteriga oid ijobiy va salbiy jihatlarni tahlil etish, adib ko'zlagan maqsad hamda g'oyani muhokama qilish;

– **tarbiyaviy:** O'quvchilar qalbida ona tabiatga, hayvonlar va jonzotlarga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, tabiatga oshnolik, insonlar va hayvonot olami o'rtasidagi mehr-muhabbat va oqibat fazilatlarini singdirish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

– **rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, dunyoqarashi, fikrlash doirasi, erkin fikr bildirish jihati hamda izlanuvchanlik, topqirlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:** media-manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash va ulardan foydalana olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** tabiatga va hayvonot olamiga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish.

**Dars tipi:** yangi bilim berish.

**Dars turi:** “Sahnalashtirilgan xayoliy sayohat” darsi.

**Dars metodi:** “Gul mushoirasi”, “SAN texnologiyasi”, “VARK”, “O'rgimchak to'ri” va “Video savol” metodlari, “Fikrlar bahsi”, “Zakovat sandiqchasi” o'yini.

**Dars jihozi:** Mavzu matni, slaydlar, videorolik, baholash kartochkalari, dekoratsiya uchun o'yinchoq hayvonlar va jonivorlar, qo'lda yasalgan daraxtchalar, yozuvchi asarlari muqovasiga ishlangan rasmlar.

**Darsning borishi:**

I. Tashkiliy qism (3 daqiqa):

1. Guruhlarga bo'lish: doska oldida qo'lda yasalgan daraxt qo'yiladi va shoxlariga xazon bo'lgan barglar, qor parchalari, daraxt gullari va olma mevalari ilib chiqiladi. O'quvchilar birma-bir kirib, o'zlari tanlagan faslni aks etturuvchi kartochkani tanlab, shu fasl ifoda etilgan stolga kelib birlashadilar (Guruh nomlari: “Oltin kuz”, “Zumrad bahor”, “Kumush qish”, “Saxiy yoz”). O'quvchilar joylashguniga qadar tabiat haqida qo'shiq eshittiriladi.

2. Salomlashish:

*“Salom mening dono o'quvchilarim,  
Ilm istab ko'zimga boqquvchilarim!  
Qani bugun hamma darsga tayyormi?  
Sinfirmizda navbatchi bormi?”*

3. Navbatchi axboroti.

4. Dars shiorini aytish:

*“Adabiyot hayot demakdir,  
Unda aks etar hayot sirlari.  
Adabiyot o'rnak demakdir,  
Undan o'rganamiz odob sirlarin”.*

5. Darsning borishini tushuntirish: *“Bugungi dars “Sahnalashtirilgan xayoliy sayohat” tarzida olib boriladi. Biz hayot va najot binosi bo'lmish tabiatni muhofaza qilish markaziga yetib olish uchun bilimlar o'lkasining turli*

xil to'siqlaridan o'tishimiz kerak bo'ladi. Har bir guruh a'zolari o'z bilim va salohiyatlarini ishga solgan holda kuchlarini sinab ko'rsinlar. Bu sayohatda bizga Lobo laqabli bo'ri hamrohlik qiladi".

Lobo:

"Salom sizga o'quvchi yoshlar,  
Ilmga chanqoq o'g'il va qizlar.  
Men – Lobo, Kurrumpo qirolni derlar,  
Istab qoldim iste'foni.  
Qirollik mayog'ini,  
Topshiraman bugun sizga.

Sayohatda faol bo'lgan  
Zukko o'g'il yo qizga!"

O'qituvchi:

"Sayohatga tayyormisiz?  
Sinovlarga shaymisiz?  
Vazifalar bajarilgan,  
Savollarga tayyormisiz?  
Kim aytadi o'tgan mavzu –  
Nima ekanligini?  
Sizga qanday vazifa  
Uyda berilganini?"



**Xush kelibsiz!**

**Tabiatga sayohat!**

**Tabiatni asraylik!**

**Tabiat muhofazasi markazi**

Mustahkamlash

oq yo'l

O'tilgan mavzu va uyga vazifa

Yanqi mavzu

O'quvchi: "Biz o'tgan darsda Zulfiya va Asqad Muxtor she'rlari bilan tanishgandik. Uyga vazifa she'rlardan namuna yodlab kelish edi".

**1-topshiriq: Berilgan vazifani ertaga qoldirmal (uyga vazifa tahlili: 5 daqiq)**

**2-topshiriq: Savollarga javob bering.**

1. Zulfiyaning "Shu kunlarda bahorga zorman" deb boshlanuvchi she'ri qanday nomlanadi?

2. "Sog'inib" she'rida shoira o'zining za'far ruxsorligini qaysi faslga qiyoslaydi?

3. Asqad Muxtor o'z misralarida nimaning qarshisida tiz cho'kishini aytadi?


4. Shoira Zulfiya nimaga doimiy yor ekanini aytilib o'ziga taskin beradi?

5. Asqad Muxtor misralaridagi "ko'rinmas zarra" nima edi?

6. Asqad Muxtor nazdida "Oliy butunlik" bu nima?


7. “Oliy butunlik” she’rida shoirning “hayot ishqini yangilayotgan” narsa nima?

8. Doirachalar ichida qanday so’z hosil bo’lganiga e’tibor bering.



To’g’ri javoblar berilgan harflar tanlab doirachalar ichiga joylashtirilganda *internet* so’zi hosil bo’ladi. Internet va o’rgimchak to’ri o’rtasidagi bog’liqlik haqida, internetning ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikrlar aytiladi.

**3-topshiriq: Videoni tomosha qiling va topshiriqlarni bajaring.** (video uchun havola: <https://youtu.be/msdA5lcG534?feature=shared>)  
“4x4” (matndagi 4 so’z ma’nosini toping) mashqi:



**4-topshiriq. Ijodkor haqidagi videoni ko’rib, nuqtalar o’rnini to’ldiring.**

Inson uchun bu dorulfanodagi ilohiy tortiq bu ..... Tompsonning zabonsiz, ammo tillasha oladigan, dillasha oladigan do’sti ..... edi. E.S.Tompson .....-yil .....da ..... oilasida tug’ilgan. ....yoshida Tompsonning oilasi .....ga ko’chib ketgan. Kichik Tompson ko’p vaqtini akasi bilan .....da o’tkazardi. ...., ....., ....., .....ga bo’lgan qiziqishi uni bolaligi va adabiyot bilan bog’lovchi ko’prik

bo’ldi. Tabiat unga nafaqat ....., balki ..... sehrini ham in’om etgan edi. Tompson qalami ..... mavzusiga sodiq edi. Ilk adabiy asari – .....

Tompsonni Kanada va Amerikada mashhur qilgan asar – ..... jildli ..... edi. Tompson 2 ta yo’nalishda ta’lim oldi: ....., .....

Seton Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xusu-



san, hayvonlar, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton Tompsondan oshib o'tolmadi. Hech kim Seton Tompson bo'lolmadi [2].

Inson uchun bu dorulfanodagi ilohiy tortiq bu do'st. Tompsonning zabonsiz, ammo tillasha oladigan, dilla-sha oladigan do'sti tabiat edi. E.S.Tompson 1860-yilning 14-avgustida fermer oilasida tug'ilgan. 6 yoshida Tompsonning oilasi Kanadaga ko'chib ketgan. Kichik Tompson ko'p vaqtini akasi bilan o'rmonda o'tkazardi. Shikor, jonivorlar, qushlar, hindular uni o'z bolaligi va adabiyot bilan bog'lovchi ko'priki bo'ldi. Tabiat unga nafaqat yozish ilhomini, balki mo'yqalam seyrini ham in'om etgan edi. Tompsonning qalami tabiat mavzusiga sodiq edi. Ilk adabiy asari "O'tloq hayoti", Tompsonni Kanada va Amerikada mashhur qilgan asar – 8 jildli "Yovvoyi hayvonlar hayoti" edi. Tompson 2 ta yo'nalishda ta'lim oldi: san'at, rassomlik.

Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, hayvonlar, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib o'tolmadi. Hech kim Seton-Tompson bo'lolmadi [2].

#### Eslab qoling!

Lobo – italyanacha "bo'ri" degan ma'noni anglatadi.

"Turk" so'zining ham "bo'ri" degan ma'nosi bor.

"Bo'ri" so'zi yapon tilida "Buyuk Xudo" degan ma'noni bildiradi.

Xo'sh, Tompson nega aynan bu hikoyani yozdi?

Nega u bo'rini bosh obraz qilib tanladi?

Xurmatli o'quvchilar, bu savollarga javob topish uchun videoga diqqat qilaylik!

#### Tompson va bo'ri (o'quvchilar uchun ma'lumotlar)

1. Tompson do'stlariga yozgan xatlarida imzo o'rni-da bo'rining izini chizgan.

2. Ba'zida xatlarining oxiriga "Bo'ri Tompson" deb yozgan.

3. Tompson bilan do'stona bo'lgan hindular uni


"Qora Bo'ri" deb atashgan. Hindularda bo'ri alohida hurmatga loyiq hayvon hisoblangan.

4. Tompsonning eng yaxshi ko'rgan rasmlari o'zi chizgan bo'ri rasmlari edi.

#### "Bolalar ensiklopediyasi" dan olingan ma'lumotni o'qib chiqing.

"Bo'ri zararlimi yoki foydalimi? Aslida bunday savol berish noto'g'ri, chunki ko'pgina hayvonlar bir vaqtning o'zida ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Uy hayvonlariga hujum qiladigan bo'ri odamlarga ziyon yetkazadi. Xuddi mana shu bo'ri o'rmonda yoki tundrada ko'pincha nimjon, kasalmand hayvonlarga hujum qiladi, chunki bunday hayvonlarni tutib olish oson-da. Kasal hayvonlarning qirishi natijasida bo'ri o'rmon va unda yashaydigan jonivorlarga foyda keltiradi. Uni mana shu xizmatlari uchun "o'rmon sanitari" deb atashadi. Bo'rilar o'rmonda hayvonlarning haddan ziyod ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Bo'ri nihoyatda ayyor va aqlli hayvon. U o'zi ta'qib qilinayotganini darhol sezib, xatarli joyni uzoq vaqtga tark etadi. Shuning uchun ba'zida bo'rini yaxshilab qo'rqitib qo'yishning o'zi yetarli bo'ladi. Bo'ri yashirinishga usta, juda ehtiyotkor hayvon. Ba'zan hatto eng tajribali ovchilar ham bolalarini katta qilayotgan urg'ochi bo'ri uyasini topa olmaydilar. Xavf-xatarni sezgan bo'ri o'z bolalarini boshqa joyga ko'chirib, yaxshilab yashirib qo'yadi. Kuzga borib, bo'ri bolalari voyaga yetadi va ota-onasi bilan birgalikda qishki safarga o'tlanadi. Ovchilar qordagi izlardan bo'ri to'dasi bu yerdan qachon o'tganini darrov aniqlashadi, lekin tezkor va ehtiyotkor to'dani qidirib topish oson bo'lmaydi. Qishda bo'rilar odamlardan chetroqda yuradi, qopqon qo'yilgan va xatarli joylardan aylanib o'tadi. Ko'pincha ular to'satdan paydo bo'lib, odamlarni esankiratib qo'yadi va qo'tondagi qo'yni olib qochadi" [1: 31].

Yuqoridagi ma'lumotlar o'qiladi. Qo'shimcha ma'lumot sifatida bo'rilar haqida video (havola: <https://youtu.be/msdA5lcG534?feature=shared>) namoyish etiladi. O'quvchilar o'zlashtirgan ma'lumotlari asosida berilgan topshiriqlarni bajaradilar.



Matematikada o'rganilgan koordinata tekisligi adabiyot faniga tatbiq qilinadi. O'quvchilar manfiy tomonga bo'rilarning salbiy jihatlarini, musbat tomonga esa ijobiy jihatlarini yozadilar. Bu fanlararo integratsiya jarayonidir.

#### Siz buni bilasizmi?

Bo'rilar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar:

1. Bo'rilar 9 kilometr uzoqlikdagi tovushni bemalol eshita oladi.
2. Qadimiy vikinglar jangdan oldin jangavor ruhga ega bo'lish uchun bo'rining qonini ichishgan.
3. Bo'rining maksimal vazni 86 kilogrammgacha yetadi.
4. Agar bolasi qopqonga tushsa, odamlarning qo'lidagi azoblanmasligi uchun ona yoki ota bo'ri bolasini o'zi yeb qo'yadi.
5. Bo'rilar 15 kilometrgacha to'xtamasdan suza oladi.
6. Bo'rivachchalar onadan kar va so'qir, ammo tishi bilan tug'iladi.
7. Bo'ri bir marta juft tanlaydi va u bilan bir umr birga yashaydi. Jufti o'lsa, 3 oy yoki 1 yilgacha azador bo'ladi. Ko'pincha bu azadorlik o'lim bilan tugaydi.
8. Bo'ri tirnog'ini yerga ishqalab o'tkirlaydi.
9. Qadimiy astek qabilalari melanxoliya xastaligiga davo sifatida bo'ri jigaridan unumli foydalanishgan.
10. Qadimgi yevropaliklar ayollar tug'uruq jarayonida og'riq kamroq bo'lishi uchun bo'ri jigaridan maxsus kukun tayyorlashgan.
11. Bo'ri 200 million xil hidni ajrata oladi.
12. Bo'ri odatda odamlarga hujum qilmaydi. Faqat quturgan bo'rigina tashlanishi mumkin.
13. Bo'ri ochlikda 5 yoki 7 kun yashay oladi [3].

#### “Zakovat” savollari

1. Nega bo'rilar o'z o'ljasini boshqa yirtqichlar kabi avval o'ldirib, keyin yemaydi, balki tiriklayin yeydi?
2. Nega bo'rilarni hech sirkda ko'rmaymiz?
3. Bo'rilar qaysi hayvonni o'ldirishi mumkin, ammo go'shtini umuman yemaydi?
4. O'zbeklarda qanday chaqaloqlarga Bo'rivoy deb ism qo'yishadi?

5. Nega bo'rilar “o'rmon sanitari” deyiladi?

Dars xulosalanib, uyga vazifa beriladi. Vazifa: “Lobo” hikoyasini o'qish.

#### “Loyiha” texnologiyasi

1. “Rassomlar” guruhi asar asosida chizib kelgan rasmlarini taqdim etishadi.
2. “Biologlar” guruhi asarda keltirilgan bo'ri haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishadi.
3. “Ijodkorlar” guruhi asar qahramonlari yoki muallifga bag'ishlab yozib kelgan she'rlari, ijodiy maktublarini o'qib beradilar.
4. “Aktyorlar” guruhi hikoya asosida bo'ri obrazini namoyish etadilar.

**Baholash:** guruhlar barg, qor parchalari, gul va mevalar bilan o'z daraxtchalarini bezaydilar. Eng chiroyli daraxt egalari g'olibi bo'ladi. G'olib guruhga dars mehmoni Lobo “Tabiatni qo'riqlash markazi”ning ramziy kalitini topshiradi.

Lobo: *“Barakalla o'quvchilar, siz haqiqiy bilim egalari ekansiz! Sizlarga tabiat markazini bemalol ishonib topshirsam bo'ladi, ishonamanki, kelajakda sizlardan o'z kasbining ustalari yetishib chiqadi. Bugungi mazmunli sayohat uchun sizlarga rahmat! Keyingi ishlarigizga omad tilayman!”*

Dars so'ngida bugungi mavzu uchun tanlangan asosiy fikr xulosa sifatida aytiladi: *“Har bir jonli mavjudot – bebaho xazina, uni yo'q qilishga, bolalarimizni bu xazinadan bebahra qoldirishga haqqimiz yo'q”*. E.S.Tompson [1: 40].

**Uyga vazifa:** Hikoyani o'qib, “Loyiha” texnologiyasi asosida taqdimot tayyorlab kelish.

1. “Rassomlar” guruhi – asar asosida chizib kelgan rasmlarini taqdim etishadi.
2. “Shoirilar” guruhi – bo'rilar haqida she'r yozib keladi.
3. “Ijodkorlar” guruhi – asar qahramonlari yoki muallifga bag'ishlab yozgan ijodiy maktublarini, hikoya yoki ertaklarini o'qib beradilar.
4. “Aktyorlar” guruhi – hikoya asosida bo'ri obrazini namoyish etadilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Seton Tompson. <https://teletype.in/@nigor/m6WDHxGzU>.
3. Bo'ri haqida qiziqarli faktlar. <https://qvz.uz/qiziq/bo'ri-haqida-qiziqarli-faktlar.html>.

**Komila RADJABOVA,**

*Navoiy shahar 11-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan  
ixtisoslashtirilgan maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi*

## ONA TILI FANINI O'QITISHDA "SMALL STUDY" METODIDAN FOYDALANGAN HOLDA NUTQIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu metodik tavsiyada ona tili ta'limida "Small study" metodi orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish usullari yoritib berilgan. O'quvchilarni tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozishga, mustaqil hamda ijodiy fikrlashga o'rgatishga xizmat qiluvchi zamonaviy usullar nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** "Small study" metodi, tinglab tushunish, o'qib tushunish, so'zlash, yozish, tadqiqot, kreativ fikrlash, nutq ringi, logo, infosema.

**Annotation.** In this methodical recommendation, methods of forming students' speaking skills through the "Small study" method in mother tongue education are explained. As a result, modern methods that serve to teach students listening comprehension, reading comprehension, speaking and writing, independent and creative thinking are theoretically and practically based.

**Keywords:** "Small study" method, listening comprehension, reading comprehension, speaking, writing, study, creative thinking, speech ring, logo, infosema.

**Аннотация.** В данной методической рекомендации разъясняются пути формирования речевых навыков учащихся посредством метода "малого обучения" при обучении родному языку. В результате теоретически и практически обоснованы современные методы, способствующие обучению студентов аудированию, пониманию прочитанного, устной и письменной речи, самостоятельному и творческому мышлению.

**Ключевые слова:** метод "Малое исследование", аудирование, понимание прочитанного, говорение, написание, исследование, творческое мышление, речевое кольцо, логотип, инфосема.

Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashning o'rni beqiyos. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq" [1]. Shuning uchun bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri o'quvchilarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor, eng asosiysi, yetuk tafakkur sohibi qilib tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarish uchun esa ona tili ta'limi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatiladi. Fan mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqini o'stirish, ularga to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatib borish, so'z boyligini kengaytirish har bir ona tili o'qituvchisining bosh maqsadidir. Hozirgi kunda ilg'or davlatlarning aksariyatida ona tilidan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Zero, "Ta'lim mazmuni sirasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim" [2: 11].

So'nggi yillarda 6, 7, 10-sinf ona tili o'quv dasturlarida tubdan o'zgarish bo'ldi va darsliklar yangilandi. Amaldagi dasturda mavzular faqat nazariy bilimlardan iborat bo'lsa, yangi dastur mazmuni nazariya va amaliyotga birday yo'naltirildi. Amaliy faoliyatga qaratilgan mashq va topshiriqlar, ularning mazmuniga metodlar singdirildi, matnlar bilan ishlashga katta ahamiyat berildi. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadi-

da juda ko'plab so'zlarning izohli lug'ati taqdim etildi. Matnlar bilan ishlash uchun **to'rt ko'nikma: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish** bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi.

Darsliklarga kiritilgan mantiqiy, kreativ fikrlashga undovchi, tanqidiy-tahliliy hamda motivatsiya beruvchi matnli topshiriqlar ustida o'quvchilar bilan tizimli ish olib borishda innovatsion yondashuvga asoslangan hamda bugun men o'z faoliyatimda samarali qo'llayotgan **Small study** metodi yordamida o'qitsak, fanni o'zlashtirish bo'yicha yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin.



**Small study** – ingliz tilida "kichik tadqiqot" ma'nosini anglatuvchi metod bo'lib, to'rt muhim nutqiy ko'nikma: tinglab tushunish, nutq so'zlash, o'qish, yozishga asoslangan innovatsion usullarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu metod milliy o'quv dasturi asosidagi mavzularni

kichik tadqiqotlar sifatida o'rganishda juda qulay va qiziqarli. Darslarni mazkur metod asosida tashkil etish uchun rasmdagidek ko'rgazmali qurol tayyorlan- sa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Small study" metodining qo'llanishi:

darslarni milliy o'quv dasturi asosida tashkil etishda; o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda;

matnlar bilan ishlashda;  
o'tilgan mavzularni takrorlashda;  
yangi mavzuni o'rganish jarayonida;  
mavzuni mustahkamlashda;  
mustahkamlash darslarida;  
mahorat darslarida;  
iqtidorli hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlaganda;  
ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan barcha darslarda.

#### “Small study” metodining afzalligi:

bu metoddan foydalanib, 5–11-sinflar kesimida kichik tadqiqot o'tkazish mumkin;  
metod asosidagi usullarni qo'llash alohida sharoitlar talab etmaydi;  
bitta matn ustida ishlanganda deyarli barcha usullarni bosqichma-bosqich qo'llash imkoniyati bor;  
o'quvchilar bilimi va savodxonlik darajasi oshishi, tafakkuri rivojlanishi uchun xizmat qiladi;  
o'quvchilarni faol, sergak, tezkor bo'lishga, mustqil fikrlashga undaydi;  
tarkibidagi o'yin-topshiriqlar orqali bir vaqtning o'zida bir qancha yoki barcha o'quvchini baholash mumkin;  
fan, kasb va mavzulararo integratsiya amalga oshadi.

#### “Small study” metodining natijaviyligi:

mazkur metod asosidagi usullardan samarali foydalanish ona tili fanidan, 5–11-sinflar kesimida o'quvchilar bilimining UO'TDTS talablariga mos kelishiga yordam beradi;

o'quvchilarning ona tili faniga qiziqishlari oshadi;  
interfaol usuldagi noan'anaviy darsni tashkil etishga ko'maklashadi;

o'quvchilarning mustaqil va kreativ (ijodiy) fikrlashi talab darajasida bo'lishiga erishiladi;

ravon jumlar tuza olish, og'zaki va yozma nutq madaniyatiga amal qilish kabi intellektual fazilatlarini o'sadi;

o'quvchilarni barcha sohalarda marrani baland olib kurashishga undaydi.

#### “Small study” metodida baholash:

yangi baholash tizimiga asosan baholanadi;  
(sinf ishi – 6 ball, uyga vazifa – 4 ball);  
har bir usul uchun alohida rag'batlantiriladi;  
guruh bo'lib ishlaganda jamoaviy tarzda rag'batlantirish bo'ladi;

ijodiy yondashgan holda qo'shimcha rag'batlarni ham qo'llash mumkin.

#### “Jumla javohirin joyla” usuli

Ona tili ta'limida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu o'quvchilarning tinglash orqali axborot olish, uni tahlil qilish va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

“Jumla javohirin joyla” usuli **tinglab tushunish** ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ko'nik-

mani shakllantirish jarayonida o'quvchilarning yoshiga va til darajasiga mos keladigan qiziqarli va mazmunli matnlar tanlanadi. Bolalar tinglayotgan matndan asosiy g'oya, ma'lumotlarni ajratib oladilar. O'quvchilar QR kodni skanerlab audiomatni eshitish orqali gapda tushirib qoldirilgan mavzuga oid so'zlarni, ya'ni javohirlarni o'z o'rniga joylashtirishlari kerak bo'ladi. Quayligi shundaki, bunda matnlar darslik va qo'shimcha adabiyotlardan tanlanishi mumkin. Tinglab tushunish ko'nikmasi ona tili ta'limining boshqa jihatlari (o'qish, yozish, so'zlash) bilan uyg'un ravishda rivojlantirilganda samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan muntazam kuzatuv va moslashtirilgan yondashuv zarur.

**Namuna:** Audiomatni tinglang va bo'sh o'rinlarni to'ldiring.



#### “Amma”m bilan “amaki”m bitta so'zmi?

Chunki bu so'zlarning biri \_\_\_ (1) larga nisbatan, biri esa erkak \_\_\_ (2)ga nisbatan qo'llanadi.

“O'zbek tilining etimologik lug'ati”da izohlanishicha, \_\_\_ (3) so'zi ham, “amma” so'zi ham bitta ildizdan o'sib chiqqan bo'lib, ularning tub ma'nosi arabchada “otaning akasi” ma'nosini anglatadi.

Bir qarashda \_\_\_ (4) so'zining “amaki” so'zi bilan tub ma'nosi bir xil ekanligini anglash qiyinroqday.

**Javoblar: 1 – ayol; 2 – qarindosh; 3 – amaki; 4 – amma.**

#### “Nutq ringi” usuli

Gapirish nutqiy ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning o'z fikrlarini mantiqiy, aniq va ta'sirli tarzda ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabning asosiy vazifasi o'quvchida tinglovchiga huzur bag'ishlovchi ravon, ta'sirchan, ixcham nutqni tarbiyalashdan iborat. O'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlarni qo'llash lozim.

Milliy o'quv dasturi asosidagi darsliklarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish uchun maxsus bo'limlar kiritilgan, nutqni o'stirish, tilning sofligi, jamoa oldida ta'sirchan nutq so'zlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarishda “Nutq ringi” usuli qo'l keladi. Bu usulni samarali tashkil etish uchun quyidagi yondashuv va usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Gapirish ko'nikmasining maqsadlarini aniqlash.
2. O'quvchilarni fikrni og'zaki aniq va izchil ifoda etishga o'rgatish.
3. Har xil kommunikativ vaziyatlarda (rasmiiy va norasmiiy suhbatlar, muhokamalar) mos nutq uslubidan foydalanishni shakllantirish.
4. O'quvchilarni o'z fikrlarini boy va mazmunli so'z boyligi bilan ifoda etishga yo'naltirish.

“Nutq ringi” usulidan yakka tartibda va kichik guruhlarda ishlashda, darsning tashkiliy yoki mustahkamlash qismida foydalanish mumkin. Mashg'ulotda jamoa-

lar yoki o'quvchilar o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan vaziyatdagi qarashlarni o'z nutqlarida yoritib, asoslab beradilar. Natijada **gapirish ko'nikmasi** rivojlantiriladi.

#### Namunaviy vaziyatlar:

An'anaviy sportmi yoki kibersportmi?

Maktab uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?

Oliy ta'limda o'qish yoki ishga kirish?

#### 1-notiq yoki jamoa an'anaviy sportning afzalliklarini gapiradi.

An'anaviy sport turlari (futbol, kurash, tennis, basketbol va boshqalar) zamonaviy sport turlaridan farqli ravishda ko'plab afzalliklarga ega. Ular jismoniy faollikni oshiradi, mushaklarni kuchaytiradi va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi. Ba'zi sport turlari xalqning tarixi va madaniyatini aks ettiradi (masalan, o'zbek kurashi yoki milliy chavandozlik o'yinlari). Sport mashg'ulotlari va musobaqalar qat'iy intizom va mas'uliyatni talab qiladi, bu esa kishini har tomonlama tarbiyalaydi. Jismoniy mashg'ulotlar stressni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va ruhiy holatni barqarorlashtiradi. Ushbu afzalliklar sababli an'anaviy sport turlari nafaqat sog'liq uchun, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun ham muhimdir.

2-notiq yoki jamoa kibersportning afzalliklarini so'zlaydi.

Kibersport so'nggi yillarda katta mashhurlikka erishdi. U mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish, tezkor qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Musobaqalarda ishtirok etish kibersportchilarni bosim ostida ishlashga o'rgatadi, bu esa ularga turli murakkab vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradi. Kibersport professional o'yinchilarga homiylik, mukofot pullari va reklama shartnomalari orqali daromad topish imkonini beradi. Kibersport texnologiyaga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bu esa dasturlash, grafik dizayn, va IT sohalariga kirish uchun motivatsiya bo'lishi mumkin. Kibersport yoshlar uchun

qiziqarli, raqobatbardosh va ijodiy bo'lib, ularga vaqtni mazmunli o'tkazish imkonini beradi. Kibersport nafaqat o'yin-kulgi, balki intellektual va ijtimoiy rivojlanish vositasi sifatida ham katta salohiyatga ega.

#### “Infosema” (“Qisqa ma'lumot”) usuli

**O'qib tushunish** ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonida dolzarbdir, chunki bu ko'nikma o'quvchilarga vizual axborotni tahlil qilish, undan kerakli ma'lumotlarni ajratib olish va tushunchalarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Mazkur usulda o'quvchi infografikalar, ya'ni rasm, jadval, infogramma, diagrammada tasvirlangan ma'lumotlarni o'qib tushunishi va shu asosida berilgan topshiriqlarni bajarishi lozim. Shuningdek, bu jarayon boshqa til ko'nikmalari (yozish va nutq so'zlash) bilan bog'liq holda olib borilishi mumkin.

“Infosema” usulini samarali amalga oshirish bosqichlari:

Dars jarayonida qisqa va sodda infografikalar (rasm, jadval) bilan ishlashni boshlash.

Infografika mazmunini guruhda muhokama qilish va asosiy xulosalarni chiqarish.



O'quvchidan yoki guruhlardan tushungan asosiy ma'lumotlarini so'zlab berishni so'rash.

Asta-sekin murakkabroq grafiklar va diagrammalarni tahlil qilishni o'rgatish.

Ta'lim oluvchilarga mustaqil ravishda infografika yaratishni o'rgatish.

O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish, o'quvchilarning vizual fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularning ma'lumotni mantiqiy tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat ona tili ta'limida, balki hayotning boshqa sohalarida ham ma'lumot bilan ishlashga tayyor bo'ladilar.

#### Namunaviy topshiriq:



**Namuna:** Islomxo'ja minorasi eng baland minoradir.



O'quvchi rasmi diagrammaga asoslanib, quyidagi cha matn tuzib, gapirishi mumkin:

1127-yilda qurilgan Kalon minorasi eng qadimiy va 46,5 metr balandlikda bo'lib, **balandroq** minoralar orasida ajralib turadi. 1852–1855-yillarda qurilgan Xiva minorasi esa 29 metr balandlikda bo'lib, undan **pastroq** hisoblanadi. **Eng baland** minora esa 1908-1910-yillarda qurilgan Islomxo'ja minorasi bo'lib, uning balandligi 56,6 metrga yetadi. Ushbu minoralar o'z davrining go'zal me'morchilik durdonalaridir.

### “Logo” usuli

Yozish nutqiy ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarda ifodalovchanlik, ijodkorlik, va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga yozishning turli shakllarini (*matn, hikoya, insho, maqola, esse*) o'rgatish kerak. O'qituvchi faqat nazariy ma'lumotlarni berish bilan cheklanmasdan, amaliy mashqlar va qiziqarli faoliyatlar orqali o'quvchilarga yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi yondashuvni qo'llashi muhimdir. Bu nafaqat yozish ko'nikmasini, balki o'quvchilarning umumiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. “Logo” xuddi shu maqsadni amalga oshirishda qo'l keladigan innovatsion usuldir. “Logo”, ya'ni “logotip” yunoncha so'z bo'lib, “so'z” va “belgi” degan ma'noni bildiradi. Logotipdan turli o'rinlarda: bannerlarda, ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda foydalaniladi. Istalgan narsa, shaxs, joy va jarayonni tanitishda asosiy vosita – logotip. Bu usulda o'quvchilarga turli xil rangsiz logotiplar tasviri tarqatiladi. O'quvchilar avval logotiplarni bo'yashlari, so'ng o'tilayotgan grammatik mavzu asosida logotip tasviridan foydalanib yozma matn yaratishlari kerak bo'ladi. Bu qiziqarli usul orqali **yo'zish ko'nikmasi** rivojlantiriladi, shuningdek, tasviriy san'at fani bilan integratsiya qilinadi, iste'dodli, ijodkor o'quvchilar aniqlanadi.



### SAXIY TABIAT

Tabiat insoniyatga o'zining saxiyligi bilan yuksak ne'matlarni taqdim etadi. Daraxtlar bizga toza havo, xushta'm mevalar va soya berar ekan, daryolar hayotbaxsh suvini in'om qiladi. Bu saxovatli manbalar orqali insonning turmushi boyiydi.

Bahor kelishi bilan gullar ochilib, tabiat uyg'onadi. Kuzda esa yer hosil bilan siylaydi. Hattoki cho'l va tog'li hududlarda ham o'simliklar, hayvonlar va boshqa tabiiy boyliklar inson uchun xizmat qiladi. Bularning barcha-

si tabiatning saxiyligidan darakdir. Ammo bu saxiylikni asrash va qadrlash – har bir insonning burchidir. Agar biz tabiatga mehr va e'tibor bilan yondashsak, u kelajak avlodlar uchun ham o'z boyliklarini saqlab qoladi. Shunday ekan, tabiatni seveylik, uni avaylab-asraylik!

Xulosa qilib aytganda, “**Small study**” metodi tarkibidagi har bir usul bilim oluvchining nafaqat fanini nazariy jihatdan yaxshi o'zlashtirishiga, balki milliy o'quv dasturi bo'yicha muhim til ko'nikmalarini faol rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga, qolaversa, fanlararo integratsiyani amalga oshirishga yordam beradi.

Zero, jamiyatdagi har bir shaxs o'z ona tilini puxta o'rganib olsagina, uning zehni, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O'z tilining keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bema'lol foydalana oladigan shaxsgina boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlay oladi.

### “Small study” metodi asosida tashkil etilgan dars ishlanmasi (6-sinf)

Mavzu: Biznes g'oya nima? Tinish belgilari (ko'pnuqta)

Dars maqsadi:

– **ta'limiy**: o'quvchilarga biznes g'oya, biznes reja tushunchalari haqida ma'lumot berish, ko'pnuqta tinish belgisining qo'llanishini o'rgatish.

– **tarbiyaviy**: o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish.

– **rivojlantiruvchi**: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish.

**Dars turi**: yangi bilim beruvchi.

**Dars shiori**: Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!

**Dars metodi**: “**Small study**” (“Kichik tadqiqot”).

**Dars usuli**: guruhlarda va individual ishlash

**Dars jihozi**: “Small study” ko'rgazmasi, guruh nomlari yozilgan ko'rsatmalar, kompyuter, elektron doska, mavzu asosida tayyorlangan audiomatn, tarqatma materiallar, A3 shaklda yozilgan dars shiori, baholash uchun maxsus varaqalar

T/r	Dars bosqichlari	Reglament
1	<b>Tashkiliy qism:</b> a) “Noo'rin so'zlar qutisi” – psixologik iqlim yaratish; b) o'quvchilarni guruhlarga bo'lish	5 daqiqa
2	<b>O'tilgan mavzuni so'rash:</b> 1-tadqiqot: “ <b>Nutq ringi</b> ” usuli .	7 daqiqa
3	<b>Yangi mavzu bayoni:</b> a) 2-tadqiqot: “ <b>Infosema</b> ” usuli; b) mavzu taqdimoti; c) 3-tadqiqot: “ <b>Jumla javohirin joyla</b> ” usuli.	20 daqiqa

4	<b>Mustahkamlash:</b> 4-tadqiqot: “Logo” usuli.	10 daqqa
5	<b>Dars yakuni:</b> a) baholash; b) uyga vazifa berish.	3 daqqa

**Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism.

**O’qituvchi:** “Til-xalqning ulug’ karvon yo’li, tafakkur yo’li. Bu yo’ldan xalqning tarixi o’tadi. Tili ilgarilamagan elning ma’naviyatida yuksalish bo’lmaydi, o’zligidan yiroqlashadi. Hazrat Navoiy aytadilar:

*Donayu dur so’zini afsona bil,  
So’zni jahon bahrida durdona bil [3].*

Qadrlı o’quvchilar! Navoiy bobomiz ko’kka ko’targan o’zbek tili sofligini asrab-avaylash siz-u bizning vazifamiz! Xo’sh, til sofligini nimalar buzadi?

O’quvchi: varvarizmlar, parazit so’zlar, chet tillardagi so’zlarni aralashtirib gapirish. Hozir barchangiz nutqingizdagi noo’rin so’zlarni tarqatilgan qog’ozchalarga yozing. Ularni “Noo’rin so’zlar qutisi”ga solamiz. Maqsadimiz – so’zlardan voz kechib, endilikda nutqimizda qo’llamaslik. Chunki o’z ona tilini buzib gapirish zamonaviylik emas, o’ta madaniyatsizlikdir. Ko’rkli tilimizni ardoqlaylik!”

O’qituvchi o’quvchilarni she’riy tarzda “Yaxshilik”, “Go’zallik” va “Mehr” guruhlariga bo’ladi.

*“Shogirdim, bog’ingga bir nihol qada,  
Bu nihol nomini YAXSHILIK ata.  
Niholing yoniga bir gul ekib qo’y,  
Bu gulning nomini GO’ZALLIK deb qo’y.  
Gul-u niholingga baxsh etib hayot-  
Suv ber va bu suvga MEHR deb qo’y ot.  
Sendan kelajakka bog’ qolsin, ey do’st,  
Bog’ing Vatan degan nom olsin, ey do’st”.*

Darhaqiqat, Vatan – yurakdagi javohir, eng oliy qadriyat. Shu sababli bugungi mashg’ulotimiz shiori: “Bir bo’lsak - yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!”

Darsimizni “Small study” – “Kichik tadqiqot” metodi asosida tashkil etamiz. Yaxshi bilamizki, tadqiqot – o’rganish natijasida olingan xulosalar majmuyi. Mazkur tadqiqotimiz to’rt bosqichni qamrab oladi. Siz amalga oshirayotgan izlanishlaringiz natijasida muhim ko’nikmalarg ega bo’lasiz. Ishonamanki, do’stona muhitda ishlaymiz!

Dars davomida har biringizni individual tarzda mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimiga asosan formativ baholab boraman. Shuningdek, guruhlar ham har bir tadqiqot yakunida maxsus adabiyotlar bilan rag’batlantirib boriladi.

T/r	FORMATIV BAHOLASH	Maksimal ball	O’quvchi to’plagan ball
1	<b>Uyga vazifani so’rash:</b> 1-tadqiqot: “Nutq ringi” usuli	4	
	<b>Yangi mavzu bayoni:</b>		
2	2-tadqiqot: “Infosema” usuli	2	
3	3-tadqiqot: “Jumla javohirin joyla” usuli	2	
4	<b>Mustahkamlash:</b> 4-tadqiqot: “Logo” usuli	2	
	JAMI:	10	

**2. O’tilgan mavzuni so’rash.**

Qadrlı o’quvchilar! Sizlarga uyga vazifa sifatida biznes g’oya yaratish topshirig’i berilgandi. 1-tadqiqot: “Nutq ringi” da jamoa bilan kelishgan holda har bir guruhdan uch nafar notiqning

ringga chorlaymiz. Ular chiqindilarni qayta ishlash bilan bog’liq g’oyalarni taqdimot qilish jarayonida nutq madaniyati, jo’yali, to’g’ri, ifodali gapirish, jamoa oldida o’zini tutish kabi qoidalarga amal qilishlari lozim.

Bu bosqich so’ngida guruhlar “Notiqlik san’ati” kitobi bilan rag’batlantiriladi.

Shundan so’ng yangi mavzu e’lon qilinadi. O’qituvchi nutqiy mavzuni taqdimot asosida yoritib beradi. G’oya, biznes g’oya, biznes reja tushunchalari hamda biznesni boshlash va yuritish uchun bir qator muhim omillar yoritib beriladi.

**G’oya** – inson xayoliga keladigan, ularni maqsad sari yetaklaydigan fikr.

**Biznes** – bu ma’lum bir maqsadga erishish uchun tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va almashtirishni o’z ichiga oladigan faoliyat.

**Biznes g’oya** – bu yangi mahsulot, xizmatni yaratish yoki mavjud bozorni yaxshilashga asoslangan ijodiy fikr. Bu g’oya iqtisodiy manfaatlarni hisobga olgan holda, mijozlar ehtiyojlarini qondirishni o’z ichiga oladi.

**Biznes reja:** biznesning maqsadi, moliyaviy muhim jihatlarni o’z ichiga oladigan hujjat.

**Moliya:** biznesni boshlash va yuritish uchun zarur bo’lgan mablag’larni ta’minlash.

**Marketing:** mahsulotlar va xizmatlarni mijozlarga taqdim etish va sotish.

Mavzu o’rganilgach, darslikda berilgan topshiriq asosida 2-tadqiqot, ya’ni “Infosema” usuli o’tkaziladi. Bunda bolalar chiqindilarni qayta ishlash orqali daromad olish yo’llarini berilgan rasmlar orqali o’qib tushinishlari hamda o’zlariga ma’qul kelgan g’oyani yozib, izohlashadi.

**Infosema (Qisqa ma'lumot)**

qog'oz chiqindisi  
shisha chiqindisi  
plastik chiqindi

**Menga yoqqan g'oya – bu ...**

Namuna: *Menga yoqqan g'oya – plastik chiqindidan gultuvaklar yasab, sinf xonasiga chiroyli qilib terish...*

2-bosqich yakunida o'qituvchi guruhlarini "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" kitobi bilan rag'batlantirib, qomusimizning atrof-muhitni himoya qilish haqidagi moddasini bolalarga izohlab beradi.

O'z navbatida, mazkur darsda rejalashtirilgan grammatik mavzu nazariyasi darslikda berilmagani bois o'qituvchi elektron doskada tushuntirib beriladi: "Ko'pnuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran "Turkiston viloyatining gazetisi"da muntazam qo'llangan" [4: 222].

**Ko'p nuqtaning ishlatilishi (...)**

- mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida;
- matn (jumla) qisqartirilganda;

– so'zlovchining o'ylanib qolish, ikkilanish, hayajonlanish kabi holatlarini ko'rsatishda;

– fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilganda;

- suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilganda;
- tushirib qoldirilgan harf, so'z o'rnida.



O'qituvchi: "Qadrlil bilimdonlar! 3-tadqiqotimizni "Jumla javohirin joyla!" usuli asosida olib boramiz, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiramiz. Siz QR-kod tarzida tayyorlangan audiomatni eshitib, tarqatmalardagi

gaplarda tushirib qoldirilgan so'zlarni, ya'ni javohlarni o'z o'rniga joylashtirishingiz, shuningdek, ko'pnuqtaning ishlatilish sababini izohlashingiz kerak bo'ladi" (Bu usulda har bir o'quvchining mavzuni qay darajada o'rganganligi sinovdan o'tkaziladi).

**JUMLA JAVOHIRIN JOYLA**

Audiomatni eshiting. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'ying. ko'pnuqtaning qo'llanish o'rinlariga e'tibor qarating!

Assalomu alaykum. Bilasanmi, do'stim, O'zbekistonda har kuni \_\_\_ tonnadan ortiq qattiq maishiy chiqindi to'planar ekan. Ulardan bor-yo'g'i 14 foizga yaqini qayta ishlanadi. Bunga 137 ta tashkilot jalb etilgan. Chiqindilardan foydali va kam uchraydigan materiallarni olishning o'zi 22,2 million dollarga baholanmoqda.

Nahotki... (1) Masalan... (2)

Plastiklar rang bo'yicha ajratilib, turli yot buyumlar va ifloggarchilikdan tozalanadi, xomashyo presslanadi. Shundan so'ng maydalanib, bug' qozonida ishlov beriladi, u yerda ifloggarchiliklar qoldiqlari yo'qotiladi. Keyingi bosqich - chayish va sayqallash. Natijada turli rangdagi va sifatdagi \_\_\_ larga ega bo'lamiz. Ulardan esa \_\_\_ lar, qutilar, bruschatka va boshqa buyumlar ishlab chiqariladi.

Men ham ona tili darsligimizda qog'ozni qayta ishlab, nimalar olish mumkinligi haqida o'qigandim. ... (3) Undan hojatxona qog'ozini, \_\_\_\_, qadoqlash uchun material, MDF, DVP va \_\_\_ ishlab chiqariladi.

\_\_\_ chiqindilarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi Tashrangmetzavod recycling boshqarmaning loyihaviy daromadi 40-50 foizni tashkil etmoqda. Korxonada qo'shimcha sexlarni ochish hisobiga kengaytirishni rejalashtirmoqda. Bu korxonada faoliyati ekologiyamiz tozaligiga ham yordam bermoqda.

Do'stim, balki biz ham shunday biznes bilan shug'ullansak... (4)

To'g'ri javoblar

o'n uch granula chelak karton paketlar elektron

- 1) ikkilanish
- 2) o'ylash
- 3) matndan uzib olingan fikr
- 4) tugallanmaganlik





**Tushirib qoldirilgan javohirlar:**

o'n uch, granula, chelak, karton, paketlar, elektron


**Ko'pnuqtaning ishlatilish o'rinlari:**

- ikkilanish;
- o'ylanish;
- matndan uzib olingan fikr;
- fikr tugallanmaganligi.

O'quvchilar topshiriqlarni bajargach, to'g'ri javoblar ekran orqali ko'rsatiladi va o'z-o'zini baholash tartibida tekshiriladi.

Qaysi jamoada eng zakiy ilm-u toliblar jamlangani aniqlanadi hamda guruhlarga "Ixtiro va kashfiyotlar" ensiklopediyasi topshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladigan oxirgi tadqiqotimiz – "Logo" usuli asosida tasviriy san'at fani bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilib, sizlarga turli xil rangsiz logotiplar tasviri tarqatiladi. Guruh a'zolari bilan hamjihatlikda avval logotiplarni bo'yashingiz, so'ng darslikdagi topshiriq asosida biznes reja yaratishingiz talab etiladi.



Logoni bo'yang. Ekologiyamizni asrash maqsadida chiqindilardan qayta ishlash bo'yicha biznes reja yarating.



O'qituvchi: "Yaxshilik" guruhi shisha chiqindisidan plitka ishlab chiqarish, "Go'zallik" guruhi plastik chiqindilardan, "Mehr" guruhi esa eskirgan kiyimlardan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha biznes reja yaratadilar. So'nggi tadqiqot davomida qo'shimcha rasmiy manba sifatida foydalanishingiz uchun har bir guruhga "O'zbek tilining imlo lug'ati"ni tuhfa etaman. Har guruhdan bittadan iqtidor yulduzi chiqib, jamoasining biznes rejasini taqdimot qilib tushuntirib beradi. Qani, marhamat!"

Jumladan, "Yaxshilik" guruhi quyidagicha biznes reja tuzib, taqdim etishi mumkin.

**BIZNING BIZNES REJAMIZ****Maqsad:**

Shisha chiqindisidan plitkalar ishlab chiqarish.

Amalga oshirish rejasi:

- 1) kichik guruhlarga bo'linib olamiz;
- 2) 1-guruh chiqindixonalardan, uylardan, akfa ishlab chiqaruvchi sexlardan shisha chiqindisini yig'ib keladi;
- 3) 2-guruh yig'ilgan shishalarni go'sht qiymalagichda yoki maxsus shisha maydalagichdan o'tkazishadi;
- 4) 3-guruh maydalangan shishani maxsus qoliplarga solishadi va smala qo'yishadi.

Aralashma qotadi va plitkalar tayyor bo'ladi. Avval o'z qarindoshlarimizga sotishga harakat qilamiz. Sekin-asta bozorga olib chiqamiz.

**Xarajatlar:**

Chiqindilarni yig'ish uchun yo'l xarajatlari bo'ladi xolos. Sexlardan sotib olinganda ham juda arzon narxda olinadi. Shisha maydalaydigan maxsus qurilma olguningizgacha eski go'sht qiymalagichdan foydalanamiz.

**Foyda:**

Mahsulot chiqindidan tayyorlangani uchun juda arzon yoki tekinga tushadi. Qilingan xarajat tezda qoplab, foydaga kiriladi. 80 % foydani mo'ljalayapmiz.

**Dars yakuni:**

Baholash uchun guruhdagi har bir ishtirokchining formativ bahosi e'lon qilinadi.

Faol qatnashgan o'quvchilarga chiqindilardan yasalgan sovg'achalar topshiriladi. Barcha a'zolarining ballari qo'shilib, g'olib guruh aniqlanadi va ularga "Eng zukko guruh" nominatsiyasi beriladi, qo'shni jamoalarga ham maxsus nominatsiyalar taqdim etiladi. Agar guruhlarning ballari teng bo'lib qolsa, unda do'stlik g'alaba qozonadi.



Shu o'rinda, barcha o'quvchilarga o'zim tayyorlagan "O'quvchimga tuhfa!" qo'llanmasini sovg'a qilaman.

**Uyga vazifa:** Mavzu doirasida o'rgangan atamalar lug'atini tuzish.

*"Hurmatli o'quvchilar! Bugun siz bilan o'rgangan bilimlarimiz buyuk ummondan tomchilar, xolos. O'qing, o'rganing, toki beg'ubor ko'nglingiz faqatgina ezguliklar sari talpinaversin! Zero Sizlar – Uchinchi Renessans bunyodkorlarisiz!"*

Quyidagi she'ni jamoaviy tarzda aytib, dars yakunlaymiz:

*"Kelajagi buyuk yurt – O'zbekiston bizniki,  
Dono yurtboshimiz bor, ming bir imkon bizniki.  
Ijodkorlar o'zimiz, uchib orzu ko'kida  
Sohibkamol bo'lamiz, jumla jahon bizniki!"*

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident o'qituvchi va murabbiylarni tabrikladi. – Toshkent, 2017. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/09/29/tabrik/>.
2. Yo'ldosheva D. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Razzoqov A. Alisher Navoiy haqida ikki maqola. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-razzoqov-alisher-navoiy-haqida-ikki-maqola.html>.
4. Rasulova N. Ona tilidan ma'ruzalar. – Toshkent: Nurafshon ziyo yog'dusi, 2017.

Нина РОГОЗИННИКОВА,  
старший преподаватель  
Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека

## ИЗУЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ РУССКОГО ДЕЛОВОГО ЯЗЫКА В ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ВУЗЕ

**Аннотация.** В статье рассматривается структура деловых актов старорусского периода, выделяются три основных части композиции документов, для каждой части характерны свои словесные формулы, отличающиеся постоянной синтаксической структурой и устойчивым лексическим составом. Исследуется вариативность данных формул, делается вывод о путях формирования норм деловой письменности.

**Ключевые слова:** деловые акты, старорусский период, структура документов, словесные формулы, вариативность.

**Annotsatsiya.** Maqolada mavzuga aloqador, qadimgi rus davridagi rasmiy hujjatlarning tuzilishi ko'rib chiqiladi. Hujjatlar tuzilishining uchta asosiy qismi ajratilib beriladi. Har bir qismning o'ziga xos og'zaki formulalari mavjud. Ular doimiy sintaktik tuzilishi va barqaror leksik tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu formulalarning o'zgaruvchanligi tadqiq qilinadi. Ishga aloqador rasmiy hujjatlarning meyorlarini shakllantirish usullari haqida xulosa chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** rasmiy hujjatlar, qadimgi rus davri, hujjatlarning tuzilishi, og'zaki formulalar, o'zgaruvchanlik.

**Annotation.** The article examines the structure of business acts of the Old Russian period. There are three main parts of the composition of documents. Each part has its own verbal formulas. They are distinguished by a constant syntactic structure and stable lexical composition. The variability of these formulas is investigated. A conclusion is drawn about the ways of forming business writing standards.

**Keywords:** business acts, Old Russian period, structure of documents, verbal formulas, variability.

Общественные реалии последних десятилетий вызвали определенные изменения в функционировании русского языка как на исконной территории, так и за ее пределами. Постепенное включение в процесс делового общения всё более широких слоев населения, проникновение деловых отношений в области, ранее мало для них доступные, закономерно приводят к постоянному расширению сферы официально-делового стиля языка. В результате выпускники гуманитарных и даже филологических вузов и факультетов в своей профессиональной деятельности всё чаще сталкиваются с необходимостью знания особенностей данного стиля, владения как устной, так и письменной его разновидностями. В связи с этим возрос интерес к деловому языку вообще, а у историков языка – к процессам формирования данного функционального стиля, к памятникам делового содержания. Активизировались исследования, целью которых стало выявление стилиевых особенностей языка деловых актов, определение степени литературно-языковой обработки каждой разновидности правовых документов, собственных им лексико-фразеологических норм, широты и причин отклонения от этих норм [1].

Одним из важных этапов этой работы является вовлечение в научный оборот как можно большего количества источников, ранее не исследованных с данной точки зрения. Богатый материал в этом плане могут предоставить, например, отказные книги начала XVII века южных областей России и в част-

ности Белгородской. Такого рода исследования могут способствовать формированию более широкого взгляда на особенности современного официально-делового стиля, более глубокому изучению закономерностей его развития.

«Письменные памятники были и останутся основными и главными источниками изучения истории русского языка. Именно широкое сравнительное изучение разнообразных письменных памятников может привести к выявлению процессов и закономерностей русского языка.

Для изучения истории лексики русского языка... особенно важно и интересно привлечение в качестве источников деловых памятников, язык которых сыграл важную роль в формировании русского национального языка в его устной и письменной формах» [2, с. 137].

Важную роль изучения памятников русской письменности подчеркивают и другие исследователи. Например, О.В.Никитин отмечает, что «в истории русского языка особое место принадлежит деловой письменности как одному из неотъемлемых компонентов языковой культуры и важнейшему элементу утилитарной традиции. Начиная с первых веков существования славянского кириллического письма до настоящего времени, деловое «наречие» функционирует и развивается в системе литературного языка, диалектах, в словесно-художественных произведениях и научных трудах, обслуживая организованную по жанровым, текстологическим и язы-

ковым законам оригинальную и стабильную сферу делопроизводства [3, с. 3].

В связи с этим целесообразно, по нашему мнению, изучать особенности русской деловой письменности студентами-будущими русистами в рамках дисциплин по выбору или в курсе истории русского языка.

Как и в современных деловых документах определенного жанра, в строении и формуляре отказов обнаруживается полное единообразие. В структуре отказов выделяется три обязательных части: начальный протокол, основная часть и конечный протокол.

Для каждой из этих частей характерен набор формул – отдельных словосочетаний или целых предложений, отличающихся постоянством синтаксической структуры, которые воспроизводятся в данном виде актов по традиции и характеризуются известной устойчивостью лексического состава. По степени устойчивости весь формуляр отказов можно разделить на две части. Во-первых, это предложения, синтаксическая структура и в значительной степени лексический состав которых носят традиционный характер, но допускают варьирование – формулы-трафареты. Переменной в этих формулах является часть лексических элементов, связанная с именованием участников акта отказа и конкретными ландшафтными особенностями отдельных земель. Во-вторых, это формулы-штампы, строго определенные, регулярно воспроизводимые и не допускающие лексического и структурного варьирования.

Итак, начальный протокол отказов содержит в себе: 1) традиционное, застывшее указание на дату «лета #ЗРКД» в сочетании с живой формой «году»; 2) регулярно воспроизводимую безвариативную формулу «по гсдрве црве и велико кнзя Михаила

Федоровича всеа Рсии грамоте» [4]; 3) маловариативную формулу основания отказа: «За прописью диака и по наказу воеводы».

Основная часть отказов содержит в себе следующие структурные элементы: 1) развернутую формулу именования агента, вариативно включающую в себя топо-, этно- и социоэлементы («белогородец», «кемянин», «снь боярской»); 2) перечисление действий агента, предшествующих акту отказа, допускающее варианты – «взяв с собою», «взем с собою», «взял с собою»; «вприехав в Белгородской уезд», «ехал...», «ездил...», «приехав»; «переписав в тех поместьях дворы и во дворех людеи по имяном»; 3) вариативную формулу акта отказа («отказал», «отделил», «велел отделить», «всего отделено», «отдано»); 4) описание отделяемой земли с указанием площади, границ и характера угодий; 5) формулу именования контрагента в Д.п.

Конечный протокол включает следующие элементы: 1) указание на лицо, осуществляющее отказ, и свидетелей отказа («а были с ... у отделу», «а у отказу с ... были»); 2) указание на писца («а отдельные книги писал», «а отказные книги писал дячокъ») и имя писца в деминутивной форме («Васка», «Ивашка»); 3) подписи участников акта отказа или лиц, их замещающих («к сем отделным книгам...руку приложил», «во отдеошкива места сна своего...руку приложил»).

Изучая таким образом структуру и формуляр старорусских правовых документов разных жанров и территорий последовательно на различных хронологических срезах, студенты филологических вузов, будущие филологи-русисты получают представление о процессе формирования стилевых особенностей письменной разновидности современного делового языка.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Волков С.И. Лексика русских челобитных XVII в. Формуляр, традиционные этикетные и стилевые средства. Л.: Изд-во ЛГУ, 1974; Копосов Л.Ф. Севернорусская деловая письменность XVII–XVIII вв.: Орфография, фонетика, морфология. Дис. ... докт. филол. наук. М., 2000. <https://www.dissercat.com/content/severnorusskaya-delovaya-pismennost-xvii-xviii-vv-orfografiya-fonetika-morfologiya>
2. Сороколетов Ф.П., Волков С.С. Лексика русских челобитных XVII века // Вопросы языкознания, 1975, №6.
3. Никитин О.В. Деловая письменность в истории русского языка: XI–XVIII вв. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. М., 2004. <https://www.dissercat.com/content/delovaya-pismennost-v-istorii-russkogo-yazyka-xi-xviii-vv>.
4. Памятники южновеликорусского наречия. Отказные книги. М.: Наука, 1977.

**Bekzod RAZZAQOV,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich  
ta'lim fakulteti talabasi

## ZAMONAVIY METODIKALARDAN FOYDALANGAN HOLDA ONA TILI FANINI O'QITISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Ona tili” fanini o’qitish metodikasiga oid qarashlar, xususan, kakografiya, ya’ni maqsadli ravishda xatolar kiritilgan matnni tuzatish usuli haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** imlo qoidalari, sinkveyn metodi, mashqlar, kakografiya usuli.

**Annotation.** This article examines the methodology of the discipline of “Mother Tongue”, in particular, views on cacography, that is, the method of correcting text with intentional errors.

**Keywords:** spelling rules, cinquain method, exercises, cacography method.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются взгляды на методику “Родного языка”, в частности какография, то есть метод исправления текста с намеренно допущенными в нем ошибками.

**Ключевые слова:** правила орфографии, метод синквейна, упражнения, метод какографии.


Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chogʻidan boshlab qunt bilan oʻqish, ilm va hunar oʻrganishni talab etmoqda. Shu talab asosida mamlakatimizdagi taʼlim tizimi oʻziga xos tarzda yangilandi. Zero “taʼlim – taʼlim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy koʻnikmalar berishga, shuningdek, ularning umumtaʼlim va kasbiy bilim, malaka hamda koʻnikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” [1: 1]. Bu jarayonda zamonaviy oʻzbek tilining oʻqitish metodikasini boshlangʻich sinflarda qoʻllash juda muhimdir.

“Ona tili” fani oʻquvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarini ogʻzaki va yozma ravishda erkin bayon qilishga oʻrgatadi. Yoshlarning savodxonlik darajasi shu fandan egallagan bilim va malakalariga bogʻliq. Til yordamida istalgan voqelikka nisbatan oʻz munasabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning oʻziga xos nafosatini oʻquvchilarga yetkazish, his qildirish va undan oqilona foydalanishni oʻrgatish maqsadida ona tili taʼlimidagi anʼanaviy usullardan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits soʻrov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat, sinkveyn kabi metodlar paydo boʻldi. “Metodlar – maʼlumotni, oʻqituvchi tushuntirayotgan mavzuni oson va qulay yetkazish imkonini beruvchi usullar yigʻindisi. Usullar koʻproq oʻqituvchining oʻquvchilar bilan ishlash jarayoniga bogʻliq boʻlsa, metod maʼlumotni aniq, qulay va tez yetkazish jarayoniga qaratiladi. Usullar koʻproq individuallikka bogʻliq boʻlsa, metodlar umumiylikka asoslanadi” [3: 94].

Sinkveyn – fransuzcha “*cinquans*”, inglizcha “*cinquain*” soʻzlaridan olingan boʻlib, “besh qator” maʼnosini bildiradi. Sinkveyn – maʼlumotlarni sintezlash (bir butun holatga keltirish)ga yordam beradigan qofialanmagan sheʼr. Sinkveyn tuzish gʻoya, sezgi va his-

siyotlarni bir nechtagina soʻzlar bilan ifodalash uchun muhim boʻlgan malakadir. Bu jarayon mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn metodiga quyidagi misolni keltirish mumkin (tabiiy fan misolida):



Shunday usullardan yana biri kakografiyadir. “Kakografiya” soʻzi lotincha “kakos” – “yomon xunuk”, “yoqimsiz” va “graphos” – “yozmoq” soʻzlaridan olingan boʻlib, muayyan maqsadni koʻzlab xatoliklarga yoʻl qoʻyilgan matnni tuzatirish orqali oʻquvchilarga imloni oʻrgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida oʻquvchilarning mustaqil fikrlashi, narsalarni solishtirishi, izlanishi, masalaning yechimini topishi, eng muhimi, ona tili darslarida olgan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular boʻyicha zaruriy xulosalar chiqarishiga yordam beradi. Oʻquvchilarda dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, ulardagi mutelik, tobelik, nifaollik kabi salbiy jihatlarga barham beradi. Ayniqsa fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya boʻlimlari bilan bogʻliq amaliy darslarni oʻtishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, unli va undosh tovushlar boʻyicha yetarlicha maʼlumot berilgach, mustahkamlash yoki takrorlash darslarida turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga

muvofig. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

**“So‘z ichida so‘z” o‘yini.** Ushbu o‘yin o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. So‘z tarkibi, turkumlari va so‘zning lug‘aviy ma‘nosi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi. O‘quvchida har bir so‘zga va tovushga diqqatni qaratish ko‘nikmasi shakllanadi. O‘yin avvalida o‘qituvchi xattaxtaga birorta so‘zni yozib qo‘yadi. O‘quvchilar esa ana so‘z tarkibidagi tovushlar ishtirokida yangi so‘zlar hosil qiladilar. Agar o‘yin guruhlar o‘rtasida o‘tkazilsa, har bir guruh navbatma-navbat bittadan so‘zni xattaxtaga yozib boradi. So‘z topa olmagan guruh yengilgan hisoblanadi [5: 98]. 4-sinflar uchun amaldagi “Ona tili” darsligida shunga mos mashq berilgan: *“Tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling. Qaysi tovush talaffuzida xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkinligini ayting. A va O unlilari qatnashgan so‘zlarni guruhlarga ajratib yozing. Yozganlaringizni lug‘atdan tekshiring. Navkar, navo, shovla, gavda, karam, qassob, tomosha, kampsot, qaloq, hovo, Komil, Komol, lavozim, ravshan, qavs, gavjim, karavat”* [2: 13]. Fan yuqoridagi usullar yoradami-da o‘qitilsa, bolalarda faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy ko‘nikmalar ham shakllanadi.

Tajribalardan ma‘lumki, o‘quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirishmaydi. So‘zlar qanday talaffuz qilinsa, shunday yozadilar. Shuningdek, ularning nutqidagi dielektal xatolar savodxonligiga ham soya soladi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasi qotib qolishiga sabab bo‘ladi. Masalan, *boho, bohor, yuldus, tiyatr, sovol, o‘rden, obot, marvarit, shamba, ma’sul* tarzida talaffuz

qilish va shunday yozish amaliyotda ko‘p uchraydi. Bu kabi xatolarning oldini olish maqsadida “O‘zbek tilining imlo qoidalarini”dagi “Unlilar va undoshlar imlosi” [4: 2] yuzasidan tegishli nazariy mavzular o‘tilgach, quyidagicha topshiriq berish mumkin: *“So‘zlarni o‘qing, xato yozilgan o‘rinlarni topib, ularni o‘zbek tilining imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chiring: bugalter, hayol, xayol, xalol, momila, xuquq, rekr, konferensiya, kampsyuter, maylis va hokazo”*.

So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi: *buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis*. Kakografiya yo‘nalishidagi bunday topshiriqlarni bajarib, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;

– O‘quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarini esga olishga harakat qiladi.

– Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

– Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilardagi ko‘rish, eslash, solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi xususiyatlar rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz yoshlar O‘zbekistonning qanotlarimiz. Oldimizda millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiri sanalgan o‘zbek tilini mukkamal o‘rganish, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish vazifasi turibdi. Bunga yangi metodikalar yordamida erishish mumkin. Zero davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

#### Foydaniilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.

2. Ona tili. 4-sinf I qism. Darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi. Darslik – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori.

5. Ibragimova F. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2021.

**Munisa KARIMQULOVA,**  
 Andijon viloyati Andijon tumanidagi 53-umumta'lim  
 maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## O'LMAS UMARBEOVNING "QIYOMAT QARZ" ASARINI O'RGATISHGA DOIR SAMALARI METODIK TAVSIYALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 7-sinf o'quvchilariga O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" hikoyasini qanday interaktiv usullar orqali o'rgatish ko'rsatib berilgan. Mavzu doirasida bir nechta loyiha ishlari ham taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** tahliliy-tanqidiy fikrlash, interaktiv usullar, "Shpargalka" usuli, "Tanish qahramon" usuli, "Mantiq vaqti" usuli, "Tinglab tushunish" usuli, "Mening fikrim" usuli, "Test vaqti" usuli.

**Annotation.** This article shows how to study Olmas Umarbekov's story "The Doomsday Debt" in the 7th grade using various interactive methods. Several project works are also presented.

**Keywords:** analytical and critical thinking, interactive methods, "Table" method, "Familiar Character" method, "Logical Time" method, "Listening comprehension" method, "My Opinion" method, "Test Time" method.

**Аннотация.** В данной статье показано, как изучать рассказ Олмаса Умарбекова "Долг Судного дня" в 7-м классе с помощью различных интерактивных методов, а также представлено несколько проектных работ.

**Ключевые слова:** аналитико-критическое мышление, интерактивные методы, методы "Таблица", "Знакомый персонаж", "Логическое время", "Аудиорования", "Мое мнение", "Тестовое время".


Adabiyot zamonlar osha insonlarga odob-axloq qoidalari, insoniy mehr-oqibat, yuksak fazilatlar bobida namuna, o'rnak bo'lib kelmoqda. Hayotdagi qahramonlar badiiy asarlarda turli prizmalarda, holatlarda aks etadi. Yozuvchi har bir qahramonning hayotdagi prototipini badiiy asarda yanada rivojlantiradi [1: 97]. Shu sababli asarni o'qib borayotgan kitobxon beixtiyor uning olamiga kirib ketadi. Uning als mohiyatini to'la tushunish va tahlil qilish, albatta, o'quvchilar uchun oson kechavermaydi. Shuning uchun o'qituvchidan dars davomida asar g'oyasini ochib berishda turli usul va o'yinlardan foydallash talab etiladi.

Amaldai "Adabiyot" darsliklaridagi berilgan hikoya va she'rlar ham o'zining chuqur ma'noga ega ekani bilan o'quvchini o'yga toldiradi. Quyida mashhur yozuvchi O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" asarining dars davomida o'rganish usullarini ko'rib chiqamiz.

### "Shpargalka" usuli [2].

- Kutiladigan natijalar:
- O'quvchilarning diqqatini jamlaydi;
- Mantiqiy fikrlashga o'rgatadi;
- Ma'lumotlar yodda qolishiga yordam beradi.

Ushbu usulga ko'ra, maxsus ko'rgazmali qurolga adib hayoti va ijodiga oid so'zlar yozib qo'yiladi. Shu so'z yordamida o'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlarni aytib berishadi. Misol uchun:



### "Tanish qahramon" usuli


Murabbiy badiiy asarni to'laqonli o'rgata olishi uchun o'quvchilar, avvalo, asar qahramonlari bilan tanish bo'lishi talab etiladi. Chunki voqealar rivojini aytib berishda va qahramonlarni solishitirishda bu juda muhim. Tavsiya etayotgan usulimiz bu jihatdan ustozlarga qo'l keladi.

Qo'llanish tartibi:

Tarqatma qog'ozlarga asardagi qahramonlar ismi yoziladi. Istalgan o'quvchi chiqib, bitta tarqatmani oladi va unda yozilgan qahramonga ta'rif beradi. Qolgan o'quvchilar esa ta'rifga asoslanib gap qaysi qahramon haqida ekanini topadilar.

Kutiladigan natijalar:

- O'quvchilarni qiziqtirib, dars jarayoniga ipsiz bog'laydi;
- O'quvchilar asardagi barcha qahramonga xos xususiyatlarni bilib oladilar;
- Ularni tahliliy-tanqidiy fikrlashga o'rgatadi.



Sarsonboy ota – iymonli, diyonatli, bironing omonatini saqlay oladigan inson.

G'ofurjon – urushda halok bo'lgan; ota va onasining yolg'iz farzandi.

Zebi – farzandidan urush tufayli ayrilgan, faqatgina turmush o'rtog'igagina suyanadigan ayol.

O'yin shu tartibda davom etadi.

### “Mantiq vaqti” usuli

Ushbu o‘yinimizda o‘quvchilar mantiqiy, tahliliy fikrlashga o‘rgatiladi. Chunki darsdan kutiladigan maqsadlardan biri o‘quvchilarni tahliliy-tanqidiy fikrlashga yo‘naltirishdir. Farobiy ham mantiqiy fikrlash haqida shunday degan edi: “...Mantiqiy fikrlash jarayonida insonning aqli chiniqadi, inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi” [3: 102]. Anglashiladiki, bugungi kun o‘quvchisiga ham aqlni chiniqtiruvchi usullar orqali dars berish lozim. “Qiyoma qarz” asaridagi voqelik asosida quyidagicha savollar berish mumkin:

1. Nima uchun Sarsonboy ota: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim, avji bozor”, – dedi?

2. Sarsonboy ota nima uchun doim deraza yoniga o‘tiradi, bunda qanday majoziy ma‘no bor?

3. Yozuvchi ko‘prikni lapanglangan tuyaga o‘xshatishida qanday ma‘no bor deb o‘ylaysiz?

4. Zebi xolaning dahshatli yig‘isi va tog‘ning aks sadosida qanday uyg‘unlik bor deb o‘ylaysiz?

Ushbu savollar orqali o‘quvchilar asardagi majoziy timsollar va yozuvchining mahoratini to‘laqonli anglashlariga, badiiy tahlilni chuqur qilishlariga yo‘naltiriladi.

Usulning afzalliklari:

- Diqqatni jamlaydi;
- Berilgan vaziyatga o‘z munosabatini bildira olish sifatlarini shakllantiradi;
- Asar mazmunini chuqur anglashga yordam beradi.

### “Tinglab tushunish” usuli

Bizga ma‘lumki, so‘nggi paytlarda o‘quvchining diqqatini jalb etishda turli usullar orasida tinglashga oid mashqlar yaxshi samara berayotgani aytilmoqda. Asarni o‘rganishda unga oid audiolar yoki spektakldan foydalanishimiz mumkin. Bu odatiy darsdan ko‘ra qiziqarliroq bo‘ladi va ko‘proq samaraga erishiladi.

(Asar asosida sahnalashtirilgan spektaklni ushbu havola orqali ko‘rishingiz mumkin: [https://www.google.com/search?q=qiyomat+qarz&oq=&aqs=chrome.1.35i39i362i18.16343644j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8#\(4\)](https://www.google.com/search?q=qiyomat+qarz&oq=&aqs=chrome.1.35i39i362i18.16343644j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8#(4)))

Shuningdek, asarga oid suratlarni taqdim etish yoki spektakldan eng ta‘sirli o‘rinlarni monitor orqali o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Zero Y.A.Komenskiy:

“Eshitsam – unutaman, ko‘rsam – eslab qolaman, bajarsam – anglab yetaman” deb ta‘kidlagan [4: 56].

### “Mening fikrim” usuli

Har bir insonning o‘z fikri, o‘z qarashlari bo‘ladi. Bu qarashlar bir-biriga o‘xshamaydi. Aynan shundan foydalanib, o‘quvchilar o‘rtasida maktub yozdirib, asar va uning qahramonlari yuzasidan ularning o‘ziga xos fikrlarini bilib olishimiz mumki.

Bajarilish tartibi:

- O‘quvchilar asardan biror obrazni tanlashadi;
- Aynan shu obrazning o‘ziga xos jihatlari aytiladi;

– Shu qahramonga atalgan dil so‘zlari, ya‘ni asardan kelib chiqqan holda maslahat va tavsiyalari yoki fikrlari maktub shaklida yoziladi;

- O‘qituvchi barcha maktublarni o‘qib beradi;
- Eng ta‘sirchan maktub egasi aniqlanadi;
- O‘qituvchi uni tahlil qiladi.

Sarsonboy ota

Haydarali

Zebi

Kutiladiga natijalar:

- O‘z fikrini erkin bayon eta olish;
- Berilgan vaziyat yuzasidan tahlil qila olish;
- Solishtirish-taqqoslash sifatlarini yuksaltirish.

### “Test vaqti” usuli

Har bir dars davomida tezkor testlarning berib borilishi o‘quvchilarni fan yuzasidan o‘tkaziladigan turli sinovlarga tayyorlab boradi. Asar yuzasidan quyidagicha tuzilgan testlar tarqatiladi va bu orqali bolalar asarni yaxshi eslab qopladilar. Bu testning o‘zgachaligi – savol yozilmasligida. O‘qituvchi og‘zaki aytadi, o‘quvchilar esa to‘g‘ri variantni topadilar.

**O‘quvchi:** *Tarqatmalardagi fikrlardan qaysi biri noto‘g‘riligini toping.*

1. Sarsonboy ota doimo sinq deraza yonidagi joyda o‘tirardi.

2. Madumar aka Qo‘ylarni kolxozga berib yubor deb maslahat beradi.

3. Kaklik ovlovchi yigitlar otani xafa qilib qo‘yishadi.

1. Sarsonboy ota Haydarali kelsa, harqalay to‘y ko‘rib qolardim deb niyat qiladi.

2. Kaklik ovlovchilar juda ko‘p kaklik tutadilar.

3. Sarsonboy ota qoy‘larni yigirma yildan buyon boqib kelyapti.

Kutiladigan natijalar:

- Taqqoslash sifatlarini yuksaltiradi;
- Asar matnining to‘la o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi;
- Darsga qiziqishini oshiradi.

Hozirgi kunda barcha fanlar kesimida turli loyiha ishlaridan foydalanish, sinfni jamoaviy ishlatish va bu orqali yuqori samaraga erishish eng yaxshi usullardan hisoblanmoqda. Bu, ayniqsa, mavzuning yanada chuqur anglanishi hamda to‘la o‘zlashtirilishida yaxshi samara beradi. Quyida hikoyamizga doir loyiha ishini taqdim etamiz.




### Loyiha ishi

Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga quyidagi obrazlar haqida ma'lumotlar bilib kelish topshiriladi:

1. Ikromjon;
2. Komil tabib;
3. Oqsoqol.

Sinf 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan obraz beriladi. O'quvchilar shu asosda o'ziga berilgan obraz haqida ma'lumotlar yig'ib kelishadi. Keyingi darsda shu obrazlar Sarsonboy ota obrazi bilan solishtiriladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. "Shpargalka usuli". <https://t.me/Krepeduz>.
3. Abu Nasr Farobiy. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R., Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

Muhayyo RAJABOVA,  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi  
23-maktabning ingliz tili o'qituvchisi

## INGLIZ TILINI FANLAR KESIMIDA BOG'LASH AMALIYOTI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fanlararo aloqadorlik, xususan, ingliz tili darsini boshqa fanlar bilan integratsiyalash usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** fanlararo aloqadorlik, interfaol metodlar, ingliz tili, ona tili, tabiiy fanlar, geografiya, musiqa, mavzu kompozitsiyasi.

**Annotation.** his article discusses interdisciplinary communication, in particular ways of integrating English language classes with other subjects.

**Keywords:** interdisciplinary connections, interactive methods, English language, mother tongue, natural sciences, geography, music, thematic composition.

**Аннотация.** В данной статье говорится о междисциплинарной коммуникации, в частности о способах интеграции занятий по английскому языку с другими предметами.

**Ключевые слова:** межпредметные связи, интерактивные методы, английский язык, родной язык, естественные науки, география, музыка, тематическая композиция.

Ma'lumki, chet tillarining boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi xilma-xil va ko'p funksiyalidir. Xorijiy tillar bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirishning eng samarali yo'llari fanlararo aloqadorlikda foydalanish sharti bilan o'quv fanining mazmun rejasini ham, uning kasbiy tomonini ham rivojlantirgan holda tuzishni talab etadi. Barchamizga ma'lumki, fanlar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir fanni o'rganish jarayoni boshqa bir fanning qoidalari, ma'lumotlari va haqiqatlarini o'rganishni taqozo etadi. "Shu bois ham, har qanday fanni bir-biri bilan bog'lash asosida tashkil etish eng sermahsul va yaxshi natija beruvchi usullardan sanaladi. "Integratsiya" so'zi "birlashtirish" degan ma'noni anglatib, buni darsga tadbiiq etilganda bir darsning o'zida turli fanlarni bog'lash, taqqoslash, qiyoslash asosida o'rganish mumkin. Fanlararo aloqadorlik fanlar tizimi va didaktik maqsadlar tufayli o'quv rejalari-ning o'zaro izchilligida namoyon bo'ladi. O'rganiladigan mavzularning ilmiy tabiati va tizimliligining didaktik tamoyillari o'quv rejasida alohida fanlarni shunday tartibga solishni taqozo etadiki, bir fanni o'rganish boshqa fanlarda berilgan bilimlarga tayanilishi bilan mukammal bo'ladi. "Fanlararo integratsiyalash usuli haqida Vasiliy Onishuk shunday fikrlarni bildirgan: "Har qanday fanni o'qitishda fanlararo aloqadorlik muhim o'rin tutadi. Ular, birinchi navbatda, yangi bilimlarni to'liq idrok etish, tushunish, ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlashga asos bo'lib xizmat qiladi, ikkinchidan, ular mavjud lingvistik nutq tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi va bilimlarning to'liqligini ta'minlaydi" [1: 62].

"Asosan, ona tili, adabiyot v atarix ingliz tiliga eng yaqin fanlar sirasiga kiradi. Bu tilni o'rgatishda ular-

ga tayanish zarur. Ammo ingliz tilini tabiiy fanlar yoki geografiya bilan bog'laganda qanday metodlarni qo'llagan holda dars o'tish mumkin, degan savol tug'ildi. Fanlararo bog'lanishni quyidagi tasniflarga tayanib tashkil etish, ya'ni darsni olib borish mumkin:

– ona tili bilan bog'laganda antonim, sinonim, dialog, monolog, tavsif, rivoyat, nutqning kompozitsion tuzilishini o'rgatish;

– adabiyot bilan bog'laganda matn, fikr, she'rlar, maqollar, matallar va boshqalarni keltirish;

– tasvriy san'at bilan bog'laganda portret, rasm, landshaft, mavzu kompozitsiyasidan foydalanish;

– tabiiy fanlar bilan bog'laganda gullarning nomlari va rangini, hayvon va hasharot nomlari, yashash joyi va ularga xos xususiyatlarni o'rgatish;

– geografiya bilan bog'laganda qutb tomonlari, ob-havo bilan bog'liq muammolar, tabiat qonunlarini o'rgatish;

– musiqa fani bilan bog'laganda ohang ritmi, tovush paychalarining ishlatilish o'rinlari, kuy va matn munosibligi haqida bilim berish" [1: 62].

Yuqorida qayd etilgan fanlararo bog'liqlikni birma-bir tahlillar asosida ko'rib chiqamiz. Ingliz tili fanini geografiya fani bilan bog'lab o'rganganimizda qanday bilim va ma'lumotlarni berishimiz mumkin?

**Suv havzalarining nomlari:** ocean – okean, river – daryo, sea – dengiz, lake – ko'l.

**Tabiat qonunlari:** seasons – yil fasllari, rain – yomg'ir, ice – muz, snow – qor, day – kun, night – tun.

**Ob-havo bilan bog'liq ma'lumotlar:** cold – sovuq, hot – issiq, wet – nam, dry – quruq, cloud – bulut.

**Hududga oid atamalar:** capital – poytaxt, city – shahar, country – mamlakat, state – davlat, village – qishloq, district – tuman.

Bundan tashqari, ingliz tilini geografiya fani bilan bog'lab dars o'tganda davlat bayroqlarini ham o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunda rasmi ko'rgazmalardan foydalanish ayni muddao.

Ingliz tili darsini musiqa bilan bog'lab dars o'tish

Bugungi kunda ingliz tili darsini musiqasiz tasavvur qilish qiyin, nazdimda. Chunki darsliklarda asosan boshlang'ich va quyi sinflar uchun yozilganlarida – har bitta mavzuga mos qo'shiq audiosi va matni berilgan. Tabiiyki, o'qituvchi ularni o'quvchilarga qo'yib eshittiradi. Chet tili darslarida musiqa qo'shiqlardan foydalanish til o'rganishni osonlashtirishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Musiqa va qo'shiqlarning til o'rganuvchilar uchun foydasini yoki ularning vazifasini quyidagicha sanash mumkin:

- tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish;
  - talaffuz;
  - intonatsiyani yaxshilash;
  - so'z boyligini oshirish;
  - grammatik tuzilish va til shakllarini mustahkamlash;
  - turli xalqlar madaniyati bilan tanishish" [2: 203].
- Ingliz tili darsini musiqa bilan aloqadorlikda olib borish bolaq albida san'atga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni oshirishga hamda uni ruhan tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### Ingliz tili darsini ona tili bilan bog'liqlikda tashkil qilish

Ingliz tili darsi ona tili fani bilan bog'lab o'tilganida qanday jarayonlar va metodlarni qo'llash mumkin? Fanni ona tiliga bog'lash o'quvchi va o'qituvchi uchun birdek manfaatlidir. Chunki ikkala fan orasida kata o'xshashlik va bog'liqliklar mavjud. Bunday paytda foydalanish mumkin bo'lgan metodlarni quyida berib o'tamiz.

**“Tennis o'yini” metodi.** “Ushbu o'yin asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. U xuddi zanjir o'yiniga o'xshash bo'ladi, ammo faqat tanlangan mavzu doirasida bo'ladi va so'z yakuniga qarab tugallangan harfga yangi so'z aytilishi lozim. Misol uchun, mavzu *vegetables* (sabzavotlar) haqida bo'lsa, shu mavzudan chetlashmaslik kerak. Birinchi o'quvchi *potato* (kartoshka) desa, ikkinchisi so'zning oxirgi harfi – “o”ga sabzavot nomini topishi kerak; bunga *onion* (piyoz) deb

javob berish mumkin. O'yin shu taxlitda davom etadi. To'xtab qolgan o'quvchi 5 soniya ichida javob qaytarmasa, o'yindan chetlashtiriladi. Ushbu o'yinni guruh bo'lib o'ynash yana-da qiziqarli bo'ladi” [3: 45]. O'yinni istalgan mavzu doirasida tashkillashtirish mumkin.

**“Complete with vowels” (Unli harflar bilan to'ldirish) o'yini.** “Ushbu o'yin eng ommalashgan turlardan hisoblanib, darslikda ham ko'p uchramiz. Bu o'yinning mazmuni so'zni unliharflar bilan to'ldirish topshirig'ini anglatadi. Bunda doskaga bir nechta so'zlar unli harflari tushirib qoldirilgan holda yoziladi. Masalan:

gr\_p\_s, fr\_t, v\_g\_t\_bl\_s, c\_bb\_g, bl\_ckb\_\_rd, m\_sq\_\_t, ch\_\_r...

***grapes, fruit, vegetables, cabbage, blackboard, mosquito, chair...***

O'yin yuqori sinflar uchun mo'ljallangan va unli tovushlarning farqini va to'g'ri yozish qoidalarini mustahkamlashga yordam beradi” [3: 30]. Uni xohishga ko'ra o'zgartirib tashkil qilish mumkin. Masalan, *complete with consonants* deyish ham mumkin, bunda so'zlarning unli emas, balki undosh harflarini tushirib qoldiramiz. Shuni ta'kidlash kerakki, undosh tovushlarni tiklash jarayoni biroz murakkab. Topshiriqni bir mavzuga oid so'zlardan tuzib olish o'rindidir. Sababi, so'zlarda unli tovushdan ko'ra undosh tovushlar ko'proq uchraydi va ular so'z o'zagini ochib beradi. Shu bois, undosh tovushlari tushirib qoldirilgan so'zlarni topish nisbatan qiyinroq.

Xulosa qilishimiz mumkinki, har bir fan o'ziga xos jihatlarga ega. Fanlarni o'rgangan sayin uning qirralarini kashf qilib boraveramiz. Fanlarni bir-biriga bog'lab, fanlararo integratsiyalash usulini darsda qo'llash esa eng katta samara beruvchi metod hisoblanadi. Qaysi fanlarni bir-biriga bog'lash esa o'qituvchi mahoratiga, g'oyasiga bog'liq. Yuqorida bir nechta namuna keltirilgan xolos. Buni yana kengaytirib, mavzu ko'lamini oshirib, batafsilroq yoritish mumkin. O'rganish, tajriba orttirish davomida ham bevosita mana shu usullardan foydalanamiz. O'ylaymanki, bu usul ilm ahli orasida ommalashadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova M. Shodiyorova M. Ingliz tili o'rganishda fanlararo aloqalardan foydalanish // Central Asian Academic Journal Of Scientific Research, 2021.
2. Yuldoshev A. Chet tili darslarida musiqa va qo'shiqlardan samarali foydalanish. In Science, 2023. [https://www.researchgate.net/publication/378188810\\_Chet\\_tili\\_darslarida\\_musiqa\\_va\\_qoshiqlardan\\_samarali\\_foydalanish](https://www.researchgate.net/publication/378188810_Chet_tili_darslarida_musiqa_va_qoshiqlardan_samarali_foydalanish).
3. Djuzbayev D. Ingliz tilini o'yinlar yordamida o'rganamiz. – Toshkent, 2015.

Umida XUDOYQULOVA,  
Buxoro viloyati Romitan tumanidagi 30-sonli  
umumta'lim maktabining  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINI O'RGATISH USULLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqola leksikologiya bo'limida o'rganiladigan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqidagi mavzuni o'qitish usuliga bag'ishlangan. Unda omonim, sinonim, paronim va antonim so'zlar haqida batafsil ma'lumot hamda ularni to'g'ri tahlil qila olish uchun bir nechta amaliy mashqlar berilgan. Maqolaning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, "Sirli so'zlar" metodi orqali ona tili bir nechta fanlar bilan integratsiya qilingan. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi omonim so'zlarning turk, rus va ingliz tilidagi muqobili ham keltirilgan bo'lib, bu o'quvchilarning til savodxonligini oshiradi. Maqola ona tilini o'qitish jarayonida so'zlarning ma'nosini chuqur o'rganish va to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Mavzu leksikologiyaga doir bilimni mustahkamlamoqchi bo'lganlar uchun foydali bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** omonim, paronim, antonim, dublet, sinonim, dominant, ko'p ma'nolilik.

**Annotation.** This topic is dedicated to the study of the types of words according to the form and meaning of the lexicology branch. It provides detailed information about homonyms, synonyms, paronyms, and antonyms, as well as several practical exercises to help you correctly analyze these phenomena in words. One of the unique aspects of this article is that the mother tongue is integrated with several subjects through the "Mystery Words" method. In addition, Uzbek homonyms in Turkish, Russian and English are also given, which helps to improve students' language literacy. The article helps to learn the meaning of words in depth and use them correctly in the process of teaching the mother tongue. The topic will be useful for those who want to strengthen their knowledge of lexicology.

**Keywords:** homonym, paronym, antonym, doublet, synonym, dominant, ambiguity.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению типов слов в разделе лексикологии с точки зрения их формы и смысловых отношений. Подробно рассмотрены омонимы, синонимы, паронимы и антонимы, а также приведены практические задания для правильного анализа этих явлений в словах. Особенностью данной статьи является метод "Загадочные слова", с помощью которого родной язык интегрирован с несколькими другими дисциплинами. Кроме того, приведены эквиваленты узбекских омонимов на турецком, русском и английском языках, что способствует повышению языковой грамотности учащихся. Статья помогает углубленно изучить значения слов и правильно их использовать в процессе преподавания родного языка. Тема будет полезна тем, кто хочет улучшить свои знания по лексикологии.

**Ключевые слова:** омоним, пароним, антоним, дублет, синоним, доминанта, многозначность.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 4 turga bo'linadi.

### I. Omonim so'zlar.

Shakli, aytilishi va yozilishi, tovush (yozuvda harf) tomoni bir xil, ammo turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar omonimlardir: 1. Bel – orqa suyakning (umurtqa pog'onasining) pastki qismi. 2. Bel – yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol; belkurak. Omonimlar bir xil va har xil so'z turkumiga mansub bo'lishi mumkin.


Omonim so'z	So'z turkumi	Izohi
asar	ot	iz, ta'sir
asar	ot	ijod mahsuli
belamoq	fe'l	bashikka belamoq
belamoq	fe'l	biror narsa bilan bulg'amoq

bo'ydor	sifat	bo'yi baland
bo'ydor	sifat	hidi o'tkir


Bir so'z turkumi doirasida omonim bo'lish asosan **ot** va **fe'l** so'z turkumlari uchun xosdir. Turli so'z turkumlari doirasida kuzatilgan omonimlikka quyidagi jadvalda misol berilgan.

Omonim so'z	So'z turkumi	Izohi
nozik	sifat	nafis
nozik	ot	mayda munchoq
chalgi	ot	katta o'roq
chalgi	fe'l	Mavzudan chetga chiq.
yara	ot	jarohat
yara	fe'l	Asqat.


Agar omonimlar bir xil so'z turkumiga mansub bo'lsa, grammatik vositalar qo'shilganidan keyin ham omonimlik munosabati saqlanadi:



Agar omonimlar har xil soʻz turkumlariga mansub boʻlsa, grammatik vositalar qoʻshilganidan keyin omonimlik munosabati saqlanmaydi:



Bir xil va turli xil turkumlarga mansub uch yoki undan ortiq soʻzlarga grammatik vositalar qoʻshilganida omonimlik munosabati qisman saqlanadi.



Ushbu misolda ikkita ot soʻz turkumi orasida omonimlik saqlandi, fe'l bilan esa omonimlik saqlanmaydi.

### Omonim va ko'p ma'noli so'zlar

O'zbek tilida ayrim so'zlar o'z va ko'chma ma'no-da qo'llanadi va ular ko'p ma'noli so'zlar hisoblanadi. Masalan, *jilmaymoq* o'z ma'nosida inson harakatiga nisbatan ishlatiladi. Ba'zan bu so'z osmon jismlariga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Bu holatda ko'chma ma'no ifodalagan hisoblanadi. Masalan: *Shu choqda deraza oldiga kelib, Jilmayib boqadir quyosh – oltin qiz* [4: 86].

### Omonim so'zlarga misollar

Omonim so'z	Izohi	Boshqa tillardagi muqobili
uch	miqdor	turk: üç rus: три ingliz: three
uch	harakat	turk: uçmak rus: летатü ingliz: to fly
uch	narsaning boshlanish qismi	turk: üç rus: кончик ingliz: edge
karam [1: 74]	mehr-shafqat	turk: nezaket rus: щедростü ingliz: generosity
karam	sabzavot	turk: lahana rus: капуста ingliz: a cabbage
yeng	harakat	turk: üstesinden gelmek rus: победитü ingliz: to overcome
yeng	ko'ylak qismi	turk: kol rus: рукав ingliz: sleeve
tuz	harakat	turk: oluşturmak için rus: составлятü ingliz: to organize
tuz	mahsulot	turk: tuz rus: солü ingliz: salt
yot	uxlamoq	turk: uyumak rus: лежатü ingliz: to lie down
yot	begona	turk: yabancı rus: чужой ingliz: a stranger
soz	musiqa asbobi	turk: müzik rus: музыкальный инструмент ingliz: musical instrument

soz	juda yaxshi	turk: çok iyi rus: хорошо ingliz: very good
yuz	miqdor	turk: yüz rus: сто ingliz: hundred
yuz	tana qismi	turk: yüz rus: лицо ingliz: face
sud	davlat organi	turk: mahkeme rus: суд ingliz: court
sud	foyda	turk: fayda rus: полüза ingliz: benefit
pul	predmet	turk: para rus: денüги ingliz: money
pul	ko'prik	turk: köprü rus: мост ingliz: bridge
oq	rang	turk: beyaz rus: белый ingliz: white
oq	harakat	turk: akış rus: протекатü ingliz: to flow

“Sirli so'zlar” metodi. Ushbu metodda berilgan raqamlardan foydalanib, harflarning alifbodagi o'rniga qarab so'zlar hosil qilinadi va so'zlarning omonimligi izohlanadi.

### Omonimlar mavzusiga doir topshiriqlar

So'zlarni tarjima qiling va ularning omonimligini izohlang (ona tili va rus tili)



Soʻzlarni tarjima qiling va ularning omonimligini izohlang (ona tili va ingliz tili).




Rasmlarga qarab omonim soʻzlarni toping va ikki maʼnosini ham izohlang (ona tili va biologiya).



**II. Sinonim soʻzlar**

Shakli, aytilishi va yozilishi har xil, maʼnolari bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlar sinonim, yaʼni maʼnodosh soʻzlardir. Sinonim soʻzlar sinonimik qator yoki sinonimlar uyasini hosil qiladi. Har qanday uslubiy xoslanish va soʻzlovchining bahosidan xoli boʻlgan sinonimlar qatoridagi bitta soʻz dominant sanaladi.



Maʼnodosh soʻzlar qatorini toʻgʻri tuzish, undagi bosh soʻzni ajrata olish muhimdir. Sinonimik qatoridagi maʼnosi hammaga tushunarli boʻlgan, nutqda faol qoʻllanadigan, adabiy shakl sanalgan soʻz **bosh soʻz** deb yuritiladi.



Sinonimik qatoridagi soʻzlar har doim bir soʻz turkumiga mansub boʻladi.



**Sinonim soʻzlarning farqi**

Sinonimlar garchand bir umumiy maʼnoni ifodalasa ham, maʼno darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, maʼlum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda soʻzlovchi maqsadga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi soʻzlardan birini tanlaydi.

Ot	Sifat	Feʼl
oʻch	boshqacha	bajarmoq
qasos	oʻzgacha	ado etmoq
qasd	ajib	bitirmoq
intiqom	ajoyib	oʻrinla(t)moq
alam	gʻaroyib	doʻndirmoq

Bir soʻz oʻz maʼnosi bilan ham, koʻchma maʼnosi bilan ham sinonimlikni hosil qilishi mumkin. Masalan: *oʻrin* soʻzi oʻzining asl maʼnosi bilan *joy* soʻziga sinonim. Bu soʻz yangi maʼno kasb etib, koʻchma maʼnoda kelganda *lavozim*, *mansab* kabi soʻzlarga ham sinonim boʻlishi mumkin. Yoki *bosh* soʻzi koʻp maʼnoli boʻlib, u oʻz maʼnosida *kalla* soʻziga sinonim, koʻchma maʼnolari bilan esa *asosiy*, *toʻngʻich*, *birinchi* kabi soʻzlarga sinonim boʻlishi mumkin.

Oʻzaro sinonim soʻzlar har doim ham bir soʻzga nisbatan ishlatila olmaydi. Masalan: *ishladi* va *mehnat qildi* soʻzlari oʻzaro sinonim, ammo *traktor* soʻziga nisbatan *ishladi* soʻzini qoʻllash mumkin, *mehnat qildi* soʻzini qoʻllash esa uslubiy xato.

Sinonimlarga doir topshiriq  
Quyidagi soʻzlar anglatgan maʼno yana qaysi soʻzlar orqali anglashilishi mumkinligini yozing:

basir – .....  
odat – .....  
husn – .....  
avaylamoq – .....  
ziyo – .....  
tilla – .....  
tulpor – .....

### III. Antonim soʻzlar

Oʻzaro zid, qarama-qarshi maʼnolarni bildiruvchi soʻzlar antonim soʻzlar deyiladi. Antonimik juftliklar baʼzan yangi soʻz yasalishi uchun xizmat qilishi mumkin. Masalan: *achchiq-chuchuk* – *salat*, *tun-u kun* – *har doim*, *issiq-sovuq* – *hol-ahvol*, *yosh-u qari* – *hamma*.

Tasdiq va inkor, boʻlishli va boʻlishsizlik hodisalari antonimlik munosabatini yuzaga keltirmaydi: *keldi* – *kelmadi*, *oq* – *oq emas*.

Antonim soʻzlarning maqollar tarkibida kelishiga misollar:

- **Saxi**ning ehsoniga **baxil**ning boshi ogʻrir.
- **Yaxshidan** bogʻ qolar, **yomondan** dogʻ.
- **Achchiq** haqiqat **shirin** yolgʻondan yaxshiroq.
- **Koʻp** bilgan **oz** soʻzlar, oz soʻzlasa-da soz soʻzlar.
- **Kattaga** hurmatda boʻl, **kichikka** izzatda.
- **Azob** koʻrmay **rohat** yoʻq.
- **Bevafo** yordan **vafoli** it yaxshi.
- **Nodon** doʻstdan **dono** dushman afzal.
- **Yoshni** xudo saqlar, **qarini** – ovqat.
- **Och** holini **toʻq** bilmas, **kasal** holini – **sogʻ**.

Antonimlar ham sinonimlar singari bir soʻz turkumiga mansub boʻladi.

Antonimlik munosabati koʻproq belgi bildiruvchi soʻzlar, yaʼni sifatlarda, ravishda, baʼzan ot va feʼlda uchraydi.

Ot soʻz turkumi	Sifat soʻz turkumi	Ravish soʻz turkumi	Feʼl soʻz turkumi
<i>muhabbat</i> – <i>nafrat</i> [3: 137]	<i>qorongʻi</i> – <i>yorugʻ</i>	<i>oz</i> – <i>koʻp</i>	<i>yigʻlamoq</i> – <i>kulmoq</i>
<i>sadoqat-xiyonat</i>	<i>keng</i> – <i>tor</i>	<i>tez</i> – <i>sekin</i>	<i>kelmoq</i> – <i>ketmoq</i>

Mustaqil soʻz turkumlaridan *son* va *olmoshda* antonimlik kuzatilmaydi.

Antonimlarga doir topshiriqlar

“Oq va qora” metodi oʻtilgan mavzuni takrorlab olish maqsadida qoʻllanilaadi. Mavzuga doir maʼlumotlar istalgan koʻrinishda (jadval, test yoki oddiy savol tar-

zida) beriladi va oʻquvchidan ushbu fikrning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi soʻraladi.

Toʻgʻrimi yoki notoʻgʻri?

1. *Begunoh* – *gunohkor* soʻzlari sifat soʻz turkumiga oid.
2. *Dast* – *arang* soʻzlari sifat soʻz turkumiga oid.
3. *Hujum* – *mudofaa* soʻzlari ravish soʻz turkumiga oid.
4. *Isidi* – *sovidi* soʻzlari feʼl soʻz turkumiga oid.
5. *Jazo* – *mukofot* soʻzlari ot soʻz turkumiga oid.
6. *Tez-sekin* soʻzlari sifat soʻz turkumiga oid.

Soʻzlarning antonim juftini toping.

	yigʻladi
<b>kalta</b>	
<b>loyqa</b>	
	<b>magʻrib</b>
<b>nasiya</b>	
	<b>bisyor</b>

### IV. Paronim soʻzlar

Aytilishi va yozilishi bir-biriga yaqin, ammo turli leksik maʼno anglatuvchi soʻzlar paronimlar deyiladi. Ularni talaffuzda ajratib olish qiyin.

Paronim soʻzlar	Izohi
abzal	ot-ulov uchun zarur asboblarning majmuyi
afzal	nisbatan yaxshi
adil	tik
adl	adolatli, odil
alpoz	vaziyat
alfoz	soʻz, ibora
arpa [2: 10]	oʻsimlik
arfa	musiqaning asbobi
gal	marta safar
gall	qabila nomi
yod	xotira, es
yot	begona, oʻzga
yonilgʻi	yonuvchi suyuqlik
yoqilgʻi	oʻtin, koʻmir
mard	botir, jasur
mart	yilning uchinchi oyi
nasha	oʻsimlik
nashʼa	zavq, safo
orden	oliy mukofot
order	hujjat

Paronim soʻzlarni dublet soʻzlardan farqlay olishimiz kerak. Dublet soʻz – ikki xil yozuv koʻrinishiga ega ayni bir soʻzdir. Bunday soʻzlar imlo lugʻatlarida koʻrsatiladi. Masalan: *shaxmat* – *shohmot*, *kabutar* – *kaptar*, *igna* – *nina*, *bolgar* – *bulgʻor*, *masjid* – *majit*, *chivin* – *chibin*.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. Toshkent: Oʻqituvchi, 1984.
2. Maʼrufov A. Oʻzbek tilining paronimlar lugʻati. Toshkent: Oʻqituvchi, 1974.
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati. Toshkent: Oʻqituvchi, 1989.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.



Shakhnoza KAYUMOVA,  
Termez University of Economics and Service, PhD

## AXIOLINGUISTIC FEATURES OF HYDRONYMIC COMPONENT PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Annotation.** This article aims to explore the axiolinguistic features of proverbs containing hydronymic components in both English and Uzbek.

**Keywords:** axiolinguistics, hydronyms, proverbs, metaphor, hydronymic proverbs, cultural identity, language and culture, contrastive linguistics.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida gidronimik komponentlarni o'z ichiga olgan maqollarning aksiolingvistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

**Kalif so'zlar:** aksiolingvistika, gidronimlar, maqollar, metafora, gidronimik maqollar, madaniy o'ziga xoslik, til va madaniyat, qiyosiy tilshunoslik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются аксиолингвистические особенности пословиц, содержащих гидронимические компоненты, как в английском, так и в узбекском языках.

**Ключевые слова:** аксиолингвистика, гидронимы, пословицы, метафора, гидронимические пословицы, культурная идентичность, язык и культура, сравнительная лингвистика.

Proverbs are a vital part of any language and serve as expressions of collective wisdom passed down from generation to generation. These succinct, often metaphorical statements offer valuable insights into the moral, social and cultural values of the communities that use them. Proverbs distill the life experiences, beliefs and observations of a people, transforming them into easily understandable and memorable expressions. In this sense, proverbs act as a cultural mirror, reflecting the priorities and worldview of a particular society. When examined from an axiological perspective [2], which focuses on the study of values and moral principles embedded in language, proverbs reveal not just linguistic patterns but also the attitudes, beliefs and social norms of the speakers. The axiological function of language is essential because it demonstrates how linguistic expressions, even in seemingly ordinary forms such as proverbs, hold the power to shape and reflect the ethical standards and moral frameworks of a community.

One particularly significant category of proverbs is those that involve hydronyms or words related to bodies of water [3]. Hydronyms include terms that describe rivers, lakes, seas, streams and other water bodies, which hold both practical and symbolic importance in many cultures. Water, as an essential element of life, is frequently used in metaphoric expressions to convey complex ideas and abstract concepts such as purity, depth, danger, change and flow [1]. This universal and vital element has deep roots in cultural symbolism across societies and it often plays a significant role in shaping the moral lessons embedded in proverbs. The use of hydronyms in proverbs creates a rich metaphorical framework that helps convey lessons on personal virtues, social relations and the natural world. Water-related proverbs are not merely descriptive but often embody complex moral messages or

philosophical reflections. These proverbs tap into the collective unconscious of the culture, drawing on the symbolism of water and its properties to teach lessons about human behavior, relationships and the nature of existence.

In both English and Uzbek cultures, water is used as a powerful metaphor for understanding various aspects of human experience. The natural properties of water – its flow, depth, purity and adaptability – lend themselves to conveying deeper moral and cultural meanings. Hydronyms in proverbs often symbolize human virtues such as serenity, patience and clarity, or conversely, they represent human flaws such as impulsiveness, chaos and opportunism. For instance, in English, the proverb *“Still waters run deep”* draws on the concept of calm water as a metaphor for the depth of character [5]. It suggests that a person who appears outwardly calm and reserved may possess profound inner qualities or emotions that are not immediately visible. This proverb, thus, imparts a moral lesson about understanding others and recognizing that appearances can be deceptive. The water here symbolizes the depth of human character, while the stillness suggests that this depth is often hidden beneath the surface. Similarly, the proverb *“A rolling stone gathers no moss”* (though not directly related to hydronyms, it employs a metaphor of motion associated with water) speaks to the idea of restlessness and change. In contrast to the still water in the previous proverb, this image of a rolling stone suggests that constant movement or lack of stability may prevent the accumulation of values or wisdom – represented by moss. Here, movement and change, symbols often associated with water, are used to reflect on the value of stability in life.

In the Uzbek culture, proverbs that involve hydronyms also use the symbolism of water to convey important moral and philosophical ideas. A well-known

Uzbek proverb is “*Daryo oqsa, o‘zanini topadi*” (A river always finds its bed), which is rich with symbolic meaning. The river here symbolizes life’s journey or natural flow, while the bed represents destiny or the path one ultimately takes. This proverb reflects the cultural belief that no matter how unpredictable or chaotic life may seem, events will eventually settle into a natural order. In this case, water as a metaphor suggests both inevitability and the existence of a natural order in the universe. Another example from Uzbek proverbs, “*Suvga tushgan itni ko‘rgan hayvonlar hammasi og‘izlarini ochadi*” (When the dog falls into the water, all animals open their mouths), uses the image of water to symbolize vulnerability and exploitation. The proverb conveys the idea that when someone is in a weakened or vulnerable position (like the dog in the water), others will often seize the opportunity to criticize or take advantage. This shows how water can represent both danger and exposure, and the actions of others reflect the social dynamics of the culture – where people may react opportunistically to the misfortune of others.

The axiolinguistic significance of hydronymic proverbs lies in their ability to express cultural beliefs about human nature, morality and the natural world. Water, with its multiple symbolic meanings, is deeply intertwined with cultural perceptions of balance, life’s course, social behavior and individual virtue. From an axiolinguistic perspective [4], the use of hydronyms in proverbs reveals underlying values and moral attitudes prevalent in a particular culture. In both English and Uzbek, water-related metaphors help shape how individuals understand personal virtues, social dynamics, and the broader natural world. These proverbs embody cultural norms and provide guidelines for navigating life’s challenges, emphasizing the importance of balance, judgment and adaptability. For example, the English proverb “*Don’t throw the baby out with the bathwater*” uses the metaphor of bathwater, which represents something discarded or unwanted, to illustrate the importance of maintaining what is valuable while removing the unnecessary. The axiological feature of this proverb lies in its focus on prudence and careful evaluation in decision-making. It suggests that in life, we must be mindful of the consequences of our actions and not discard what is valuable in the pursuit of solving problems. In contrast, the Uzbek proverb “*Daryo oqsa, o‘zanini topadi*” places more emphasis on the inevitable flow of life. Water here symbolizes life’s course, and the proverb suggests that things will

eventually fall into place, despite initial challenges. This reflects a cultural value of trusting the natural order and a sense of patience in the face of adversity. In Uzbek culture, there is often a belief that nature and life will find their own way, so patience and faith in the process are crucial values. The axiological feature here is acceptance of life’s natural course and the importance of patience.

The axiolinguistic significance of these proverbs lies in their ability to express cultural beliefs about human nature, morality and the forces of nature. Whether in English or Uzbek, hydronymic proverbs reflect how water-related metaphors are deeply woven into the cultural fabric, serving not just as linguistic devices, but also as moral teachings and cultural reflections. The use of hydronyms in proverbs offers a deep exploration of the axiological values embedded in language. English and Uzbek hydronymic proverbs convey distinctive cultural insights, using the symbolism of water to reflect on personal virtues, moral lessons and societal norms. Whether focusing on prudence and careful evaluation in English, or acceptance and patience in Uzbek, these proverbs illustrate how cultures use water metaphors to navigate the complexities of life. From an axiolinguistic perspective, the study of these proverbs reveals the powerful role of language in shaping and reflecting the moral and cultural values of society. Thus, water-related proverbs are not merely linguistic devices; they are cultural artifacts that encapsulate moral wisdom and social philosophy across different cultures.

In conclusion, the axiological study of hydronymic proverbs in both English and Uzbek languages reveal how water-related metaphors reflect and shape cultural values, moral attitudes and social behaviors. Hydronyms, such as rivers, lakes and streams, are powerful symbols in both cultures, carrying deep meanings that express universal human experiences, from virtues like patience and prudence to themes of inevitability and natural order. Overall, hydronymic proverbs in both languages serve as rich cultural artifacts that encode moral lessons and societal norms. Through the lens of axiolinguistics, it becomes clear that these proverbs are more than just linguistic expressions – they are vehicles for transmitting the collective wisdom of a society. Whether emphasizing personal agency and prudence in English or patience and acceptance in Uzbek, water-related proverbs provide valuable insights into how language and culture interact to shape our understanding of life, nature and human behavior.

#### References

1. Apresjan J. Metaphors in language and culture. In *Metaphor in Language and Thought: Ideology, Metaphors, and Meaning*. – Cambridge University Press, 2000.
2. Bergsma S., Cook P. *Axiology and language*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2008.
3. Goddard C. *Language and culture: a social linguistic introduction*. – Blackwell Publishing, 2001.
4. Kunin A. Hydronyms in linguistic and cultural studies // *Journal of Linguistics*, 1996, 45(3), 195–212.
5. Yarullina R. *Proverbs in cross-cultural communication: a linguistic study*. – Kazan University Press, 2014.